


Ma`suda Abdullayeva  
O`g`iloy Asqarova  
Bahodir Madaminov  
Muqimjon Hayitboyev

# TA'LIM TARIXI



Ma`suda Abdullayeva  
O`g`iloy Asqarova  
Bahodir Madaminov  
Muqimjon Hayitboyev

# TA`LIM TARIXI

*O`quv qo`llanma*

“Muharrir” nashriyoti  
Toshkent  
2013

UDK: 821.512.133(072)

BBK: 74.268.3

T 12

**Ta'lim tarixi:** o`quv qo`llanma / Ma`suda Abdullayeva (va boshqalar). – Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2013, 120 b.

- I. Asqarova, O`g`iloy
- II. Madaminov, Bahodir
- III. Hayitboyev, Muqimjon

**Taqrizchilar:** A. Rasulov – *tarix fanlari doktori.*

A. Sattarov – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*



ISBN - 978-9943-25-186-1

© M. Abdullayeva va boshqalar  
© «Muharrir» nashriyoti,  
Toshkent, 2013.

## KIRISH

*Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.*

**Karimov I.A.**

Ko'p yillik boy o'tmishimizning ko'zgusi bo'lgan ta'lim tarixi boy va ko'hna. Xududimizda manbalarning guvohlik berishicha, inson million yil avval paydo bo'lib, o'z avlodini tarbiyalash, unga ta'lim berishning o'ziga xos yo'llaridan borgan.

Yurtboshimiz I. A. Karimovning mana bu ibratomuz so'zlarini o'qib, ulug' ajdodlarimizning muttasil mustaqillik g'oyasiga sodiq bo'lib, shunga intilib yashab kelganligiga yana bir bor amin bo'lamiz: "Biz ona O'zbekiston istiqlolini, uning sha'nu-shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor.

Ulug' ajdodlarimizdan muqaddas me'ros bo'lib kelayotgan vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqodga, chinakam aqidaga aylansin".

Darhaqiqat, chor mustamlakachiligi o'zining behad zulmkorligi, qabohat bilan yurtimiz, uning jafokash odamlari qalbida o'chmas dog'-hasrat qoldirdi, ularning qalbi dilini pora-pora etib, beaded mahrumlikka griftor qildi. U ajdodlarimizning qalb olamini azaldan bezab, ularni ma'nan va ruhan qo'llab-quvvatlab kelgan ne-ne asl ma'naviy qadriyatlarni zavol toptira borib, ularning jismu jonida mavj urib kelgan milliy istiqlol va erk tuyg'ularini asta-sekin so'ndirishga urinib keldi.

Turkiston xalqlarining erk, ozodlik uchun kurash g'oyasi, ta'lim-tarbiya tarixiga ham muhrlanib, bu g'oyalarni amalga oshirishning birdan-bir yo'li bo'lib qoldi. Yangi asr boshlarida jadedlar nomi bilan mashhur bo'lgan, o'z ongli hayotini, butun borlig'ini yurt, millat ozodligi, hurligi va ravnaqiga baxsh etgan, ularning ilm-ma'rifatli bo'lishi uchun kurashgan darg'alar yetishib chiqdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda, Isoqxon Ibrat, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Shakuriy kabi ilg'or ma'rifat-parvar-larning Turkiston ozodligi, istiqlol yo'lida qilgan ulkan sa'y-harakatlari, millat farzandlari ta'limi, tarbiyasini isloh qilish, yaxshilash, uni yuksak zamon talablari darajasiga ko'tarish borasidagi zahmatlari tahsinga loyiqdir. Eng muhimi, ular xalqimizni ongi, tafakkurini, ziyo nuri bilan yoritish, o'zligini anglatish, yorqin kelajakka komil ishonch bilan qarash, o'z erki, mustaqilligi uchun izchil kurashish bobida benazir faoliyat ko'rsatdilar.

Ta'lim tarixi kursi, bu bizning xalqimizning tarixiy madaniyati, maorifini, ma'naviyatini aks ettiruvchi ziyodir.

Zero, "Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir", - deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" - nomli asarida. Bu g'oya hammamiz uchun dasturilamal bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

## I BOB

### MARKAZIY OSIYODA TA'LIM-TARBIYANING PAYDO BO'LISHI

#### *1. Ta'lim tarixi kursining maqsadi va vazifalari.*

Ta'lim tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini o'rganadi.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotini qanday taraqqiy etib kelganligini bilmay turib, bugungi kundagi ulkan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni, maktablarni jamiyat hayotida tutgan mavqeini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi.

O'tmishda yashab, ijod etgan ajdodlarimizning ta'limga nisbatan bildirgan ilg'or fikrlari, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatida maktab va xalq ta'limining rivojlanish jarayonini o'rganish, tanqidiy xulosalar chiqarish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga olib keladi. Bu g'oya va tafakkurni tahliliy o'rganib, uning eng foydali tomonlarini qabul qilish va to'g'ri xulosalar chiqarish bu kursning bosh maqsadi va vazifasidir.

Ta'lim tarixini mana shunday asosda tushunish tufayli turli ta'lim nazariyalari, maktablar tuzilishi tarixi, tarbiya va ta'limning yo'lga qo'yilish mazmuni va metodlari, oqibat-natijada jamiyatning moddiy hayot sharoiti bilan belgilanadi, ular o'zi ham jamiyat moddiy hayotining taraqqiysiga muayyan ta'sir o'tkaza oladi. Bu dialektik rivojlanishni qanday bo'lsa shundayligicha o'rganish kursning maqsadini belgilab beradi.

Ta'lim tarixi haqida fikr yuritar ekanmiz bir savol paydo bo'ladi: Ta'lim oldin paydo bo'lganmi yoki tarbiya? Biz bu savolga tarbiyaga insoniyat oldinroq muhtoj bo'lgan deb javob beramiz.

## ***2. Ibtidoiy jamiyatning yemirilish davrida tarbiya va ta'lim.***

Xususiy mulk, qullik va er-xotin bo'lib yashaydigan (monogam) oilaning paydo bo'lishi bilan ibtidoiy jamiyat yemirila boshladi. Yakka er-xotin bo'lib yashash asosida qurilgan oilaning vujudga kelishi katta tarixiy taraqqiyot bo'ldi. Oila eng muhim ijtimoiy xodisalarning biri bo'lib qoldi va mustaqil xo'jalik yurita boshladi.

Ijtimoiy tarbiya bilan bir qatorda oilaviy tarbiya ham paydo bo'la boshladi. Aholining hukmron guruhlari (kohinlar, yo'l boshchilar, oqsoqollar) ajralib chiqdi; bular jismoniy mehnat talab qiladigan ishlarga o'rgatishni aqliy bilim berishdan ajratib qo'yishga harakat qildilar. Bu hukmron guruhlar ba'zi bilimlarni (dalalarni o'lchash, daryolarda suv toshqini bo'lishini oldindan bilib xabar berish, odamlarni davolash usullari va shu kabilar) o'z qo'llariga olishga harakat qilardilar. Bunday bilimlarni o'rganish uchun maxsus muassasalar (maktablar) tashkil etildi. Masalan, boylarning bolalari jismoniy mehnatdan ozod qilib qo'yilgan bo'lib, ular alohida binoda o'qiganlar, oddiy kishilarning bolalari bilmaydigan bilimlarni (masalan, piktografik xatni, yulduzlarni kuzatishni, maydonlarning sathini hisoblashni) o'rganganlar. Shu tariqa ular boshqalardan ustun bo'lib qolganlar. Mehnat ekspluatatsiya qilinuvchilarning qismati bo'lib qolavergan. Bunday oilada bola yoshligidanoq mehnatga o'rgatilgan, ota-onalar dehqonchilikdagi o'z tajribalarini bolalarga o'rgata borganlar. Maktablarda olib boriladigan, yaxshi yo'lga qo'yilgan tarbiya mumtoz tabaqalar uchungina xos bo'lgan.

## ***3. Markaziy Osiyo xalqlarida ibtidoiy jamoa davrining oxiridagi tarbiya va ta'lim.***

Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham mehnat taqsimoti oilaviy tarbiya orqali nasldan-naslga o'tib, mustahkamlanib keldi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi oddiy xalqdan ustun darajada turuvchi jangchilar va kohinlar guruhlari paydo bo'la boshladi.

Kohinlar o'zlari o'rganib olgan boshlang'ich ilmiy bilimlarni oddiy kishilardan yashirib, bolalariga o'rgata bordilar va shu tariqa bunday bilimlar avloddan-avlodga o'tadigan bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyoning turli joylarida qoyalarga o'yib yozilgan qadimiy suratlar saqlanib kelmoqda. Ibtidoiy jamiyatning surat solishga mohir bo'lgan kishilari bu suratlarda odamlarning yumushlarini, hayvonlarni ovlash manzaralarini tasvirlaganlar. Bunday suratlashlik rivojlana borib, bir qancha mamlakatlarda piktografik xatni paydo bo'lishiga imkon berdi, keyinroq iyerogliflar bilan yoziladigan xat mazkur piktografik xatlarda vujudga keldi. Markaziy Osiyoda piktografik xat uzoq vaqt saqlanib rivojlana olmadi. Chunki harf bilan yozish usuli quldorlik jamiyati davlatlarida qo'shni mamlakatlardan Markaziy Osiyoga o'tib, tarqala boshladi. Shunday qilib qadimgi ajdodlarimiz ta'lim jara-yoniga kirib keldilar. O'z ta'lim tarixlarini yaratishga o'zlari asos soldilar.

### **Tayanch iboralar:**

*Xususiy mulk, monogam, kohinlar, yo'lboshchilar, oqsoqollar, piktografik yozuv, iyerogliflar.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Ta'lim tarixi kursi vazifasi nima?*
2. *Ta'lim tarixi kursi maqsadi nima?*
3. *Oila qanday tarbiyani targ'ib qildi?*
4. *Piktografik yozuv qanaqa bo'ladi?*
5. *Kohinlar kimlar?*



## II BOB

### AVESTO DAVRIDA TA'LIM

#### *1. Avestoda didaktik g'oyalarning ifoda etilishi.*

Markaziy Osiyodan farqli ravishda, O'rta dengizning Sharq qismidagi mamlakatlarda iyerogliflar: yozuvning yangi turi - tovushlarni ifodalovchi harflar bilan yozish yoki alfavit kelib chiqdi; tezda qo'shni jamoalarga tarqaldi. Baribir bizning diyorumizda folklor-kattalarni va yoshlarni tarbiyalash vositasi bo'lib qolaverdi. Sinfy jamiyatda folklor umuminsoniy ahloqigina ifodalab qolmasdan, shu bilan birga, ijtimoiy kurash g'oyalarini ham ifodalar edi.

Sinflar kurashida din katta rol o'ynardi. Din avval og'zaki targ'ib qilinar edi. Xalq orasida yozuv tarqala boshlagandan keyin kohinlar dunyoning yaratilishi to'g'risida diniy folklordan tanlab olingan afsonalarni va aqidalarni yozib tarqatadigan bo'ldilar. Bularni sodda xalqqa, xudo yozib yubordi, deb tarqatardilar. "Muqaddas kitob"larda podshohning hukmiga itoat etish, xudoning buyrug'i deb da'vo qilinar edi.

Qadimiy "muqaddas" kitoblardan biri bo'lgan Avestoni (Markaziy Osiyoda, Eronda va Zakavkaziya tarqalgan dinni) afsungar kohinlar yaratib berdi.

Avestoda, shuningdek budda, xristian, yahudiy dinlarining va boshqa dinlarning "muqaddas kitoblarda" saqlanib qolgan nasihatimiz folklorda qadimiy og'zaki ta'limning didaktik usullarini topish mumkin: "muqaddas kitoblarni" ovoz chiqarib o'qib berishni ham og'zaki ta'lim qatoriga qo'yish mumkin, chunki bunday kitoblarning nodir qo'lyozma nusxalari faqat kohinlar qo'lida bo'lar edi.

#### *2. Avestodagi didaktik usullar.*

Kohinlar o'qib bergan kitobni yodlab olishga quyidagi usullar yordam berar edi:

1. Matn ohangdor qilib o'qilar;

2. Matn boshida yodlab olish kerak bo'lgan qancha aqida borligi ko'rsatib o'tilar;

3. Katta matn qismlarga bo'linib o'qilar;

4. Ko'p martalab takrorlash usuli qo'llanilar edi.

Vaqt o'ta borishi bilan "muqaddas kitoblar"ning tili eskirib borar, lekin kohinlar bu tilni o'zgartirib bo'lmaydigan ilohiy til deb e'lon qilar edilar. Ongsiz xalq esa, o'zi tushunmaydigan "muqaddas so'zlar"ning ohangdor qilib o'qilishini astoydil ixlos qo'yib tinglar edilar. "Muqaddas kitob"ning eskirib qolgan tilini tushunish uchun kohinlar orasida filologiya ilmining boshlang'ich qismlari tug'ila boradi.

Kohinlar orasida faqat din bilangina emas, balki, shu bilan birga, tabiat to'g'risidagi fanning boshlang'ich qismlari bilan bog'liq bo'lgan ilmlar to'plana bordi. Zotan, kohinlar astranomiya va astrologiyaning (yulduzlarga qarab fol ochish) farqiga bormas edilar, kasalliklarni chaqiradigan ruhlarni avrashni meditsina ishi qatoriga qo'shardilar.

Sug'orib, dehqonchilik qiladigan mintaqaning turli joylarida madaniyatni, ta'limni rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, chunki qadimgi zamonlarda xalqlar o'rtasida o'zaro aloqa, bordi-keldi, til bitimi munosabatlari tasodifiyigina bo'lishi mumkin edi.

Turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha xissa qo'shganlar. Masalan, Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi ishlab chiqildi. Mesopatamiyada yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va sekundlarga bo'lish o'ylab topildi. (Graduslar ham, soatlar ham hisoblashning oltilik tizimiga asoslangan).

Markaziy Osiyoda Misr, Mesopatamiya, Hindiston, Xitoydagiga nisbatan bunday ta'limning rivojlanishi keyinroq sodir bo'ldi. Eramiz boshlanishidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda (bu yerda quldorlik tuzumi vujudga kelgan edi) O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi; so'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengiz tomon "Buyuk ipak yo'li" ochildi.

Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib qoldi. Bu o'z navbatida Markaziy Osiyo vohalarida madaniyatni o'stirdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

O'sha vaqtda (eramizning boshlarida) O'rta Osiyoning turli vohalarida atrofdagi mamlakatlarning alfavitlari: arameya (Suriya) alfaviti, yunon alfaviti, hind alfaviti, shuningdek, arameya alfavitidan kelib chiqqan mahalliy yozuvlar: Xorazm, Sug'd, baqtriya yozuvlari ishlatilar edi.

Eramizning boshida Markaziy Osiyoning katta shaharlarida anchagina savodli kishilar bor edi; masalan, qadimiy kuryerning (choparning) qumlar orasida saqlanib qolgan sumkasida Xitoy davlatiga borgan yosh ayolning Samarqandga yozib yuborgan xatlari topilgan.

Sharqiy O'rta dengiz mamlakatlarida eramizdan oldingi davrda savod o'rgatadigan xalq maktablari bor edi. Bunday maktablar quldorlik davrining oxirida Markaziy Osiyoning ba'zi shaharlarida ham paydo bo'ldi.

Savod maktablari hamda kohinlarning ta'lim beradigan maktablari bilan bir qatorda hunar o'rgatish an'analari ham vujudga keldi.

Har bir hunarmand o'z hunarini o'g'liga o'rgatishi tabiiy edi. Eramiz III asrining birinchi yarmida quldorlik tizimining yemirilishi yetilgan bir vaqtda Sosoniylar davlati (bu davlat Eronni, Markaziy Osiyoning g'arbini va Zakavkaziyaning bir qismini o'z ichiga olar edi) hukmdori farmon chiqaradi. Unda har bir toifa kishilari o'z otalarining mashg'uloti bilan shug'ullansin va bu mashg'ulotini o'zgartirmasin deyiladi. Bolalar ota-bobolarining hunariga boshqa hunarlarga qaraganda ko'proq qiziqadilar, deyilgan edi farmonda. Lekin keyinroq Eronning ilg'or kishilari bu farmon podshoh hokimiyatini, podshoh bo'lmagan kishilarning hamlasidan saqlab qolishga, ya'ni toifaviy chegaralarni mustahkamlashga xizmat etdi, deb yozgan edilar.

Ilgarigi vaqtlarda qabiladagi erkaklarning hammasi harbiy-jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi shart edi. Quldorlik jamiyatida bunday mashqlar bilan shug'ullanish tobora harbiy

toifaga xos imtiyozlarning biriga aylandi. Qurol-yarog' va harbiy texnikaning rivojlana borishi natijasida turli mamlakatlarda o'q otishni, ot minishni, nayza otishni va boshqa harbiy mashqlarni o'rgatadigan mutaxassis ustozlar paydo bo'ldi.

**Tayanch iboralar:**

*Muqaddas kitoblar, avesto, otashparast, astrologiya, Zaratushtra.*

**Nazorat savollari:**

1. *Qanday kitoblar muqaddas hisoblanadi?*
2. *Avesto nimani o'rgatadi?*
3. *Kimlar otashparastlar deb yuritaladi?*
4. *Astrologlar kimlar?*
5. *Zaratushtra dinini maqsadi nima?*

### III BOB

## MARKAZIY OSIYODA ISLOM DINI TARQALGANDAN KEYIN MAKTAB VA PEDAGOGIKA

### *1. Musulmon maktablarining paydo bo'lishi.*

VII-VIII asrlardagi arab istilolari natijasida xalifalik deb atalgan katta davlat vujudga keldi. Bu davlat tarkibiga Arabistondan tashqari Suriya, Falastin, Mesopatamiya, Eron, O'rta Osiyo, g'arbda esa Shimoliy Afrika va Pirenet yarim orolining janubi kirdi. Istilochilar o'zlari bo'ysundirgan xalqlarga yangi dinni - islom dinini zo'rlab qabul qildirdilar.

Islom dini bilan birga shu dinning "muqaddas" bo'lgan qur'onning tilini, ya'ni arab tilini o'rganish joriy qilindi. Qur'onni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlab qo'yildi va uni tarjima qilgan kishining boshi olinajagi e'lon qilindi. Xalifalikni xilma-xil qabilalar yashaydigan qismlari arab tili orqali bir-biri bilan aloqa qilib turardi. Xalifalik bo'linib ketgandan keyin (X asr) arab tili xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilib qolaverdi.

Musulmon maktablarida arab tili alohida muhim fan tariqasida o'qitilardi, bilimlar ana shu tilda o'rganilar edi.

Musulmon maktablarida o'quvchilarga "inson umrbod xudoning yo'l-yo'rig'idan chiqmasligi lozim", demak, o'z hokimlariga itoat qilishi lozim, chunki hokimlar xudoning yerdagi soyasidir; "bu dunyoni o'ylamay, u (narigi, ya'ni o'lgandan keyingi) dunyoni o'ylamoq kerak" - deb ta'lim berilardi. Ko'p asrlar davomida islom falsafasi va pedagogikasining asoschilaridan biri deb hisoblab kelingan G'azzoliy (XI asr, Eron) har bir musulmon uchun "kerakli bilimni" shu yuqoridagi iboralarda ifodalab bergandi.

Musulmon maktablarining tiplariga, asosan, bunday maktablarning Markaziy Osiyoda rivojlanish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Arab istilosidan oldingi davrda Markaziy Osiyodagi o'qitish tizimi to'g'risida ham bir yo'la taqqoslab, gapirib o'tamiz. Bu bilan biz yashab turgan joylarimizdagi ajdodlarimiz ham anoyi, sodda odamlar emasligiga, madaniyati rivojlanayotgan xalq ekanligiga amin bo'lasiz.

## **2. Savod va hisoblar o'rgatadigan maktablar.**

Xitoy sayyohi Syuan Szyan 630 yilda Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: bu shaharda o'g'il bolalarning hammasi besh yoshdan boshlab yozish va hisoblashga o'rgatiladi, o'smirlik yoshiga yetganda esa savdo ishini o'rganmoq uchun savdogarlarning karvoniga qo'shilib, safarga jo'naydilar. "Buyuk ipak yo'li" bo'yida savdo-sotiq ishlarini o'z qo'liga kiritib olgan savdogarlarning bolalarigina shunday qilardilar, albatta. Bu yerda Xitoydan Samarqandga xat olib kelgan qadimiy xat tashuvchi (kuryer)ning sumkasini eslatib o'taylik.

Savdogarlardan tashqari soliq undirish va ma'muriy yozishmalar bilan shug'ullanuvchi mirzalar ham savodli bo'lishi va hisoblashni bilishi kerak edi. Zarafshon daryosining yuqori tomonidagi yerlarda, muh tog'ida, arablar bilan bo'lgan urushlarda qatnashgan mahalliy bek qasrining vayronalarida savdo-sotiq ishlariga doir xatlar yozilgan ko'pgina hujjatlar topildi. Bu hujjatlar turli materiallarga turli tillarda (qog'oz, yog'och, teri va boshqalarga) yozilgan edi.

Syuan Szyanning Samarqandga borganidan bir necha yil o'tgach, Samarqandni va butun Markaziy Osiyoni arablar bosib oldi va bu yerlarning aholisiga islom dinini qabul qildirdi. Xalifalikning o'zida va uning hududiagi yangi davlatlarda mirzalar (dabirlar) toifasi ko'payib ketdi. Shundan beri tevarakatdagi ko'p mamlakatlarda bo'lgani kabi butun Markaziy Osiyoda ham xatlar arab harflari bilan va, asosan, arab tilida yoziladigan bo'lib qoldi, qog'oz ko'p kerak bo'la boshladi.

IX asrda yashagan faylasuf Farobiyning yozishiga qaraganda (u asli Sirdaryolik turklardan bo'lib, Bog'dodda o'qigan), mohir dabir arab tilini (lug'at va grammatikasini), ritorikani ( mantiqni va o'z fikrini bayon qila olishni), xusnixatni va arifmetikani bilishi kerak edi. XI asrda chop etilgan "Siyosatnoma" (Nizomul-Mulkning hukmdorligi haqida) asarida Samarqanddagi boshlang'ich maktab tasvirlanadi; shu maktabda o'zining olimligi bilan shuhrat qozongan bir mashhur dabir yozgan hujjatni o'rnak qilib, yozishni o'rganar ekanlar.

Yana o'sha XI asrda, asli samarqandlik bo'lib, lekin Afg'onistondagi bekning xizmatida yurgan boshqa bir tajribali dabir xat yozishni mashq qila boshlagan dabirlarga o'z ilmini orttirish va

tilini boyitish uchun arab va fors-tojik tillarida yozilgan o'ttizga yaqin asarni o'qib chiqishni tavsiya qilgan.

Keyinroq, ayniqsa, mo'g'ullarning XIII asrdagi istilosidan so'ng, odatda, madrasani tamomlab chiqqan kishilargina ma'muriy vazifalarda va qozixonalarda ishlaydigan bo'lib qoldilar.

Islom dinini yoyish harakati boshlanmasdan sal vaqt oldin arablar xat-savod nimaligini qo'shni xalqlardan o'rgana boshladilar. Muhammad S.A.V. payg'ambar nomi bilan bog'langan islom dini ta'limoti, dastlabki vaqtlarda, og'zaki tarzda tarqatib kelindi. Bu diniy harakat rahbarlari qur'onni tuzganlaridan keyin uni ko'chirib yozadigan kotiblar tayyorlash uchun maktablar ochish lozim bo'lib qoldi. Qur'onni ko'chirib yozish savobli ish deb e'lon qildilar. Xatiblar bittadan qur'on ko'tarib olib, uni qiroat bilan o'qib boradigan bo'ldilar.

VIII asrning boshidagi ijtimoiy tuzumning rahnamosi xalifa, hamma masjidlar huzurida maktablar ochilsin va o'g'il bolalarga shu maktablarda qur'on o'qish o'rgatilsin, deb farmon berdi.

Islom dini borib yetgan joylarning hammasida masjidlar ochilaverdi; masjidning imomi esa, o'g'il bolalar uchun maktab tashkil qiladigan bo'lib qoldi.

Qadimgi vaqtlarda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rgatishdan boshlanar edi; "maktab" - ya'ni yozishni o'rgatiladigan joy degan arabcha so'zning ma'nosi ham shundan kelib chiqqan.

Masjidlar huzuridagi maktablar xalqni ma'naviy jihatdan bo'ysundirish uchun xizmat qiladigan joy bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyoda maorif va maktab yanada achinarli ahvolga tushdi. Bolalar va yoshlar, asosan, mahalliy ruhoniylarning ixtiyoriga topshirib qo'yilgan edi. Ruhoniylar butun maorif ishini islom dini aqidalarini o'quvchilar miyasiga singdirishdan, qur'on va boshqa "muqaddas" kitoblarni quruqdan-quruq yodlatishdan iborat qilib qo'ydilar. O'lkada mavjud bo'lgan diniy o'quv yurtlari (maktablar, qorixonalar) xalq orasida savod va bilimni yoyishga yordam bermas edi, ular faqat diniy hurofot va bid'atlarni tarqatar, bolalar va o'smirlarni hukmron sinflarga so'zsiz itoat qilish ruhida tarbiyalardi, bu esa faqat mustamlakachilarning siyosatiga emas, balki mahalliy feodal-boylarning manfaatlariga ham tamomila mos kelardi.

Maktablarda o'quv-tarbiya ishlari juda sodda usulda o'qitilgan. Arab alifbosini o'rganganlaridan keyin bolalarga qur'ondan parchalar o'qitila boshlangan. O'quvchilar o'zlari o'qib chiqqan arabcha matnning ma'nosini tushunmaganliklari uchun ular qur'ondan olingan parchalarni shu maqsadga maxsus moslashtirilgan kitoblar: "Haftiyak", "Chorkitob" bo'yicha yodlab olar edilar. Bunday o'qishga ikki-uch yil vaqt ketardi. Maktablarda bolalarni o'qitish shu bilan tugardi. Bu maktablarda ham boshqa diniy maktablardagi kabi, kaltaklash, tan jazolari "tarbiya"ning "sinalgan" usuli hisoblangan.

Atoqli tojik yozuvchisi Sadriddin Ayniy "Eski maktab" nomli asarida o'sha zamondagi maktablarda hukm surgan vahshiyona odatlarni ta'sirli qilib tasvirlab bergan. Bunda bolalarni qiynoqqa solishning dahshatli ko'rinishlari bayon qilingan. Domla o'quvchilarning "gunohkorligi" uchun ularni jazolar ekan, qo'llarini qayirib, shikast yetkazgan, tovonlarini tilib, yaralariga tuz sepgan.

Bunday qabih ta'lim-tarbiya tizimi hokim sinflarning ijtimoiy talabiga mos kelardi, chunki o'sha davrda maktabning asosiy vazifasi bolalar va yoshlarni dinga sabr-toqat bilan, ko'r-ko'rona itoat qilishga odatlantirishdan, yosh avlodni boylar, ruhoniylar va hokimlarning itoatkor malaylari qilib yetishtirishdan iborat bo'lgan.

Maktablarda berilgan bilimlar shunchalik arzimas va shunchalik turmushdan uzoq bo'lganki, o'quvchilarning ko'pchiligi maktabni bitirib chiqqandan so'ng sal vaqt o'tar-o'tmas yana savodsiz bo'lib qolaverar edilar.

### **Tayanch iboralar:**

*Musulmon maktablari, xat tashuvchi, xalifalik, dabirlar, ritorika, ruhoniy.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Musulmon maktablarida ta'lim qanday tashkil etilgan?*
2. *Arab istilosidan oldin qanday maktablar bo'lgan?*
3. *Arab istilosidan oldingi maktablarda ta'lim tizimi qanaqa bo'lgan?*
4. *Dabir kim? Qanday vazifa bajaradi?*
5. *Birinchi alifbolarning nomlari qanaqa?*



## IV BOB

### MASJIDLAR HUZURIDAGI QADIMIY TA'LIM

#### *1. Qorixona maktablari.*

Maktablarni yaxshi tamomlab chiqqan, xatib bo'lishni orzu qilgan talaba madrasalarga o'qishga kirar edi. Madrasalarda musulmon ulamolarining darslarini (ma'ruzalarini) tinglar edi.

Islom dinining dastlabki asrlarida bunday ma'ruzalar, odatda, shaharlarda katta masjidlarda o'qilar edi.

X asr boshlarida madrasalar (dars o'qitiladigan joylar) paydo bo'ldi. Bo'lajak xatiblar madrasalarda dars tinglash bilan kifoyalanib qolmasdan, balki shu madrasalar hujralarida diniy ruknlarga qat'iy rioya qilgan holda besh vaqt namozni kanda qilmay o'qir edilar. Monastirlardagi budda va xristian maktablari singari madrasa huzurida hammaning namoz o'qiydigan joyi masjid bo'lar edi. Mullavachchalar shu madrasalardagi hujralarda yashar edilar, madrasa hovlisiga xotin-qizlar kiritilmasdi.

Markaziy Osiyoda dastlabki madrasalar diniy kurash avj olgan vaziyatda vujudga keldi. Ijtimoiy mojarolar mana shunday diniy kurash niqobi ostida olib borilar edi. Markaziy Osiyodan so'ng islom dini hukmron bo'lgan g'arbiy hududlarda ham madrasalar ochila boshladi.

Madrasani xatm qilgan (tamomlab chiqqan) tolibi ilmlar masjidlarining imomi bo'lib ishlar edilar; qozixonalarda ma'muriy ishlarda xizmat qilardilar. Shu sababli hokim va beklar madrasalar tashkil etilishidan manfaatdor edilar.

XI asrda Bag'dodda vazir Nizomul-Mulk 300 ta bola o'qitiladigan madrasa qurdi. O'sha vaqtda bu eng katta madrasa hisoblanardi. Madrasaga yosh Al-G'azzoliy bosh mudarris bo'lib tayinlandi. "Nizomiya" deb atalgan bu madrasada Al-G'azzoliy matematika va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishni joriy etdi. Biroq mutaassib ruhoniylar bunga norozi bo'ldilar. Al-G'azzoliy mudarrislikdan chetlatildi, lekin bir necha yildan keyin u yana nom chiqardi. Lekin bu safar u mutaassiblarning ideologi bo'lib qolgandi.

Madrasalarda dunyoviy fanlar o'qitishni joriy qilishga boshqa joylarda ham urinib ko'rildi. Masalan, XV asrda Ulug'bek Samarqandda o'zi qurdirgan madrasada astronomiyadan dars

berardi. Lekin reaksiyon ruhoniylar bunga ham hamisha to'sqinlik qilib turdilar.

## *2. So'nggi feodalizm davridagi Markaziy Osiyoda madrasalar.*

Yirik boylar o'z hisobidagi yerlarning bir qismini va boshqa mulklarini, madrasalar ixtiyoriga berib, uning moddiy ba'zasini mustahkamlar edilar. Bunday yer va mulklarni "vaqflar" deb atalar edi. Quldorlik davridayoq turli mamlakatlarda podshohlar ibodatxonalariga, ya'ni ularning kohinlariga ekinzor yerlarni tortiq qilib, din bilan mustahkam ittifoq tuzganlar.

Markaziy Osiyoda va islom dini hukmron bo'lgan boshqa o'lkalarda feodal davlatlarning boshliqlari madrasalar foydasiga vaqf qilishni o'zlariga odat qilib oldilar. Ko'pgina boylar ham bu ishga bosh-qo'sh edilar. Markaziy Osiyoning ba'zi joylarida so'nggi feodalizm davrida sug'oriladigan hamma yerlarning uchdan bir qismi (va hatto undan ham ko'pi), asosan, madrasalarga tegishli vaqf yerlardan iborat bo'lib qoldi; dehqonlar bu yerlarni ijaraga olib, ruhoniy feodallar foydasiga mehnat qilardilar.

Odatda, vaqfdan kelgan daromadning o'ndan bir qismini madrasaning mutavallisi (uning xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi kishisi) hamda vaqf qoldirgan kishining avlodi olardi; daromadning qolgan qismi madrasa mudarrislariga va mullavachchalarga sarflanardi. Vaqfi ko'p bo'lgan ba'zi madrasalarda o'quvchilarga vaqfdan tegadigan hissa ancha katta bo'lar edi. Bunday madrasalarda hujra ko'pincha otadan bolaga me'ros bo'lib qolaverar yoki sotilaverar edi, chunki shu hujrada yashagan kishigina stipendiya olishga haqli bo'lardi. Ba'zi boy madrasalar, ayniqsa, Buxoroda asta-sekin tekinxo'rlarning makoniga aylanib qoldi. Lekin bu tekinxo'rlar mudarrislarining darslariga borishni o'zlariga malol ko'radigan bo'lib qoldilar. Mullavachchalar orasida o'qish yo'li bilan turmush mashaqqatlaridan qutulishni orzu qiladigan, kambag'al bolalar ham bor edi. Bunday bolalar erta bahordan kech kuzgacha pul ishlash uchun ketardilar; ularning ko'plari dashtlardagi ovullarga va tog' etaklaridagi qishloqlarga borib, bolalarga qur'on o'qishni o'rgatar edilar, chunki bunday joylarda doimiy maktablar bo'lmasdi.



### 3. *Markaziy Osiyoda so'ngi feodalizm davrida ta'lim.*

Bolalar maktabga kirgan dastlabki kundan boshlab ularga harflarni hijjalab o'qish usuli bilan savod o'rgatildirdi; bu usul alfavitli xatni o'z tiliga moslab qabul qilgan xalqlar orasida qadimdan davom qilib kelgan usul bo'lib, kotiblar tayyorlaydigan maktablarda har bir xalqning o'z yozuviga uyg'unlashtirildirdi, lekin bu usulning umumiy belgilari hamma joyda bir xil edi.

Bu qiyin usulga ko'ra o'quvchi dastlab hamma harflarni alfavit tartibida yodlab olishni, ya'ni, har bir harf nomini bilib olishi (masalan, arab alfavitida: alif, be, se, te va hokazo) so'ngra esa shu harflarni hijjalab qo'shib o'qishni mashq qilish lozim edi.

Shu mashqlar oxiriga yetkazilganidan keyin o'quvchining qo'lga birinchi kitob tariqasida qur'on berildirdi. Maktabdor domla qur'onning boshidan boshlab, har bir surasini jumlamajumla baland ovoz bilan o'qib berar, shogirdlar esa shu jumlamalarni qayta-qayta takrorlab, aytib berar edilar.

Islom dinining birinchi asrlarida arab bolalari mana shunday og'ir usul bilan qur'onni o'qishni o'rgandilar: qur'on tili ularni o'z ona tili edi. Dastlabki arabcha maktablarning o'quvchilari qur'onni o'tgan vaqtlardagi alfavitdagi harfar shakli bilan ancha tanish bo'lar edilar, chunki ular hamma harflarning shaklini ham, harf birikmalarini ham o'z qo'llari bilan yozar edilar.

Keyinroq, qur'on matnini o'qish, hatto, arab o'quvchilari uchun ham qiyinroq bo'lib qoldi, chunki arab og'zaki tili qur'on tilidan ancha farq qiladigan bo'lib qoldi. Boshqa xalqlarning bolalari uchun arabcha matnni o'qish juda ham og'ir edi.

O'quvchidan hamma harflarni va harflar birikmalarini o'z qo'li bilan yozish kerakligi talab qilinmaydigan bo'lib qolganidan keyin savod chiqarish tag'in ham qiyinlashib qoldi; harflarni va harflar birikmalarini domlanning o'zi yozar, o'quvchi esa ularni faqat domlanning ovoz chiqarib o'qishiga qarab, unga taqlid qilib o'qir edi, xolos. "Savod chiqarish"ni bunday osonlashtirish shunga olib keldiki, o'quvchi hali harflarni yaxshi o'qib olmay turiboq, uning qo'lga o'qish uchun berilgan qur'onni o'qib berolmay, juda qiynaladigan bo'lib qoldi. Shu tariqa maktablarda kitob o'qishga o'rgatish yozishga o'rgatishdan ajratib qo'yildi; yozuv alohida fan qilib ajratildi, kotiblik kasbini tanlab olgan kishilargagina yozuv o'rgatiladigan bo'lib qoldi; feodalizm sha-

roitida ko'pchilik dehqonlar va hunarmandlarning o'g'illari uchun yozishni bilish ortiqcha bir narsa bo'lib qoldi.

Islom dini tarqalgan mamlakatlardagi ko'pdan-ko'p maktablarda yozuv quollarining yetishmasligi sababli ham hamma o'quvchilarga yozishni o'rgatish qiyin bo'lib qoldi. O'quvchilarni yozishga o'rgatish uchun turli mamlakatlarda turli xil vositalardan foydalanar edilar. Masalan, palma yaproqlariga yozib xat mashq qildilar, tuyalarning kurak suyaklariga harf o'yib yozishni o'rgatar, mis qog'ozning orqasiga ko'mir bilan harf yozib mashq qildirar edilar; kamdan-kam joylardagina yozuv mashq qilish uchun qog'oz, qamish qalam va qora siyohdan foydalanardilar; ko'p maktablarda harf yozishni, ko'pincha, cho'p bilan qumga chizib o'rgatar edilar.

Shunday bo'lsa ham, maktablarga juda ko'p o'g'il bolalar tortildi. Ayrim musulmon davlatlarining amirlari hamma musulmon bolalarini islom dinining asosi bo'lgan qur'onni o'rganish uchun qattiq choralarni ko'rardilar. O'g'lini maktabga yubormagan otalar qattiq jazolanardi.

O'rta Osiyodagi musulmon pedagoglar qur'onni yodlash har qancha mashaqqatli bo'lsa ham, shuni to'g'ri usul deb hisobladilar. Ular, bola qur'onni yodlab olishi bilan arabcha so'zlarni esda yaxshi saqlab qoladi, bu esa madrasada o'qishni davom ettirish uchun kerak bo'ladi; mashaqqatsiz o'qishni samarasi bo'lmaydi, deyar edilar.

Ko'p kishilar o'z farzandlarini maktabdagi bilimdan barvaqt qutqarmoq uchun o'g'illarini, odatda, olti-yetti yoshda, hatto besh yoshga kirishi bilanoq maktabga eltib berardilar. Ba'zi bir kishilar esa, o'g'lim madrasada o'qib, "odam bo'lsin" deb orzu qilardilar.

Arab tilida yozilgan qur'onning oyat va suralarida bu tildan xabarsiz kishilarga qandaydir jozibali kuch bordek ko'rinardi. Qur'onni yod bilgan kishi qori deb hisoblanar va uning tirikchiligi yengilroq o'tar edi, bemorni davolash uchun ham hamisha qur'on o'qish uchun qori chaqirilardi. Bunday xol me'ros bo'lib qolaverdi.

Ko'p sonli ruhoniylarning ta'siri ostida asta-sekin shunday fikr tug'ildiki, buning natijasida o'z o'g'lini maktabga yubormagan ota ko'pchilikning ta'nasiga uchraydigan bo'lib qoldi.

O'rta asr tipidagi maktablar bolalarga islom dinini singdirib, ularni feodal tartibga bo'ysunish ruhida tarbiyaladilar. XX asr o'rtalarigacha Osiyo va Afrika mamlakatlarida bunday maktablar davom etib keldi.

Shaharlardagi boy va o'ziga to'q kishilar o'g'illarini maktabdor domla qo'liga (o'zi maktab ochib, o'zi o'qitadigan kishilar) topshirib qo'yib o'qitar edilar. Yaxshi maktabdor o'quvchilariga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatishga e'tibor berar edi, uning kattaroq yoshdagi o'quvchilari qur'ondan tashqari fors-tojik tilida va turkiy tillarda yozilgan bir necha kitobni o'qib chiqar edilar, ular turli usulda yozilgan qo'l yozmalarni o'qishni o'rganardilar.

Maktabdorlar ilk feodalizm davridagi yozish va hisoblashni o'rgatadigan shahar maktablarining (dabirlar tayyorlovchi maktablarning) an'analarini davom ettirdilar. Ammo endi qozixonona va ma'muriy ishlarda madrasani tamomlab chiqqan kishilar ishlaydigan bo'lib qoldi. Maktabdorning shogirdlari esa kitoblarni ko'chirib yozish ishlari - kasbi (hattotlik) bilan shug'ullandilar, ular o'z bilimlarini savdo-sotiq ishlarida foydalanardilar.

Masjidlar huzuridagi maktablarda, ayniqsa, qishloq maktablarida husnixat bilan arifmetikani yaxshi bilgan muallim kamdankam topilardi. Bunday muallim faqat ayrim o'quvchilar-gagina, alohida haq olib, bu ilmni o'rgatardi.

### **Tayanch iboralar:**

Qorixonona maktablar, ulamo, madrasa, xatib, xatm qilgan, vaqf yer, hujra, mudarris, mullavachcha.

### **Nazorat savollari:**

1. *Qorixonona maktablarini ta'lim mazmuni qanaqa?*
2. *Ulamo kim?*
3. *Madrasa ta'limining maqsadi nima?*
4. *Vaqf yerlar deganda nimani tushunasiz?*
5. *Mudarrisning vazifalarini ayting.*
6. *Hujradan maqsad nima?*
7. *Xatm deganda nimani tushinasiz?*
8. *Xatib kim?*
9. *Mudarrisning qanday vazifalari bor?*

## V BOB

### MARKAZIY OSIYODA DASTLABKI DARSLIKLARNING YARATILISHI

Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatishni maqsad qilib olgan darsliklar O'rta Osiyo maktablarida keng tarqalgan edi. Shulardan biri "Haftiyak". Bu kitobni Eron pedagoglari qur'on suralaridan ("yettidan birini") tanlab olib, taxminan XIII asrda tuzganlar. X-XII asrlarda islom dini ruknlarini fors-tojik tilida she'r va nasr bilan bayon qilgan "Chor kitob" paydo bo'ldi. "Chor kitob" o'zbek maktablarida ham o'qitilardi. XII asrdan boshlab islom dinini turkiy tillarda yozilgan she'rlarda (XII asrda yashagan Ahmad Yassaviyning "Hikmat" nomli to'plamida, XVII asrda yashagan Kattaqo'rg'onlik eshon So'fi Olloyorning ikkita to'plamida va boshqa to'plamlarda) ommalashtirish boshlandi. Yozilgan matnni yodlab olish asosiy vazifa hisoblanardi. Buning uchun qadim vaqtlarda og'zaki o'qitish davrida yodlab olish uchun ishlab chiqilgan usullardan foydalanilardi.

#### *1. Ta'limda hunar va tabiat to'g'risidagi og'zaki darsliklar.*

Hunar va tabiat to'g'risidagi darsliklar, asosan, og'zaki usta va shogird maktablarida paydo bo'ldi. Bunday usul yakka shogirdlik deb atalar edi.

Shaharlarda turli kasb-hunar rivojlana bordi: muayyan bir kasb bilan shug'ullanuvchi ustaxonalarning egalari sex bo'lib uyusha boshladilar. Hunar o'rganmoqchi bo'lgan bola hunarmandga, masalan, temirchiga, novvoyga va shu kabi boshqa kasbdagi ustalarga shogird tushardi. Lekin buning uchun shu kasbdagi hunar ahlining rozilik berishi shart edi. Bunday shogird ancha yil ustaning qo'lida hunarga aloqasi bo'lmagan ishlarni bajarib yurar, dastyorchilik qilardi. Usta bunday tekin ishchi kuchidan mumkin qadar uzoq vaqt foydalanishga harakat qilar edi. Bunday shogirdlar hunarni taqlid qilish yo'li bilan o'rganar edilar, o'qitishning muayyan tizimi yo'q edi.

Kasb deyarli otadan o'g'ilga me'ros bo'lib o'tadigan sexlarda kasb o'rgatishning ba'zi bir tizimi vujudga kelgan edi. Masalan, dorbozlik hunarida dorboz ota dastlab o'z o'g'lini shogird qilib olar va uni yelkasiga mindirib dorga olib chiqib, balandlikka chiqqanda qo'rqmaslikka o'rgatardi; so'ngra dorbozlikni o'rgana boshlagan bola hovuz ustiga tortilgan qisqa arqonda xavf-xatarsiz yurishni o'rganardi.

Malaka bilan maxsus bilimlar talab qiladigan hunar ahllari - ustalar orasida tabiat to'g'risida ilmiy bilimlarning elementlari to'plana bordi. Tabiblik shunday kasblardan bo'ldi. Islom diniga qadar bo'lgan davrda Eronning janubiy-g'arbidagi Jundishopur shahrida kasalxona ochildi. Bu kasalxona huzurida tib maktabi tashkil qilinib, bu maktab o'quvchilari kasalxonada ishlab, tajriba orttirar edilar. Odatga ko'ra, bu maktabda tabiblarning o'g'illari o'qirdi. Bu maktab kichkina bo'lsa ham, lekin tib ilmining taraqqiy etishida katta rol o'ynaydi, chunki u g'arb va sharqning; Gretsiya va butun O'rta dengiz mamlakatlarning ham, shuningdek, Hindiston va Osiyodagi boshqa mamlakatlarning ham tib ilmi sohasidagi yutuqlaridan muvaffaqiyatli ravishda foydalandi. Keyinroq, Jundishopurning mashhur tabiblari xalifalikning poytaxti bo'lgan Damashq shahriga ko'chib borib, u yerda ishlay boshladilar. XIII asrda mo'g'ullar bosqini oqibatida bu kasalxona-maktab vayron bo'ldi.

## ***2. Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiylar maktabi.***

Ayrim atoqli hakimlar (vrachlar) ham tib ilmini o'rganar edilar. Buxorolik Abu Ali ibn Sino (XI asr) shunday hakimlarning eng mashhurlaridan biri edi. U tib ilmiga doir ko'pgina qo'lyozma asarlarni o'rganib, eng yetuk hakim bo'ldi. Shu bilan birga, ilmiy maqsadlarni ko'zlab, muntazam ravishda kuzatishlar va tajribalar olib bordi. Tajribali hakim bo'lgan Ibn Sinoning shogirdlari ham bor edi. U o'z shogirdlari uchun tib ilmidan "Tib qonunlari" degan darslik yaratdi. Yevropada bu kitob lotin tiliga tarjima qilinib, besh asr davomida vrachlar uchun har taraflama qo'llanma bo'lib xizmat qildi va shu kitob tufayli Ibn Sino butun dunyoga "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'ldi. Hozirgi zamon jahon medik olimlari Ibn Sinoning "Tib qonuni" darsligining maydonga

kelishini meditsina taraqqiyotidagi katta voqea deb hisoblamoqdalar.

Meditsina fani kabi matematika fani ham amaliyot natijasida tug'ildi; matematika bilimlarini ham kelgusi avlodga o'rgatish zarur bo'lib qoldi. Natijada matematika ilmiga doir bilimlar sistemaga solinib, yozib borildi. IX asrda xorazmlik bir olim matematikaga doir qo'llanma kitob yozdi, bu kitobning nomidan "algebra" fanining nomi kelib chiqdi. Muallifning laqabi - Al Xorazmiy esa matematikada "algoritm" degan termin bo'lib qoldi.

Al-Xorazmiy, Ibn Sino, shuningdek, o'rta asrning eng buyuk olimi xorazmlik Beruniy o'zlarining ilmiy asarlarini arab tilida yozdilar, o'z umrlarining bir qismini turli joylarda musofirlikda o'tkazdilar. Lekin ular Markaziy Osiyoda o'sib, olim bo'lib yetishgan kishilardir. O'sha davrlarda O'rta Dengiz Yevropa mamlakatlari Markaziy Osiyodan o'tgan karvon yo'llari orqali Xitoy bilan savdo-sotiq qilar edilar. Markaziy Osiyo Hindiston bilan aloqa qilib turar edi. O'sha vaqtda qadimgi Gretsiya va Sharqning ilmiy asarlari arab tiliga tarjima qilindi, bu asarlarni tarjima qilishda Farobiy (IX asrning oxirida tug'ilgan), Al-Xorazmiy va O'rta Osiyoning boshqa olimlari qatnashdi. Bir-biridan uzoq bo'lgan madaniyatlarning muvaffaqqiyatlarini o'sha davrda jahon tarixida birinchi marta birlashtirishga harakat qilindi. IX-XI asrning ulug' olimlari Markaziy Osiyoda yetishganligi ham tasodifiy emas.

Meditsina, matematika va tabiat to'g'risidagi boshqa fanlar xususiy maktablarda o'qitilar edi. XI asrning o'rtalarida Eronning shimoliy-sharqiga sayohat qilgan Nosir Hisrav bir maktabni borib ko'rganligini va bu maktab muallimi o'zini Ibn Sinoning shogirdi deb ataganligini tasvirlab yozadi: bu maktabda anchagina o'quvchi bor edi, ba'zilari Yevklidni, ya'ni geometriyani o'qimoqda edilar, ba'zilari meditsina kitoblaridan ko'z olmasdilar, ba'zilari matematika kitoblarini o'qish bilan mashg'ul edilar, aftidan, algebrani o'rganmoqda edilar. Al-Xorazmiy va Ibn Sino tadqiqotchi olimlar bo'lib, yoshlarni o'qitishga ko'p vaqtlarini sarflagan bo'lsalar, bu o'qituvchi bilimlarni ommalashtirishni o'ziga kasb qilib olgan; uning turli fanlarga doir nodir qo'lyozma



darsliklari bor edi. Madrasadagi mudarris singari u ham shogirdlar o'qiyotgan kitoblarga sharh berib turar edi.

Musulmon ruhoniylari bunday mashg'ulotlarga to'sqinlik qilardilar. XI asrda Al-G'azzoliy, matematika faqat dalillarga va aqlgagina suyanishni o'rgatganligi va bu bilan dinga putur yetkazganligi uchun zararli fandır, deb yozgan edi. XIII asrda bir olim astronomiyani o'rganishni quyidagi shart bilan cheklab qo'ygan edi: "Agar musulmon kishi yulduzlar to'g'risdagi fandan qiblani (Makkani qay tomonda ekanini, chunki namoz o'qiyotgan vaqtda Makka tomonga qarab turish kerak edi) va namoz vaqtini bilib olishnigina o'rgansa, bu fanlarni o'qishga yo'l qo'yiladir".

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda matematikani o'rgatish yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi.

Arifmetika qadimgi abjad hisobi bilan o'rgatilar va shuning uchun ham uni o'rgatishga juda ko'p vaqt ketardi. Abjad hisobida har bir harf muayyan bir sonni (a-1 ni, b-2 ni va hokazo) bildirar va arifmetika amallarining hammasi ikki xil usul bilan, harflar va raqamlar bilan bajarilardi.

Ko'pincha, og'zaki hisoblanar, yozib hisoblashga kam e'tibor berilar edi. Masalalar yechmas edilar. Kasrlar kamdan-kam hol-larda o'rgatilar, shunda ham faqat oddiy kasrlar o'rganilardi. Feo-dalizm davrining oxirlariga kelib Markaziy Osiyoda madrasalarda tabiat bilimlari soxalistikadan butunlay holi bo'ldi.

### **Tayanch iboralar:**

*Haftiyak, hikmat, "Chor kitob", tabib, hakim, "Tib qonunlari", algoritm, abjad.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Haftiyakning vazifasi nimalardan iborat?*
2. *Hikmat to'plamida nima maqsadlar yotadi?*
3. *"Chor kitob"ning maqsadi nima?*
4. *"Tib qonunlari"ni sharhlang.*
5. *"Algoritm" so'zining ma'nosi nima?*
6. *Abjad qanaqa hisob?*
7. *Tabib kim-u? Hakim kim? Sharhlang.*

## VI BOB

### O`YINNOMA VA BOBURNOMADAGI TA'LIM

#### *1. "O`yinnoma" va "Boburnoma" asarlaridagi didaktik qarashlar.*

Quldorlik davrida kishilarni harbiy-jismoniy jihatdan tarbiyalash faqat erkin kishilarga xos imtiyoz bo'lib qoldi va shu tariqa boshlangan an'ana feodalizm davrida ham davom etdi. Markaziy Osiyoda ilk bor feodalizm davrida xalq harakatlari kuchayib ketganligi sababli badavlat kishilarning o'smir bolalari soqchilik xizmatiga o'rgatilar edi.

Tez-tez bo'lib turadigan feodal urushlarda harbiy ish rivojlandi. Islom dini rivojlanmasdan oldingi davrda urush va jismoniy jihatdan tayyorlash nazariyasi Sosoniylar davlatida ishlab chiqildi va Saroy ahllari uchun yozilgan "O`yinnoma" nomli didaktik kitobda bayon qilindi. O'sha maktabda chavgon o'yinining (sarbozlarning to'p o'yini), o'q-yoydan otish mashqlarining batafsil qoidalari berilgan; bu o'yin va ovchilik bilan shug'ullanish jangchilarni tarbiyalashning muhim qismi bo'ldi. Ov qilish vaqtida esa yetuk yigitlar tabiiy vaziyatga moslashishni o'rganar edilar: buning muhimligini urush qilish to'g'risida "O`yinnoma" da yozilgan quyidagi qoidalardan bilish mumkin:

Jang boshlanishidan oldin qo'shinlarni shunday joylashtirish kerakki, quyosh nuri ularning orqa tomonidan tushsin va shamol ham orqa tomondan kelib tursin.

Kechalari shamol g'uvillab yoki daryo sharaqlab oqib turgan paytda hujum qilib, tungi hujum shu tariqa niqoblanishi kerak.

Agar dushman qo'lidan suv manbaini tortib olish kerak bo'lsa, dushmanning otlari va odamlari suvga qongan, o'z otlaringiz esa chanqab, suvga intilayotgan vaqtda jang boshlash kerak.

Qo'shinlarning chap tomoniga chapaqay o'qchilarni qo'yish kerak, toki o'qlarini turli tomonlarga qaratib otish mumkin bo'lsin".

Feodal beklar va xonliklarga bo'lingan mamlakatda jangchilik g'oyalari qahramonlik eposi shakllantirib turdi. Sharqiy Osiyo, Eronning chekka o'lkalari bir-biridan dostonlarni hikoya qilish usuli bilan xalqni jangovarlik kayfiyatida tarbiyalab turish usullarini targ'ib qilishni o'rgandilar. Chetdan bo'ladigan hujumdan himoya qilish uchun birlashishga chaqirish ilg'or g'oyalardan bo'ldi.

Baribir mamlakatda islom dini tarqalgandan keyin qur'onni o'rganish mutlaqo zarur ish bo'lib qoldi. Zodagonlarning o'g'illari qur'on o'qishni o'rganish uchun, ba'zan masjid huzuridagi maktabga qatnab o'qir edilar. Lekin, ko'pincha, zodagonlarning oilasida qur'on qiroatini o'rgatadigan ustozlar bo'lar edi; bir uyda bir necha oila bolalarining shu tariqa birgalikda o'qishiga yo'l qo'yilardi.

Sport va harbiy ustalar, shuningdek, umumiy bilimlardan dars beruvchi o'qituvchilar zodagonlarning uylariga kelib, ularning bolalarini o'qitar edilar.

## ***2. Boburnoma asarida didaktik qarashlar.***

Badavlat feodalning o'g'lini tarbiyalash uchun, odatda, ishonchli bir kishi tayinlab qo'yilardi. U bu bolani o'stirishga va tarbiyalashga majbur edi. Bundan tashqari, bunday bolalarga ta'lim berish uchun birkiritib qo'yilgan murabbiylar ham bo'lardi. Murabbiylik darajasi birkiritib qo'yilgan ishonchli kishining darajasidan yuqoriroq bo'lardi; bilimdon, o'qimishli kishilar murabbiylik darajasiga tayinlanar edilar.

Ovchilik va ovchilikka taalluqli boshqa ishlar bilan shug'ullanishga alohida e'tibor berilardi. Qushlarni va yovvoyi hayvonlarni xilma-xil usullar va vositalar bilan ov qilish to'g'risida "Boburnoma" kitobining ko'p joyida bayon qilingan. Bobur bir amirni tavsiflab, u ov qushlarining fe'l-atvorini yaxshi bilar va lochinlarni ovlashga juda mohir edi; boshqa bir amir ov qiladigan qushlarni o'rgatishni yaxshi bilardi, deb yozadi.

Yosh feodallarga suvda suzishni ham o'rgatilardi. Boburning o'zi suvda suzishga juda mohir va epchil edi. Bu to'g'rida uning quyidagi yozuvlarini bilamiz: "O'sha kuni men Gang daryosini

suzib o'tdim va uning u chekkasidan bu chekkasigacha necha qadam ekanligini hisoblab chiqdim. O'ttiz qadam masofaga suzib borgan ekanman. Shu ondayoq, dam olmay yana orqaga suzib, o'z joyimga qaytib keldim. Men ko'p daryolarni suzib o'tgan edim, faqat Gang daryosi qolgandi."

Feodallarning bolalarini murabbiylar va rahbarlar, qo'l ostida yakka-yakka ta'lim-tarbiya berishdan tashqari, ba'zan ularni mashq qildirish uchun guruhlariga to'plar edilar. "Boburnoma"da harbiy ishga yaroqli yoshlardan ikkita guruh tuzilganligi va bularning biri xurosonlik yigitlar guruhi, ikkinchisi samarqandlik yigitlar guruhi deb atalgani hikoya qilinadi.

Markaziy Osiyo feodallari orasida shahmat o'yini ko'proq tarqalgandi. Bu xususda "Boburnoma"ning bir necha joyida bayon qilib o'tiladi.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda nafosat tarbiyasiga katta o'rin berilar, xusnixat, ya'ni chiroyli yozuv qadrlanardi. Boburning o'zi xusnixat usullarini juda yaxshi bilardi va o'zining "Boburiy" deb atalgan xat usulini o'ylab chiqargan edi. Shaxzodalar rasm chizish, she'r yozish, musiqa asboblarni chalish bilan shug'illanar edilar. Bobur bir bek to'g'risida gapirar ekan, u xilma-xil usullarda chiroyli xatlar yozar, she'r yozishni ham bilar, she'riyat to'g'risida yaxshi fikr yuritardi, deb yozadi.

Shaxzodalarga maxsus kitobxonlar birkirib qo'yilganligi, bu kitobxonlar shaxzodalarning uylarida va safar vaqtlarida ularga kitob o'qib berish bilan shug'ullanganliklari "Boburnoma"da hikoya qilinadi.

XV asrdagi O'rta Osiyoning turkiy tillarda gaplashuvchi feodallari orasida Hirotda Navoiy, Samarqandda Ulug'bek, Farg'onada Bobur eng o'qimishli va bilimdon kishilardan edilar.

Feodalizm davrida Markaziy Osiyo zodagonlari bolalarini tarbiyalash, ta'lim berish sohasida vujudga kelgan tizim o'rta asrdagi g'arbiy Yevropada risarlarni tarbiyalash tizimiga o'xshab ketardi. Bu tizim jangchilikning "yetti fazilatini" - ot minish, qilichbozlik, o'q otish, suvda suzish, ovchilik, shahmat o'ynash, she'r yozish va uni kuyga solib kuylash fazilatlarini o'z ichiga olardi.

Islom diniga amal qiluvchi xotin-qizlar jamiyatga aralash-tirilmasligi, faqat oilada yashashi lozim edi; xotin-qizlarni, hatto, masjidga kirishi ham ta'qiqlab qo'yilgan. Maktablar faqat o'g'il bolalar uchungina ochilardi. Oddiy xalqning qizlari uchun ilm olish yo'li berk edi.

Badavlat oilalarning qizlari o'z uylariga taklif qilingan muallimning qo'lida o'z aka-ukalari bilan birga o'qiy olar edilar. Ruhoniy toifalar qizlarini faqat o'z toifalaridan bo'lgan kishilarning o'g'illarigagina erga berardilar.

Imomning xotini xotinlar orasida diniy marosimlarni olib borishda o'z eriga yordamlashardi, shu sababli domla-imomlarning qizlari maktabning qisqartirilgan dasturlari bo'yicha o'qitilardi.

Markaziy Osiyo shaharlarida so'nggi feodalizm davrida maktabdor domlalarning, imomlarning savodli xotinlari – otinoyilar o'z uylarida kichikroq maktab ochib, shaharning davlatmand kishilarining qizlarini o'qitar edilar. Otinoyi bolalarga rasmiy maktabdagidek qattiq muomala qilmasdi, shuning uchun ham ba'zi kishilar o'zlarining kichik o'g'illarini mana shunday qizlar maktabiga yuborardilar.

Qizlarga xat yozish o'rgatilmas edi, shu sababli otinoyilar maktablarini, maktab deb atamasdilar. Chunki qadimiy arablar yozuv o'rgatadigan maktabnigina maktab deb ataganlar.

### **Tayanch iboralar:**

*"O'yinnoma", "Boburnoma", yetti fazilat, epos, ustalar, murabbiy, otinoyi.*

### **Nazorat savollari:**

1. *"O'yinnoma" asaridagi ta'limiy usullar qanaqa?*
2. *"Boburnoma" asaridagi ta'limiy usullar qanaqa?*
3. *"Yetti fazilat"ni sanang va yozing?*
4. *Ustalarning maqsadi nima?*
5. *Murabbiylik nimalarni ko'zda tutadi?*
6. *Otinoyining vazifalari nimalardan iborat?*
7. *Epos nima?*

## VII BOB

### QO'LYOZMA KITOBLARDA PEDAGOGIKAGA DOIR ASARLARNING TA'LIMIY MAZMUNI

#### 1. "Qobusnoma" asari

Feodalizm davridagi qo'lyozma asarlar orasida pedagogikaga doir ta'lim-tarbiyaviy g'oyalarni ilgari surgan kitoblar ham bor edi. Bunday asarlarning ba'zilari ko'p asrlardan beri o'qitilib kelingan. Masalan, XI asrda yozilgan, Otaning o'g'ilga nasihati tarzidagi "Qobusnoma" kitobi shunday kitoblardandir. Bu kitobni Kaspiy dengizining janubiy qismida yashagan Amir Unsurulmaoniy o'z o'g'liga qadimgi tojik tilida yozgan. "Qobusnoma" qadimgi vaqtlarda Sharq tillariga tarjima qilingan. Uni o'zbek tiliga Ogahiy tarjima qilgan. O'rta asr Sharqidagi xalq orasida yozilgan bir qancha kitoblarda ham pedagogikaga doir fikrlar bayon qilingan. Masalan, Al-G'azzoliyning "Kimyoi saodat" nomli kitobi shunday kitoblar jumlasidandir.

Bunday kitoblarda turli mavzulardagi va turli fikrlarni ifodalovchi gaplar yozilgan; lekin shu kitoblarni hammasida feodalizm pedagogikasi uchun xos bo'lgan fikrlar ko'p asrlar davomida talqin qilinib kelgan.

O'rta asr maktablaridagi ta'lim-tarbiyaning mazmuni hunarmandlar va dehqonlarning mehnati va turmushidan ajralib qolgandi.

#### 2. Zarnudji kitobidagi didaktik qarashlar

Ruhoniylar orasida hukmron bo'lgan qarashlarni ifodalagan Zarnudji (XIII-XIV asr, Markaziy Osiyo) faqat ilohiyotni va shariatnigina fan deb hisobladi va meditsinani ham o'rganish mumkin deb atadi (uning so'zi bilan aytganda: "Payg'ambar ham davolangan-ku").

O'rta asr diniy pedagogikasi, hozirgina yuqorida aytib o'tilganlaridan boshqa hamma tarmoqlarga mensimaslik ko'zi

bilan qaradi: diniy bilimlardan boshqa bilimlarning "hammasi bir martalik ozuqaning bir bo'lagidir" deb hisobladi.

To'g'ri, o'rta asr mualliflarining ko'plari har bir yosh yigit, hatto, podshohzoda bo'lsa ham, albatta, biror hunar o'rganish, imkoni bo'lsa bir necha hunar o'rganish shart deb ta'lim berdilar. Masalan, "Qobusnoma" muallifi ham, XVII asrda Hindistonda yashagan shoir Bedil ham shunday deb ta'lim berdi. Lekin bularning hammasi tor amaliy maqsadni ko'zlab berilgan ta'limdir, chunki feodallar o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib turadigan sharoitda odamning mol-mulkdan mahrum bo'lib qolishi hech gap emas edi. Bunday sharoitda faqat hunar-kasbgina tirikchilik qilishga imkon berdi.

Musulmon ruhoniylari hunar o'rgatishni va hunarmandchilik ustaxonalarini ham o'z nazoratlari ostiga olgan edilar. Har bir hunar ahli uchun alohida "risola" tuzilgan edi; hunarning o'ziga xos ustavi bo'lgan bu kichkina kitobcha har bir ustaning uyida bo'lishi kerak edi. Har bir risolaning mazmuni diniy targ'ibotni ifodalaydi. Bu kitobchaning boshida, avvalo, bu kasb qanday kelib chiqqanligi, bu kasbni birinchi bo'lib chiqargan biror bir avliyoning hayoti to'g'risidagi "afsona" hikoya qilinadi. So'ngra, shu kasb uchun harakterli harakatlar aytib beriladi, shu harakatlarning har birini bajarishda qanday duolarni o'qish shart ekanligi aytiladi. Masalan, temirchi temirni olovga qo'yganida, qizdirib bir-biriga ulayotganda, birinchi bolg'a urganida, xullas o'z hunariga doir bo'lgan har qanday harakatni bajarishda o'qiladigan muayyan duoni yodlab olishi va shu duoni o'qib ish boshlashi lozim; agar haqiqatan ham u shunday qiladigan bo'lsa, uning ishiga e'tibor berish uchun vaqti ham qolmas edi.

Risolalarda besh vaqt namozni vaqtida o'qib turish, hokimlarga itoat qilish, asbob uskunalarni ozoda tutish kabi talab va maslahatlar bo'lar edi.

Risolaning oxirida bu risolani o'qigan va amal qilganlar har xil mukofotlarga sazovor bo'lishi, asosan, "oxirat"da uning "ajrini ko'rishi", kimki risolada aytilgan ishlarni qilmasa, har xil kulfatlarga "duchor bo'lishi", masalan, qiyomatda hamma

"tirilganda" u qabrdan "cho'chqabosh bo'lib ko'tarilishini" aytilar edi. Dehqonlarning risolasida bu hildagi vahima gaplar risolaning qariyb to'rtidan bir qismini egallar edi.

Maktablarda bolalar uydirma vahima va kulfatlar bilan qo'rqitilar va shu bilan birga, ularga qattiq tan jazosi berilar edi. Feodalizm pedagogikasi bir qancha jazo qurollari va "intizomga bo'ysunish" vositalarini o'ylab chiqargan. Bu pedagogika tan jazosini "oqlamoq uchun", masalan, maktabda domla kaltaklagan bolaning tanasi "do'zaxda kuymaydi" degan gaplarni o'ylab chiqargan edi.

Musulmonlarning feodalizm pedogogikasi tarbiya ishida ana shu tarzda bolalarga muttasil vahima solish bilan shug'ullanar edi.

Din tabiat to'g'risidagi ilmiy bilimdan qo'rqqanligi sababli, bu pedagogika gigiyenani, jismoniy tarbiyani nazar-e'tiborga olmasdi; bu pedagogika turli yoshdagi bolalarning yosh hususiyatlari to'g'risida ham to'g'ri tasavvurga ega emas edi. Kitob matnlarini yodlab olish asosiy vazifa hisoblanardi; kitob matnlarini yodlab olish qadim zamonlardan beri to'planib kelgan og'zaki o'qitish bilan yodlatish usulidan foydalanardi.

Yozuv joriy qilingandan keyin yodlash uchun beriladigan narsani yozib olish tavsiya qilinadigan bo'lib qoldi. O'sha paytlarda yozilgan bir necha kitoblarda yoshlarga, eshitilgan so'zlarni yozib borish uchun hamisha yonida qalam bilan qog'oz olib yurish kerak, degan maslahatlar berilgan.

Markaziy Osiyo pedagoglari o'quvchilarni qiziqtirish maqsadida ahloqiy kitoblardagi voqealarni hayvonlar va qushlar tilidan hikoya qilar edilar.

Ko'p mualliflar ilmtalab yoshlarga ikkita: biri turli kishilar bilan ko'proq suhbatda bo'lish va ikkinchisi, sayohat qilish kerak deb maslahat berganlar.

### **3. "Chor kitob" va uning maqsadi.**

Musulmon maktablarining pedagoglari arab tili grammatikasi va lug'atini tuzishga harakat qildilar. Shu bilan birga, bolalarini o'z ona tilida o'qitish harakati boshlandi. Qariyb ming



yilcha muqaddam "Chor kitob" nomli darslik yozildi va bu kitobda islom dinining asoslari fors-tojik tilida bayon qilib berildi. Keyinroq, turk va qadimiy o'zbek tillarida diniy she'rlar to'plamlari vujudga keldi, bu kitoblar ham maktablarda darslik sifatida qo'llandi.

Ibn Sino tabiat to'g'risidagi ilmiy materialistik bilimlarni egallash uchun o'z vaqtida ko'p ish qildi. U bolalar kasalligi bilan shug'ullanuvchi meditsina fani - pediatriyaning negizini qurdi. Ibn Sino jismoniy mashqlarning asoslangan tizimini taklif qildi.

Taraqqiyparvar kishilar ruhoniylarning hamma ishiga aralashishga, diniy hurofotlarning zulmiga qarshi kurashga necha martalab urunib ko'rdilar. VIII asrda yashagan olimlardan biri, Abdallax ibn Al-Mukaffo hindlarning hayvonlar to'g'risidagi ibratli hikoyalaridan iborat bo'lgan, "Kalila va dimna" deb atalgan mashhur to'plamni arab tiliga tarjima qildi; u o'zi tarjima qilgan bu to'plamga diniy aqidalar to'g'risidagi shubhalarga doir hikoyani ham qo'shib qo'ydi, ammo ehtiyot yuzasidan bu hikoyani islomdan oldingi davrda o'tgan Hakim Burzoyi nomidan yozdi.

Burzoyi bunday deydi: "Men juda ko'p dinlarni ko'rganman... Bu dinlarning hammasi o'zlari ko'rsatgan yo'lni to'g'ri deb va boshqa dinlarning yo'lini xato deb da'vo qiladilar. Ular o'rtasida kelishmovchilik juda katta. Men har bir dinning peshvolari bilan gaplashib, ulardan ta'lim olishga ahd qildim... lekin ularning hammasidan o'z dinini nuqul maqtab, o'zga dinlarni yomonlashdan boshqa gapni eshitmadim. Ular faqat o'z manfaatlarinigina ko'zlayotganliklari menga ravshan bo'lib qoldi... Ularning birortasi ham aqli raso kishiga ma'qul bo'ladigan dalil keltirganliklarini ko'rmadim..." Ibn Al Mukaffo Islom dinining ru'knlaridan toyganligi uchun xalifaning buyrug'i bilan qatl qilinadi.

Lekin o'sha davrda bu xildagi fikrlarni aytish favqulodda bir hol edi.

Shu davrlarda og'zaki ijodda xalq pedagogikasining ham durdona maqol, masallarini so'zlovchi san'atkor xalq farzandlari shakllana boshladi. Ular turli yig'inlarda, marosimlarda xalq og'-

zaki ijodi dostonlarini, ertaklarini ma'ruza qilib xalq maqollari-dan namunalar keltirar edilar.

Musulmon Sharqi xalqlarining o'sha davrlardan bizgacha og'izdan og'izga o'tib, asrlar osha yetib kelib, bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini saqlab qolgan maqollarning ba'zi birlarini keltirib o'tamiz:

*Bilmaslik uyat emas, o'qimaslik uyat.*

*Tayoqning zarbi etga, so'zning zarbi suyakka tegadi.*

*Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l.*

*Boshqalar gapirganida ularning gapini tingla,  
Ammo o'zing gapirganingda avvalo o'z gapingga quloq sol.*

*So'rab o'rgangan olim, so'ramagan o'ziga zolim.*

Bu kabi xalq maqollari, o'zbek xalq pedagogikasini bugungi kunda ham bezab turibdi.

### **Tayanch iboralar:**

*Didaktik qarash, "Qobusnoma", "Chor kitob", ruhoniy, qo'llanma, ajir, rukn.*

### **Nazorat savollari:**

- 1. Qanday qarash didaktik qarash bo'ladi?*
- 2. "Qobusnoma"ning olg'a surgan g'oyasi nima?*
- 3. "Chor kitob"da qanday ta'limiy maqsadlar bor?*
- 4. Ruhoniy kim?*
- 5. "Hunarmandlar qo'llanmasi"ning maqsadi nima?*
- 6. Ajir deganda nimani tushunasiz?*
- 7. Rukn deganda-chi?*

## VIII BOB

### ABU ALI IBN SINONING AQLIY TARBIYAGA OID QARASHLARI


#### 1. Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy qarashlari.

Abu Ali ibn Sino (980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan) Sharqda Shayx ar-Rais nomi bilan mashhur bo'lgan. U matematika, fizika, astronomiya, kimyo-biologiya, tabiat, tibbiyot, fiziologiya, falsafa, biologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etib, jahon xalqlariga dunyoda mashhur yirik asarlarini meros qoldirgan.

Ibn Sino Buxoroda mavjud bo'lgan maktab, madrasa, shifoxona, nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarda o'z qobiliyatidagi mehnatsevarligi bilan turli fanlarga oid bilimlarni o'rganadi. U ustozlaridan hind hisobi bilan fikrdan ilm olgan. Keyinchalik, faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, pedagogikaga oid fanlardan ta'lim olgan. Shundan so'ng u barcha fanlardan mustaqil bilim olib, ustози Abu Mansur Kamariy yordami bilan Tib ilmini chuqur egallaydi. Hatto, ibn Sino Aristotel falsafasini uning «metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharxi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.

Ibn Sino o'zi, asosan, ta'limot va bilimida qaysi metodlardan foydalanish mumkinligini o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqib bayon etadi. Uning ta'limiy qarashlarida og'zaki tushintirish, suhbat o'tkazish, tajriba-sinov ishlarini uyushtirish, o'quvchida haqiqiy bilimni shakllantirish uchun yetarli emas. O'quvchi haqiqiy bilimni olish uchun mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil manbalarni o'qish-o'rganish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning bilimlarni egallashdagi ikki bosqichli metodlari.



Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limotida mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan dono g'oya yotadi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini ta'kidlab, ta'limda quyidagi tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish zarurligini uqtiradi.

- *o'qitishda birdaniga kitob bilan band qilmaslik;*
- *ta'limda yengildan og'irga qarab borish;*
- *olib boriladigan mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;*
- *jamo'a bo'lib o'qitishni tashkil etish;*
- *ta'limda bolalarning istagi, qiziqishi qobiliyatlarini hisobga olish;*
- *ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.*

## **2. Ibn Sino ta'limotida ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar.**

Ibn Sino tomonidan ta'lim jarayoniga qo'yilgan pedagogik talablar bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagani bilan ajrab turadi. U o'zining «Tadbiri manzil» asaridagi «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida mukammal bayon qiladi. Bu fikrlar bolalarni yengil-yelpi ilm bilan chegaralanmay,

balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishga chaqiradi.

O'qituvchi bolaga bilim, malaka va ko'nikmalar berishga yuzaki qaramay, o'z burchini anglagan holda mas'uliyat bilan qaramog'i lozim. Ana shularni hisobga olib Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lish kerakligini asosiy tamoillarini ko'rsatib beradi.

- *bolalarga bilim berishda bosiq, muomilada jiddiy bo'lish;*
- *o'rganilayotgan bilimni bolalar qanday o'zlashtirib olishlariga tez-tez e'tibor berish;*
- *ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;*
- *bolaning xotirasi, qobiliyatini bilish;*
- *fanga qiziqtirib borish;*
- *berilayotgan bilimni eng muhim tomonlarini ajratib tushuntirish;*
- *berilayotgan bilimlar bolalarni bolalarni yo shva aqliy darajasiga mos bo'lishi;*
- *ustozning har bir so'zi ilm olayotgan talabalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.*

Ibn Sino ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham ahloqiy estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida qaraladi.

### **Tayanch iboralar:**

*Mantiq, tajriba-sinov, mustaqil o'qish, metod, shakl, aqliy daraja hissiyot.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Mantiq deganda nimani tushunasiz?*
2. *Tajriba-sinov nima uchun o'tkaziladi?*
3. *Mustaqil o'qishdan maqsad nima?*
4. *Ibn Sino metodlari tizimini ayting?*
5. *Aqliy daraja qanday aniqlanadi?*
6. *Hissiyot nima uchun uyg'otiladi?*

### YAN AMOS KOMENSKIYNING TA'LIM NAZARIYASI

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) "Chex qardoshlari" jamoasiga mansub oilada tug'ildi, jamoa hisobidan o'rta va oliy ma'lumot oldi. Komenskiy jamoaning nemis dvoryanlari va katolik cherkovi zulmiga qarshi olib borgan kurashida aktiv qatnashdi. O'ttiz yillik urushda jamoaning ilg'or kishilari, jumladan Komenskiy ham qattiq ta'qib qilindi. Vaqtlar o'tishi bilan u yana "Chex qardoshlari" jamoasiga ko'chib kelib o'rnashgan. Leshno shahrida gimnaziyaga aylantirilgan qardoshlik maktabiga rahbar bo'lib qoldi.

#### *1. Komenskiyning pedagogik g'oyalari. "Buyuk didaktika" asari.*

Komenskiy gimnaziyada ishlab yurgan davrida, 1631 yili "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" degan darslik kitob yozdi. Birinchi marta shu kitobda lotin tilini o'zlashtirishni tevarak-atrof dunyoni o'rganish bilan qo'shib olib borish masalasi qo'yildi. Bu kitob 15 tilga tarjima qilindi va turli mamlakatlarning maktablarida keng qo'llanadigan bo'lib qoldi. Quvg'inlik hayotining qiyinchiliklariga qaramay, Komenskiy zo'r berib ishladi. Bu vaqtda u o'zining pedagogikaga doir asosiy asari bo'lgan "Buyuk didaktika"ni yozib tamomladi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi va Komenskiyning nomi butun dunyoga tanildi. Oradan ko'p o'tmay, maktabgacha tarbiyaga doir "Onalar maktabi" birinchi qo'llanma asarini yozdi. Komenskiyning pedagogik g'oyalarida, didaktikasida yangi fikrlarning chuqur ta'siri borligi sezilib turar edi. U ba'zilar benihoya boyib, ba'zilar och-yalang'och bo'lib yurganligini, shu bilan birga, ko'pchilik xalq umrbod og'ir va mashaqqatli mehnat azobini tortib kelayotganligini g'oyat darajada g'azab bilan ko'rsatib o'tdi. Komenskiyning hamma maktablar uchun umumiy bir tizim bo'lishi, bolalarning qaysi toifaga mansub bo'lishidan, ota-onalar qancha mulkka ega bo'lishidan va bolalar qaysi jinsdan bo'lishidan qat'iy nazar, ona tilidan maktab

hamma bolalar uchun umumiy va majburiy bo'lishi kerak, degan talablari shu davrgacha bo'lgan qarashlarning eng to'g'risi va olijanobi edi.

Komenskiy didaktikasining asosiy g'oyalari sensualistik (dinni inkor etmay) harakterdagi g'oyalardir: u olamni hislar vositasi bilan idrok qilish asosida bilishni, ko'rsatmali ta'lim tizimini ko'rsatib berdi.

Komenskiy umumiy ta'lim g'oyalarini ilgari surdi. U boylar-ning ham, kambag'allarning ham, yuqori tabaqa va past tabaqalarning ham hamma bolalari, o'g'il va qiz bolalar, shahar aholilari va qishloq joylaridagi maktab bolalarining ham o'z ona tilida maktabda o'qitishni talab qildi. Boshqacha qilib aytganda, Komenskiy umumiy boshlang'ich ta'lim g'oyasini olg'a surdi. U "Kambag'allar orasida zo'r iste'dodlar ko'pincha sezilmay qoladi va halok bo'lib ketadi" deb, bundan g'azablangan edi.

Komenskiyning dunyoqarashida bir tomondan stixiyali materializm bo'lsa, ikkinchi tomondan, dindorlik bir-biriga qo'shilib ketgan edi. Komenskiy, olam - "Xudo yaratgan" bir narsadir, "xudo bo'lmasa, tabiatning o'zi ojizdir", bilish - "Hamma joyda xudoni izlashning o'zidir", - deydi. Komenskiy yer yuzidagi hayotni narigi dunyodagi abadiy hayot uchun ko'rilayotgan tayyorgarlikdir xolos, deb biladi va tarbiyaning maqsadi insonni ana shu "narigi dunyodagi" hayotga tayyorlashdan iborat deb bildi. Komenskiy dunyoqarashidagi bunday ikkilanish uning "Buyuk didaktika" asarida ham namoyon bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, u ta'lim nazariyasini, tarbiya nazariyasi bilan birga olib qarashi uning to'g'ri yo'llaridan biri edi.

## **2. "Buyuk didaktika"ning tarbiyaviy g'oyalari.**

YA. A. Komenskiyning fikricha, tarbiyaning quyidagi uch bosqichi, uch vazifasi bor: o'zini va tevarak-atrofdagi olamni bilish (aqliy tarbiya), o'z-o'zini boshqarish (ahloqiy tarbiya) va xudoni tanish (diniy tarbiya). Uning o'rta asr pedagoglaridan farqi shuki, u birinchi vazifani hal qilinishi juda muhim ish deb hisobladi. Komenskiy tarbiyaning roliga juda yuksak baho berdi.

"Inson faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, unga bolalik chog'ida tarbiya berish kerak. Har qanday bolani odam qilish mumkin" – deydi u. Komenskiy layoqatli, qobiliyatli va pedagogning ta'sirini o'ziga singdiradigan bolalar bilan bir qatorda, qobiliyatsiz, yalqov va o'jar bolalar ham, juda oz bo'lsa-da, bor deb hisoblaydi va bunday bolalarni ham tarbiyalash va o'qitish zarurligiga o'zining amin ekanligini aytadi.

Komenskiyning pedagogikaga doir hamma asarlari, ayniqsa, uning asosiy asari bo'lgan "Buyuk didaktika" to'g'ri tarbiyaning hamma jihati tabiatga uyg'un bo'lishi lozim, degan fikr bilan sug'orilgan.

Komenskiy, inson tabiatning bir qismi va u tabiatni bir qismi sifatida uning eng asosiy umumiy qonunlariga bo'ysundiradi deb hisoblaydi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham, shuningdek, insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Komenskiy "maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak, "tabiat hamma joyda o'z harakatlarida namoyon qilayotgan jarayonlarni" kuzatishga asoslanib ish ko'rish lozim deb ta'lim beradi va o'simlik, hayvon hamda insonlar hayotida bir xilda namoyon bo'ladigan umumiy qonuniyatlar bor deb hisoblab, bu qonuniyatlarni ko'rsatib berishga urinadi.

Lekin, Komenskiy o'zining didaktik tizimlari va qoidalarini asoslash uchun ko'rsatgan bu "negizlar" (tabiat qonunlari) haqiqatda tabiat qonunlari emas, balki muallifning o'z-o'zicha belgilab qo'ygan sun'iy negizlardir. Biroq, Komenskiyning didaktik fikrlarini uning ifoda etish formasidan farq qilmoq zarur.

Komenskiy jamiyat hayotini va tarbiyaviy ishlar ahvolini kuzatish natijasida, o'zining pedagogik tajribasiga asoslanib turib, tarbiya va o'qitish sohasida chuqur xulosalar chiqardi. Uning "Buyuk didaktika" kitobida bayon qilingan chuqur nazariy fikrlar o'qituvchilik davrida orttirgan shaxsiy tajribasi va o'z zamonasidagi pedagogik tajribalar asosida qaror topdi. Ana shu tajribani pedagogik jihatdan asoslab berdi.



Komenskiy ham bu eski usuldan sira voz kechmay, shu bilan bir qatorda, uyg'onish davrining ta'siri ostida tug'ilgan, tabiat dalillar keltirish yo'li bilan isbotlanadigan yangicha isbotlash usulini kiritadi va matematika, mexanika, astraromiya sohasida o'sha davrda kashf qilingan bir qancha qonunlarga tayanib, tabiatning umumiy qonuniyatlarini ("negizlarini") ta'riflab berishga urundi.

Tarbiyani tabiatga uyg'unlashtirish tizimini shu taxlitda ko'tarib chiqqan Komenskiyning tarixiy xizmati shundan iboratki:

1) u insonni tabiatning bir bo'lagi va u tabiat qonunlariga bo'ysunadi, deb e'tirof qildi, tarbiyani asoslashda tabiatga-hayotga tayanishga intildi;

2) u butun hayotida - tabiatda va jamiyatda, o'simliklar, hayvonlar va odamlar hayotida amal qilinadigan umumiy qonunlar bo'lishi lozim degan fikrga keldi.

Bundan tashqari, Komenskiy tabiatning qonunlari (negizlari) to'g'risida gapirar ekan, tabiatni xudo yaratgan, ilohiy bir narsa deb hisobladi. Bunday tarixiy cheklanganlik (providensializm, deb atalgan cheklanganlik) o'sha davrdagi olimlarning hammasida ham, hatto tabiatning turli sohalarida cherkov ta'limiga zid bo'lgan haqiqiy tabiat qonunlarini kashf qilgan olimlarda ham bo'lgan.

### **Tayanch iboralar:**

*"Buyuk didaktika", tizim, pedagogik ta'sir, usul, "negiz", tarbiyaviy g'oya, providensializm.*

### **Nazorat savollari:**

1. *"Buyuk didaktika" asari nega jahonda mashhur bo'ldi?*
2. *Komenskiy tizimi qanaqa?*
3. *U pedagogik ta'sirni qanday tushundi?*
4. *"Buyuk didaktika"da qanaqa usul yozilgan?*
5. *Tarbiyaviy g'oyasi to'g'rimi?*
6. *Providensializm nima?*

## MAKTAB TIZIMI VA O'QITISHNING MAZMUNI

YA.A. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida olg'a surilgan g'oyalardan yana biri u maktab tizimini yaratdi. Maktabga qabul qilinadigan o'quvchilarni turli yoshdan bir xillikka olib o'qitishning o'qitish mazmunini yaratishni birinchi bor XVII asrning birinchi yarmida jahonda birinchi bo'lib yaratdi. YA.A. Komenskiyga qadar turli davlatlarda, shu bilan birga Markaziy Osiyoning xonlik va amirliklarida bunday kashfiyotga hech kim qo'l urmagan edi.

YA.A. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida tarbiyani tabiatga uyg'un bo'lish tizimi, tabiatning umumiy qonunlari izidan borish ma'nosida tushunish bilan bir qatorda, bola yoshining davrlarga bo'linishi, maktab tizimi va didaktikaning ba'zi masalalari qoidalarini asoslash uchun inson tabiatiga (tug'ma belgilariga) va bolalar yoshining tabiiy xususiyatlariga doir dalillar ham keltiriladi.

### *1. Bolaning yoshini davrlarga bo'lish.*

YA. A. Komenskiy inson tabiatiga asoslanib, yosh bo'g'inining umrini har qaysisi 6 yoshdan bo'lgan to'rt davrga ajratdi.

Go'daklik davri - tug'ilgandan olti yoshgacha bo'lgan davr.

Bolalik davri - 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr.

O'smirlik davri - 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr.

Yetuklik davri - 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan davr.

Yoshni bunday davrlarga bo'lishga Komenskiy yosh xususiyatlarini asos qilib oldi:

1) go'daklikning belgisi shuki, bu davrda bola jismoniy jihatdan zo'r berib o'sadi va uning sezgi organlari rivojlanadi;

2) bolalik davrida eslash qobiliyati va xayol hamda bularning ijrochi organlari bo'lgan til va qo'l rivojlanadi;

3) o'smirlik davrida shu ko'rsatib o'tilgan sifatlardan tashqari, tafakkur (tushunish, muhokama yuritish) ancha yuksak darajada o'sadi;

4) yetuklik davrida iroda va uyg'unlik saqlash qobiliyati o'sadi.

Komenskiy har qaysi yoshning yuqorida ko'rsatib o'tilgan harakterli xususiyatlariga (tabiatiga) asoslanib turib, shu davrning har qaysisi uchun o'qitishning alohida bosqichini belgilab beradi.

Komenskiy bolalarni 6 yoshga qadar onalar maktabida tarbiyalashni taklif qiladi, ya'ni oilada onaning rahbarligida bolaga maktabgacha tarbiya berishni onalar maktabi deb ataydi.

## **2. "Buyuk didaktika"da o'qitishi mazmuni.**

Bolalik davri yoshidagilar uchun (ya'ni 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) har bir jamoada, qishloqda va joylarda ona tilida olti yillik maktab bo'lishi kerak. O'smirlar uchun (12 yoshdan 18 yoshga qadar) har bir shaharda lotincha maktab yoki gimnaziya bo'lishi kerak. Balog'atga yetgan (18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan) yoshlar uchun har bir davlatda yoki katta viloyatda akademiya bo'lishi lozim.

Yoshning har bir bosqichi o'zidan keyingi bosqichni o'zidan oldingi bosqich bilan bog'lab, davomiylilikni ta'minlaydi. Shunday qilib Komenskiy XVII asrning birinchi yarmidayoq hamma uchun umumiy maktab bo'lishi lozim degan demokratik tizimni ilgari surdi.

Komenskiy har qaysi bosqich uchun (akademiyadan tashqari) o'qitishning mazmunini mufassal ishlab chiqdi. 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning tabiiy xususiyatlariga ko'ra, onalar maktabi bolalarga tevarak-atrofdagi tabiat to'g'risida va ijtimoiy hayot to'g'risida boshlang'ich ma'lumot, jonli taassurot berish lozim. Bolalar tabiat ilmi sohasida "suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o'simlik, baliq, qush" kabilarni nimaligini bilib olishlari kerak. Astronomiya sohasida bola "osmon, quyosh, oy, yulduzlar" nima deb atalishini quyosh, oy, yulduzlar qayerdan chiqib, qayerga botishini bilib olishi kerak. Shuningdek, bolalar geografiyaga doir dastlabki ma'lumotlarni (tog', vodiylar, daryo, qishloq, shahar) kabi tushunchalarni bilib olishlari talab etiladi.

Komenskiy bolalarni yoshlik chog'idanoq ro'zg'or ishlariga, mehnatga o'rgatish kerak, buning uchun hatto maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ham uy-ro'zg'or buyumlarining nimalarga ishlatilishi bilan tanishtirish kerak deb maslahat berdi. Komenskiyning fikricha, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni

ahloqiy tarbiyalash kerak, ularga mo'tadillik, ozodalik, mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish, mo'min-qobillik, rostgo'ylik, adolatlilik, va eng muhimi, odamlarga muhabbat bilan tarbiyalashdir.

Komenskiyning katta xizmati shunda bo'ldiki, u dunyoda birinchi marta maktabgacha tarbiyaga doir "Onalar maktabi" degan qo'llanma ishlab chiqdi. Komenskiyning fikricha, ona tilidagi maktabda o'qish muddati 6 yil bo'lishi kerak. Bu maktabda irqi, millatidan qat'iy nazar hamma toifadagi o'g'il va qiz bolalar o'qishi zarur.

O'sha vaqtlarda hamma davlatlarda boshlang'ich maktabda o'qish muddati 2-3 yil bo'lib, bu maktablar bolalarga o'qish, yozish, oddiy hisobni o'rgatish va duolarni yodlatish bilangina cheklanar edi. Komenskiyning juda katta xizmati shundaki, u ona tilida o'qitiladigan boshlang'ich maktabda o'qitish muddatini uzaytirish lozimligini uqtirib o'tdi (o'sha vaqtda katolik cherkovi ixtiyorida bo'lgan maktablarda bolalar tushunmaydigan lotin tilida o'qitilar edi), boshlang'ich maktabda o'qitiladigan bilimlar doirasini geografiya, tabiat ilmiga, geometriyaga doir bilimlar bilan, ashula o'qitishni va qo'l mehnatini o'rgatishni qo'shib kengaytirib, boshlang'ich maktabning ahamiyatini yuqori ko'tardi. Albatta, u diniy darslarni o'qitishga ham katta o'rin berdi.


Komenskiy lotincha maktabdagi (gimnaziyadagi) o'qitishning mazmunini o'sha vaqtdagi o'rta maktabda o'qitiladigan fanlar doirasi bilan belgiladi. Bu fanlar "yetti erkin san'at"ning o'zidir. Lekin Komenskiy bu fanlarga qo'shimcha yangi: fizika (o'sha vaqtda tabiat darsi fizika deb atalar edi), geografiya, tarix fanlarini ham kiritdi.

Gimnaziyada lotin, grek tillari, ona tili va yana yangi tillardan biri o'qitilar edi. Komenskiy, o'quvchilar tilni (grammatikani) o'qib bo'lganlaridan keyin real fanlarni - tabiat ilmini (fizikani), matematikani o'qishga o'tishlari va gimnaziya kursining falsafa fanlarini (etika, dialektika) o'qish bilan tamomlashlari, kursni ritorikani o'rganish bilan tugallashlari lozim, chunki fanlar mana shu tartibda o'rganilganda nutq ravon bo'lishi bilan birga, ma'nodor - chuqur mazmunli bo'ladi deb talab qildi.

Komenskiy olg'a surgan maktab tizimida gimnaziyaning ketma-ket keladigan olti sinfiga: 1) grammatika, 2) fizika, 3)

matematika, 4) etika, 5) dialektika, 6) ritorika sinflari deb nom berilgan.

### YA. A. Komenskiyning maktab tizimi sinflari:



Komenskiy fanlarni o'rganishda o'sha vaqtning odatidan tashqari bo'lgan mana shunday izchillikni belgilar ekan, o'zining falsafiy qarashlariga, sensualizmga (hislar yo'li bilan idrok qilish)ga asoslanib ish ko'rdi va bu bilan o'z zamonining navatori bo'ldi; biroq Komenskiy belgilagan tizimning kamchiligi shundan iborat bo'ldiki, o'zidan oldingi va o'z zamonida odat bo'lib qolgan usuldan ketolmadi - Komenskiy ham bir yo'la bir (va undan ko'proq) yil davomida bitta fanni (yoki bir-biriga yaqin bo'lgan ikki-uch fanni) o'qitishni va shundan so'nggina boshqa fanlarni o'rganishga o'tishni taklif qildi.

Komenskiy o'sha vaqtdagi odatga ko'ra, ilohiyot, adliya va meditsina fakultetlari bo'lishi kerakligini ko'zda tutadi.

#### Tayanch iboralar:

*To'rt davr, maktab tizimi, o'qitish mazmuni, gimnaziya, akademiya, sensualizm.*

#### Nazorat savollari:

1. *To'rt davrni sharhlab bering.*
2. *Maktab tizimi qanaqa bo'ladi?*
3. *Har davrning o'qitish mazmunini ayting.*
4. *Gimnaziya qanaqa maktab?*
5. *Akademiya-chi?*
6. *Sensualizm nima?*

## XI BOB

### YAN AMOS KOMENSKIYNING DIDAKTIK QARASHLARI

Komenskiy sensualistik falsafaga amal qilib, hislar yo'li bilan hosil qilinadigan tajribani bilish va o'qitishga asoslanib ta'lim jarayonini olib borishni asos qilib oldi. Didaktikasidagi ko'rsatmalilik tizimini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib berdi. Komenskiyga qadar bo'lgan davrdagi qo'lyozma kitoblarda ham, shuningdek, bosma kitoblarda ham ko'pincha, suratlar berilar edi, lekin bu usul ko'rsatmalilik tizimini (prinsipi) nazariy jihatdan asoslamay turib, empirik tarzda qo'llanishdan boshqa narsa emas edi, desa bo'ladi.

Bu tizimni birinchi marta nazariy jihatdan isbotlab bergan kishi Komenskiy bo'ldi. U ko'rsatmalilik tizimini faqat ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki shu bilan birga, barcha sezgi organlarini narsalar va hodisalarni eng ravshan, asosli va mustahkam, yaxshi o'zlashtirib olishga jalb qilish vositasi tariqasida keng ma'noda va to'g'ri tushundi.

#### *1. Didaktikaning oltin qoidasi.*

U didaktikaning "Oltin qoidasi" deb quyidagi qoidalarni bayon qilib berdi: "Mumkin bo'lgan narsalarning hammasini sezgilar orqali idrok qildirmoq kerak: ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'z vositasi bilan, eshitib bo'ladigan narsalarni eshittirish vositasi bilan, hidlarni - hidlatish, ta'mni - totib ko'rish, ushlab ko'rib sezilishi mumkin bo'lgan narsalarni ushlatib ko'rish vositasi bilan idrok qildirilsin. Agar biror narsani bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yo'la bir necha sezgi organlari ishga solinsin".

Komenskiy ta'limni narsalar to'g'risida gapirib borishdan boshlamay, balki shu narsalar ustida aniq kuzatishlar olib borishdan boshlashni taklib qildi. Mumkin bo'lgan narsalarni o'zini tabiiy holda kuzatish kerak, agar narsalarni bevosita kuzatish

imkoniyati bo'lmasa, shu narsalarning suratlari va medallaridan foydalanish kerak.

Komenskiy ko'rsatmalilikni didaktikaning eng muhim prinsiplaridan biri sifatida ishlab chiqib, katta xizmat ko'rsatdi.

Ko'rsatmalilik prinsipi asosida o'qitish sohasida o'sha vaqt-gacha to'plagan birmuncha amaliy tajribalarni dohiyona asoslab berdi, umumlashtirdi, chuqurlashtirdi va kengaytirdi, o'z darslik-larini suratlar bilan ta'minlab, ko'rsatmalilik tizimini amalda keng qo'lladi. Komenskiyning bu xizmatlarini qayd qilib o'tish bilan birga, uning ko'rsatmalilik tizimini eng asosiy tizim deb hisoblab, bu tizimning ahamiyatiga birmuncha ortiqcha baho berib yubor-ganligini ham ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi.

Komenskiy real dunyoni tajriba asosida o'rganishga chaqi-rib, soxalistik ta'lim usuli "yoshlarning miyasini quruq so'zlar, gaplar, fikrlar bo'tqasi bilan" to'ldiradi, deb bu usulni qattiq tanqid qildi, "soxalistika ikir-chikirlaridan qutulishga" chaqirdi.

Komenskiy o'qitishda ma'nosini tushunmay og'zaki yodlash-ga onglilik prinsipini (tizimi) qarama-qarshi qilib qo'ydi. Ko-menskiy bunday deb yozadi: "Aql-idrok bilan yaxshi tushunib, olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik kerak". O'quvchilar "o'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qan-day foyda yetkazishini" o'qituvchi yordami bilan ravshan anglab olishlari lozim. Hodisalarni o'rganish chog'ida shu hodisalarning sabablarini o'quvchilarga to'la suratda anglatmoq kerak. "Har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtalmoq kerak".

## ***2. O'qitishda tizimlilik.***

Komenskiy ta'limning sistemali bo'lishini talab qildi. U o'quvchilarni hodisalar orasidagi bog'lanishni tushunish daraja-siga yetkazish zarurligini ko'rsatib o'tdi. O'qitilayotgan materialni shunday bayon qilmoq kerakki, bu material o'quvchilarga mujmal bir narsa bo'lib ko'rinmasin, balki bir necha asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilib berilsin. O'qitishda faktlardan xulosalarga, misollardan qoidalarga o'tish yo'lini tutish vash u

faktlar hamda misollarni qoidalar tizimiga solib umumlashtirib bormoq kerak, chunki bu fakt va misollar umumlashtirib berilmagan taqdirda bir-biriga bog'lanmagan hodisalarning sistemasiz uyumi tariqasidagina ko'rinish mumkin. Konkretidan abstraktga, oson narsadan qiyin narsalarga, umumiydan juz'iyga o'tish kerak; avval narsa yoki hodisa to'g'risida umumiy tasavvur berib, so'ngra uning turli tomonlarini ayrim-ayrim o'rganishga o'tish kerak.

Komenskiyning fikricha, o'qitish va ta'limdagi izchillik prinsipi katta ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'zlashtirishi uchun ularga bayon qilinayotgan narsalarning hammasini izchil, muntazam ravishda bayon etish kerak: chunonchi, o'quvchilar yangi materiallarni o'rganishga oldingi mashg'ulotlarda tayyorlangan bo'lsin. Komenskiy bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, avvalo, o'quvchilarning sezgilarini, hislarini o'stirishni, so'ngra ularning xotirasini, keyin tafakkurini va nihoyat, nutqi va qo'llari harakatini o'stirishni aytadi, chunki o'quvchi bilib, uqib olgan narsasini to'g'ri ifodalab bera olishi va amalda qo'llay olishi lozim. Komenskiy o'quvchilarning kuchi yetadigan narsalarni o'qitish kerak, degan didaktik prinsipni ilgari surib, bu xususda qimmatli ko'rsatmalar berdi. U bolalarga ularning yoshlariga yarasha va ular tushina oladigan narsalarnigina o'qitishni talab qildi. Dars berishdagi aniqlik, narsalar va hodisalarning ortiqcha detallariga berilib ketmay, ularning asosiy mohiyatini tushuntirib berish natijasidagina bolalar o'qitilayotgan narsani to'g'ri tushunishga qodir bo'laladilar.

Komenskiy o'qitilayotgan materialni o'quvchilar mustahkam, asosli ravishda uqib olishlari kerak, degan didaktik prinsipni ilgari suradi va bu prinsipga rioya qilish qoidalarini mufassal ishlab chiqadi; "mustahkam asos" vujudga keltirish, o'qitishda shoshmaslik kerak, o'quvchilar o'qitilayotgan narsalarni to'la uqib olishlariga erishmoq kerak; bir-biriga bog'langan narsalarning hammasini bir-biriga bog'lab o'qitmoq kerak, - deydi Komenskiy.

Har bir mavzu qisqa, aniq qoidalarda yakunlanib berilishi lozim. O'tilgan materialni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarning o'qitilayotgan materialni mustahkam o'zlashtirib



olishida katta ahamiyatga ega. Ovoz chiqarib takrorlashning roli juda katta, chunki bunday takrorlash o'quvchilarning o'zlashtirib olgan narsasini o'z so'zi bilan aytib berish qobiliyatini oshiradi va o'zlashtirish lozim bo'lgan materialni yana ham aniqroq, mustahkamroq o'zlashtirib oladi.

Komenskiy o'quvchilarni bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o'stirishga, o'quvchilarda "bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishga va ilm olishga bo'lgan g'ayratni oshirishga" intildi. Buning uchun, - deydi Komenskiy - foydali narsalarni zavqlantirib o'rgatish, bolalarni bilimga bo'lgan havasini rag'batlantirish kerak.

### **Tayanch iboralar:**

*Didaktika, ko'rsatmalilik prinsipi, "oltin qoida", onglilik prinsipi, sistemalilik prinsipi, izchillik prinsipi, bilish qobiliyati.*

### **Nazorat savollari::**

1. *Didaktika nimani o'rgatadi?*
2. *Ko'rsatmalilik prinsipini sharhlang.*
3. *Komenskiy "oltin qoida"da qanday maqsadlarni ilgari surdi?*
4. *Sistemalilik qanaqa prinsip?*
5. *Izchillik prinsipi nimalarni ko'zda tutadi?*
6. *Bilish qobiliyati qanday o'stiriladi?*

## XII BOB

### MAKTAB TA'LIMINI YO'LGA QO'YISH

#### *1. Sinf-dars tizimi.*

YA. A. Komenskiy maktabda o'quv yili choraklari bo'lishi to'g'risidagi tushunchani, chorak oxirida dam olishni tashkil etdi, o'quv kunini qanday belgilashni ko'rsatib berdi. Masalan, ona tili maktablarida 4 o'quv soati, lotincha maktabda 6 o'quv soati, o'quv mashg'ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi. Bu sistemaning asosiy elementlari o'sha vaqtdagi ba'zi bir ilg'or maktablarda qo'llana boshlagan edi.

O'sha vaqtlarda Yevropa maktablarida o'quvchilar maktabga butun yil davomida turli vaqtlarda qabul qilinaverardi; o'quvchilar, garchi, sinfda birga o'tirsalar ham, lekin sinfning hamma o'quvchilari bilan yalpi mashg'ulotlar olib borilmas edi: har bir o'quvchi o'ziga berilgan darsni o'qir, maktabda har bir o'quvchi sinfdan-sinfga alohida-alohida ko'chirilaverar edi; o'qituvchi har bir o'quvchini yakka tartibda o'z huzuriga chaqirib, u bilan alohida shug'ullanardi. Komenskiy maktabga o'quvchilarni yilda bir marta qabul qilishni, o'qituvchi butun sinf bilan jamoaviy ish olib borishini talab etdi, ya'ni, sinf-dars tizimini qo'llashni tavsiya etdi. U darsni qanday rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar berdi, darsning bir qismini o'quvchilardan so'rash yo'li bilan, ularning bilimini hisobga olishga ajratishni, bir qismi esa yangi mavzuni tushuntirib berish va mashqlar o'tkazishga ajratishni taklif qildi. U har bir darsning o'z mavzusi va o'z maqsadi bo'lishini aytdi. O'qituvchi hamma o'quvchilarni mashg'ulotlarda aktiv qatnashishlarini diqqat bilan kuzatib borishi va dars vaqtida sinfda intizom saqlashlari lozimligini Komenskiy alohida uqtirib o'tdi.

#### *2. "Buyuk didaktika" da maktab intizomi g'oyasi.*

YA. A. Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib o'tdi. Buning isboti uchun u chexlarning: "Intizomsiz

maktab bamisoli suvsiz tegirmondirdir" degan maqolini keltiradi. Komenskiyning katta xizmati shunda bo'ldiki, u o'rta asr maktablarida bolalar aqlini o'tmaslashtiradigan kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni tavsiya etdi, lekin shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilar orasida yetarli darajada intizom o'rnatishi lozimligini uqtirib o'tdi. Intizomni, asosan, "yaxshi namunalar ko'rsatish, shirin so'zlar va hamisha samimiy hamda ochiq hayrixohlik ko'rsatish yo'li bilan" o'rnatish kerak, - deb yozadi Komenskiy.

U bolalarga tan jazosi berilishiga qattiq qarshi turadi. Komenskiy: "Qullik quroli bo'lgan, erkin odamlarga sira to'g'ri kelmaydigan darra va tayoq maktablarda aslo ishlatilmasligi kerak, bu qurollar maktablardan butunlay chiqarib tashlash lozim, - mening qat'iy fikrim mana shu" deb uzil-kesil aytadi. Ammo Komenskiydagi ikkilanish tan jazosi to'g'risidagi fikrlarda ham ko'rinadi: u o'qishda orqada qolayotgan bolalarni kaltaklashni qat'iy ra'd qiladi-yu, lekin agar o'quvchi xudoga yoqmaydigan harakatlar qilsa, yoki o'jarlik qilsa, uni kaltaklash mumkin, deydi.

### ***3. Maktabni boshqarish nazariyasi.***

YA. A. Komenskiy o'zining 1653-yilda yozgan va birinchi marta 1657-yilda nashr qilingan "Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari" nomli asarida maktab rejimini to'g'ri yo'lga qo'yishga, maktabni boshqarishga, o'qituvchilarning vazifalariga, o'quvchilarning hatti-harakatlariga taalluqli ko'pgina qimmatli ko'rsatmalar berdi.

Komenskiy o'zining "Yaxshi yo'lga qo'yilgan maktab qonunlari" kitobida har bir sinf uchun alohida xona bo'lishi lozimligini ko'rsatib o'tadi. Maktab binolari ozoda saqlanishi va ko'rkam jihozlanishi lozim, deydi.

Bu qoidalarda o'quvchilarning bilimlarini hisobga olish tartibi usullari batafsil bayon qilib berilgan. O'qituvchi har bir darsda bir necha o'quvchining bilimini tekshirib ko'radi, maktab direktorii esa har oyda bir marta sinovlar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilarning darslarni qanday o'zlashtirayotganliklarini tekshiradi.

Har chorak oxirida ham sinovlar o'tkaziladi, o'quv yili tamom bo'lgach esa, sinfdan-sinfga ko'chirish imtihonlari o'tkaziladi.

O'quvchilar maktabga kechikmay kelishlari va sinfdan belgilangan joyda o'tirib dars tinglashlari shart. O'quvchilar uzrli sabablar bilan darsga kela olmay qolsalar, bu haqda ularning otanalari navbatchiga xabar qilishga majburdirlar, navbatchi esa o'z navbatida, bu to'g'rida o'qituvchiga ma'lumot beradi. O'quvchilar dars vaqtida o'qituvchining gapini diqqat bilan tinglashga majburdirlar. Boshqa vaqtlarda ham, umuman, hamma joyda o'quvchilar kamtar va odobli bo'lib yurishlari lozim.

Komenskiy bunday deb yozadi: "Kulgi yoki nafrat, qo'rquv yoki ko'r-ko'rona itoatkorlik tug'dirmaslik uchun intizom hamisha hazil yoki g'azab bilan o'rnatilmasdan, balki qattiq va qat'iy ishonch bilan o'rnatiladigan bo'lsin. Binobarin, yoshlarga rahbarlik qilishda yengiltaklikka yo'l qo'ymaydigan muloyimlik bo'lishi, jazo berishda esa haddan oshishga yo'l qo'yilmay qattiqqo'llik qilinish lozim".

YA. A. Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmining va maktabning taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Turli mamlakatlar (Angliya, Vengriya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlar) maktab ishini yaxshilash uchun Komenskiyning o'zlariga taklif qildilar.

Uning ko'p tillarga tarjima qilgan darsliklari ko'pgina maktablarda, jumladan XVII va XVIII asrlarda Rossiyada ham keng yoyildi. Boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq vaqt davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi va darsliklar yaratishda boshqa pedagoglar uchun namuna bo'ldi.

Komenskiy didaktika sohasida novator bo'ldi. U didaktikaga ko'p chuqur, ilg'or g'oyalarni, ta'lim ishini yo'lga qo'yishning prinsiplari va qoidalarini kiritdi (o'quv yili, kanukullar, o'quv yilini o'quv choraklarga bo'lish, o'quvchilarni maktabga bir vaqtda, faqat kuzda qabul qilish, sinf-dars tizimi, o'quvchilar bilimini hisobga olib borish, o'quv kuni muddatini belgilab qo'yish va hokazo). Komenskiyning bu masalalarga doir ko'rsatmalari o'zining asosiy ahamiyatini hanuzgacha yo'qotgani yo'q va

turli mamlakatlarning maktablarida hali ham qo'llanib kelinmoqda.

Komenskiy kiritgan yangiliklarning ko'pi (umumta'lim ideyasi, maktab hamma uchun bir xil bo'lishi kerak degan ideya, boshlang'ich maktabning olti yillik bo'lishi to'g'risidagi ideya, didaktikaga doir ba'zi bir prinsiplar va qoidalar) eski maktabga qarshi kurash natijasida asta-sekin o'ziga yo'l ochdi.

Komenskiyning pedagogika sohasidagi demokratik g'oyalari XVII-XVIII asrdagi feodal davlatlarda, xususan, Markaziy Osiyodagi xon va amirliklarda amalga oshirilishi mumkin emas edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilg'or pedagoglar (ayniqsa, Rossiyada va slavyan mamlakatlarida) Komenskiyning pedagogika sohasidagi g'oyalarining ahamiyatini tobora ochib ko'rsata boshladilar.

Biz Komenskiyga buyuk pedagog degan yuksak bahoni berar ekanmiz, uning pedagogika ilmini va maktabni taraqqiy ettirishda juda katta ish qilganligini aytib o'tishimiz lozim.

### **Tayanch iboralar:**

*Sinf, dars, chorak, reja, tan jazosi, dekurion, intizom.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Sinf qanday tashkil etiladi?*
2. *Dars nimalarga asoslanib olib boriladi?*
3. *Har chorakning qanaqa bosqichlari bor?*
4. *Rejalashtirish Komenskiy qarashlarida qanaqa bo'ladi?*
5. *Tan jazosi qanaqa jazo?*
6. *Dekurion qanday vazifa bilan shug'ullanadi?*
7. *Komenskiy maktab intizomini qanday bayon etdi?*

## XIII BOB

### IOGANN GENRIX PESTALOSSINING TA'LIM NAZARIYASI (1746-1827)

#### *1. Aqliy ta'lim.*

Shvetsariyalik pedagog, boshlang'ich ta'lim asoschisi I. G. Pestalossining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. Pestalossi o'zining shaxsning hamma xususiyatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga yetishi to'g'risidagi asosiy ideyasiga tayanib, aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lab olib borish kerakligini ko'rsatadi va tarbiyalovchi ta'lim olib borishni talab qiladi.

Har qanday ta'lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi Pestalossi. Kuzatishlar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi.

Shaxsning sezgi organlari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari, dastlab, ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni muayyan tasavvurlarga, muayyan tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko'rinib turgan tasavvurlarga» aylantirish kerak.

Ta'lim, birinchidan o'quvchida o'zining sezgi organlari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlarni to'plashga yordam beradi, ikkinchidan esa bolaning aqliy qobiliyatlarini o'stiradi. Pestalossi deydi: «Muttasil tasavvurlar bilangina boyib qolmasdan, balki aqlning kuchini ham zo'r berib o'stirish kerak».

Ta'limning ikki yoqlama xarakterda ekanligi to'g'risidagi masalaning bunday keng qo'yilishi Pestalossi davrida tarixan ilg'or ish bo'ldi. Masalani bu taxlitda qo'yish hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Pestalossi ta'limning har bosqichi uchun maxsus ravishda tanlab olingan, har bir bolaning o'ziga xos intellektual kuchlarini hamda qobiliyatlarini tinimsiz va muntazam ravishda o'stirib boradigan tizim vositasi bilan bolalarga aqliy ta'lim berishga intiladi.

## ***2. Pestalossining elementar nazariyasi.***

Pestalossi ta'limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to'g'risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni o'zlashtira borib, o'z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keladi. U son, shakl va so'zni mana shunday elementlar deb hisobladi. O'qitish jarayonida bola o'lchov yo'li bilan shaklni, hisob yo'li bilan sonni, nutqni o'stirish yo'li bilan so'zlashni bilib oladi.


Pestalossi elementar ta'lim nazariyasiga amal qilib, o'z zamonidagi boshlang'ich maktabda ta'lim mazmunini tubdan o'zgartiradi. O'qitiladigan darslar qatoriga o'qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang'ich qismlarini, o'lchash, rasm solish, ashula, gimnastika, shuningdek, geografiya, tarix va tabiatga doir eng zarur bilimlarni kiritadi. Shunday qilib, Pestalossi boshlang'ich maktabning o'quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. Uning o'qitish metodikasi bolalarga faqat bilimlar berishnigina emas, balki shu bilan birga, ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishni ham o'z ichiga oldi.

Pestalossi o'qitish ishiga shunday mas'uliyatli vazifa yuklab, bu ishda o'qituvchining o'rnini katta ekanligini uqtirib o'tdi. O'qituvchi o'z bilimlarini bolalarga o'rgatish uchun tayyorlangan o'qimishli kishi bo'lishning o'ziga kifoya qilmaydi. Uning vazifasi ancha murakkab va mas'uliyatlidir. U, avvalo bolalarni astoydil sevishi, o'zini bolalarning otasidek his qilishi hamda ularning tarbiyasi va o'sishiga oid bo'lgan narsalarning hammasini o'zining vazifasi deb bilishi kerak. Pestalossining fikricha, bola o'z tabiati bilan faol kuchga ega bo'lib tug'iladi, o'quvchilarga bu kuchlarni

mashq qildirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berish pedagogning vazifasidir.

Pestalossi hamisha uqtirib aytadiki, pedagog bolalarni mutasil o'rganib borishi va o'zining butun ishini ana shu o'rganish natijasida hosil qilingan ma'lumotlar asosida amalga oshirish lozim.

Elementar nazariyaning asosiy tomonlari quyidagicha shaklda ko'rinadi:



### **Tayanch iboralar:**

*Aqliy ta'lim, sezgi, ta'lim bosqichi, tizim, elementar nazariya, o'qituvchi o'rni.*

### **Nazorat savollari:**

1. Pestalossining aqliy ta'limini ayting?
2. Sezgi nima ishni amalga oshiradi?
3. Ta'lim bosqichlari nimani anglatadi?
4. Pestalossida o'qitish tizimi qanaqa edi?
5. Elementar nazariya nimani nazarda tutadi?
6. O'qituvchining ta'limdagi o'rniga qanday baho berdi?



## XIV BOB

### IOGANN GERBARTNING TA'LIM NAZARIYASI

#### *1. Gerbart pedagogikasining asoslari.*

Gerbart idealistik falsafa, asosan, etika va psixologiya asosida pedagogika fani tizimini ishlab chiqishga uringan nemis pedagoglaridan edi. Iogann Gerbart (1776-1841) o'zining «Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika» (1806), «Psixologiya darsligi» (1816), «Psixologiyani pedagogikaga tadbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831), «Pedagogikaga doir leksiylar ocherki» (1835) nomli kitoblarida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni keng bayon qilib berdi.

Gerbart psixologiyani tasavvurlar, bu tasavvurlarning ko'rinishlari, bir-biriga qo'shilishi, yo'q bo'lib ketishi to'g'risidagi fan deb hisobladi. Uning fikricha, odamning ruhi, dastlab, hech qanday xususiyatga ega bo'lmaydi. Inson ongining mazmunli tasavvurlarni paydo bo'lishi va yanada harakat qilishi bilan belgilanadi, bu tasavvurlar assosiasiya qonunlariga ko'ra, bir-birlari bilan o'zaro muayyan munosabatda bo'ladilar. Gerbart kiritgan assosiasiya va appersepsiya tushunchalari psixologiyada saqlanib qolgan. Odamning qalbida to'plangan tasavvurlar uyumi ong maydoniga yorib chiqishga intiladi. Ong doirasida bo'lgan tasavvurlarga zotdosh bo'lgan tasavvurlargina ong doirasiga o'tib oladi, ong doirasidagi tasavvurlar tomonidan quvvatlanmagan tasavvurlar esa zaiflanib, sezilmaydigan bo'lib qoladi va ong doirasidan tashqariga surib chiqariladi.

Insonning butun aqliy faoliyati, shu tariqa tajriba, aloqa, tarbiya vositasi bilan kuchaytirilgan dastlabki tasavvurlarga bog'liqdir. Chunonchi, tushunish tasavvurlarning o'zaro munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi kun sayin pedagoglik faoliyat bilan shug'ullanishi natijasida tarbiyalash san'atini yaxshi egallab oladi. U tarbiya nazariyasini qanchalik chuqur va asosli ravishda o'zlashtirib olgan bo'lsa, tarbiya san'atini shunchalik tez egallab oladi. «Faqat ish jarayonidagina tarbiya san'ati o'rganila boradi va takt, malaka, uquv, epchillik hamda mahorat kiritiladi, lekin hatto ish


jarayonida ham san'atni faqat shunday kishi o'rgana oladiki, bu kishi, dastavval, o'z fikrida fanni o'rgangan, o'zlashtirib olgan bo'lishi, fan tufayli o'zini belgilab olgan va tajriba tomonidan berilishi kutilgan kelajak tasavvurlar uchun o'zini oldindan tayyorlab qo'ygan bo'lishi kerak» - deydi Gerbart.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi.

## 2. Ta'lim nazariyasi.

Gerbart ta'limni tarbiyaning eng katta va eng asosiy vositasi deb hisoblagan. U pedagogikaga tarbiyalovchi ta'lim terminini kiritdi. Ta'limsiz tarbiya bo'lmaydi, dedi u. Gerbartning fikricha, ta'lim qiziqishlarning xilma-xilligiga asoslanishi lozim.

Gerbart turli qiziqishlarni oltita mustaqil turga bo'ladi.



Gerbart maktab tizimi masalasini o'zining konservativ qarashlariga muvofiq hal qilishga urinadi. U maktablarni quyidagi tiplarini: elementar maktab, shahar maktabi va gimnaziya tashkil

etishni taklif etadi. Maktablarning bu tiplari bir-biriga bog'liq emas, ularning har qaysisi mustaqil yashayveradi va maxsus maktablarda o'qishga o'tishni ta'minlaydi.


Gerhart har tomonlama qiziqish nazariyasini ishlab chiqdiv a shu nazariyaga asoslanib, qiziqishni kuchli ta'limning eng muhim sharti va vositasi deb hisoblab, unga katta e'tibor berdi.

Gerhart o'quvchilarda qiziqish va diqqatni o'stirish hamda quvvatlash to'g'risida ko'pgina qimmatli didaktik maslahatlar berdi.

### **3. Ta'limning bosqichlari nazariyasi.**

Gerhart ta'lim o'quvchining ongida bir-biriga bog'lanmagan manzaralar qoldirishi mumkin emas, bilib olingan narsalarning hammasi bir butunni tashkil qilishi lozim degan fikrni uqtirib, gul o'z chanog'idan ajratib olinmasligi lozim, deydi.

Buning uchun Gerhart ta'lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya hamma mamlakatlar pedagoglari orasida keng tarqaldi. Uning fikricha, ta'lim jarayoni, albatta, o'rganilayotgan materialga chuqur kirish (chuqurlashish) va o'quvchining o'ziga chuqur berilishi (anglashi) orqali o'tadi. O'z navbatida bu ikki holat (chuqurlashish va anglash) ko'ngil osoyishta bo'lgan holatda amalga oshirilishi mumkin. Ta'limning to'rt bosqichi mana shundan kelib chiqadi.



Birinchi bosqich ravshanlik bo'lib, o'rganilayotgan mavzu shu mavzu bilan bog'liq bo'lgan narsalarning hammasidan ajratib olinadi va chuqur ravishda ko'zdan kechiriladi. Didaktika nuqtai nazaridan o'qituvchi yangi mavzuni bayon qilib berishi, ko'rsatmalilikni qo'llashi zarur.

Ikkinchi bosqich assotsiasiya bosqichi bo'lib, bu harakat holatidagi faoliyatdir. Bunda yangi mavzu o'quvchida mavjud

bo'lgan, darslarda, kitoblar o'qiganda hosil qilingan, tasavvurlar bilan bog'lanadi. Didaktik jihatdan qaraganda darsni suhbat tariqasida olib borish, o'qituvchining o'quvchilar bilan bemaol suhbatlashuvi natijasida o'tkazish juda o'rinli bo'ladi.

Uchinchi bosqich - sistema bosqichi osoyishta holatdagi anglashdir. Bunda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida eski tasavvurlar bilan bog'langan yangi bilimlar asosida xulosalar, ta'riflar, qonunlar qidiradilar. Didaktika sohasida buni xulosalar, qoidalar va ta'riflarni shaklga solish deyish mumkin.

To'rtinchi bosqich - metod bosqichi, bu harakat holatidagi anglashdir. Olingan bilimlar bunda yangi faktlar, hodisalar va voqealarga tatbiq qilinadi. Didaktika sohasida bu - o'quvchilardan olingan bilimlardan keng foydalanishni, mantiqiy va ijodiy fikr yurita olishni talab qiladigan har xil dars mashqlari o'tkazishdir.

Gerbartning fikricha, bu bosqichlar ta'limning borishidagi izchillikni belgilab beradi. Bu bosqichlar o'qitilayotgan mavzuning aniq mazmuniga, o'quvchilarning yoshiga, darsning didaktik vazifasiga bog'liq bo'lmaganligi uchun ham ularni formal bosqichlar deyish mumkin.

### **Tayanch iboralar:**

*Imperik, mushohadaviy, ravshanlik bosqichi, assosiasiya, tizim, metod bosqichlari.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Imperik qiziqish qanaqa qiziqish?*
2. *Mushohadaviy qiziqish-chi?*
3. *Ravshanlik bosqichida nimalar ko'zda tutilgan?*
4. *Assosiasiya bosqichida-chi?*
5. *Tizimlilik bosqichida-chi?*
6. *Metod bosqichida-chi?*

## XV BOB

### TURKISTONDA DASTLABKI MAKTABLAR

#### *1. Xonlik va amirlik davri ta'limi.*

1860 yillardan e'tiboran rus mustamlakachilari Markaziy Osiyoning ko'pgina qismini bosib oldilar. Rus mustamlakasiga aylangan Qo'qon xonligini Toshkent shahri Turkiston general gubernatorligiga qarashli yerlarning markazi bo'ldi.

Turkistondagi xonlik va amirlik davlatlarida islom dini davlatni boshqarar edi. Rus mustamlakachilarini Turkistondagi keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar g'oyat ajablantirgan edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilik tadjiri uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanini payqadilar.

Musulmon ruhoniylari Turkistonning feodal hukmdorlari bilan mahkam bog'langan edi: shu hukmdorlarning yordami tufayli bu yerda musulmonlarning juda ko'p diniy o'quv yurtlari, chunonchi: masjidlar huzuridagi maktablar, madrasalar va shunga o'xshagan o'quv yurtlari bor edi. Ularda o'qitishning mazmuni o'rta asrdagi darajada bo'lganligidan, ular juda qoloq o'quv yurtlari edi. Turkistonda birinchi general-gubernator bo'lgan o'ta ayyor, pixini yorgan Kaufman barcha musulmon muassasalariga nisbatan dastlab, «aralashmaslik» (betaraflik) siyosatini tutdi. Turkistondagi chor ma'murlari shu siyosatga amal qilib, vaqf mulklarni talon-taroj qilgan madrasa boshliqlari ustidan tushgan shikoyatlarni qarashdan bosh tortar edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, chorizm ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan, ya'ni, maktab-maorifdan boshlash kerakligini anglab, o'z dasturlarini ishlab chiqishga kirishdi. Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi bu sohada, ayniqsa, jon kuydirib faoliyat ko'rsatdi. Uning bu sohadagi ishlari behuda ketmadi. 1880-yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rilganda Turkiston "savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati" ta'kidlanib, ularning

imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari qayd qilindi.

Boshida, o'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'rtnashgan yerlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. Chunki 1866-yili Toshkentga ko'chib kelgan ruslarning bolalarini o'qitish uchun dastlabki rus maktabi ochildi. Mustamlakachilar rus bolalari bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalarini ham qabul qilar edilar. Turkistondagi bunday maktablarga hali musulmon tabaqalari orasida, uncha tushuncha bo'lmasada, bu siyosat darajasidagi maxsus topshiriq edi.

## ***2. Dastlabki rus maktablarida ta'lim mazmuni.***

Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatildi; bundan ko'zda tutilgan maqsadlardan biri mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Chorizمنىng Turkistonda ruslashtirishdan iborat maktab tizimi chorizm tomonidan Volga bo'ylarida yashovchi xalq uchun ma'qullangan «Ilminskiy tizimi»dan farq qilar edi. Qozon pedagogi Ilminskiy Volga bo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan edi; bu maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili esa alohida fan sifatida o'qitilar edi; shu bilan birga, hamma darsliklar xristian dinini targ'ib qilish ruhida tuzilgan. Bulardan farqli o'laroq, islom dini ta'siri kuchli bo'lgan Turkistonning mahalliy aholisi o'rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmasdi; buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o'qitish man etilgandi; rus maktablariga o'qishga kirgan yerli aholi bolalari eng boshdan bosklaboq rus tilida o'qitilardi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 70-yillarda ochila boshladi: 1876-yili Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, Verniyda (hozirgi Olmaotada) ham shunday gimnaziyalar, 1879-yilda o'qituvchilar seminariyasi ochildi.

Gimnaziyaga ham mahalliy aholininng bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1-3-o'rin ajratilgan edi.


Turkistonda dastlab ochilgan ba'zi rus maktablarida o'quvchilarning to'rtidan birini va ba'zan undan ko'prog'ini mahalliy aholi bolalari tashkil etgan bo'lsa-da, lekin butun Turkiston o'lkasida bunday maktablarda o'quvchi mahalliy aholi bolalari ikki yuzdan oshmas edi; bularning ko'pi qozoq bolalari bo'lib, o'zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruhoniylari «kofirlar» maktablariga qarshi ta'rig'ibot yurgizar edilar.

Rus maktablarida, ayniqsa, o'rta maktablarda o'quvchilar o'rtasida o'z ijtimoiy ahvoliga ko'ra boylar va oqsuyaklarning bolalari ko'pchilikni tashkil etardi, lekin rus boshlang'ich maktablari qoshidagi internatlarda mahalliy aholi kambag'al qismlarining bolalari ham bor edi.

Chorizmning maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarini birgalikda o'qishlari, ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalardi. Bu millatlarni o'zaro yaqinlashuvi bo'lsa-da, bu yigitchalar o'zbek bolalaridan o'zbekcha o'rganishga imkon tug'dirardi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmasdilar, natijada darslarni tushunishda ancha qiyinchilik tug'dirardi. Shu bilan birga rus maktablarida o'qiyotgan bolalarning ong va tafakkuri rivojlanmay qolaverardi. Bu hol yerli aholini istibdod iskanjasida saqlash uchun rus istilochilariga kerak edi.

Shuning uchun chor hukumati o'qish mazmunini bir oz o'zgartirib, rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni bilib olmaguncha, odatda, quyi bo'limda o'qir edi; rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilardi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir o'qituvchi bir xonada, bir vaqtning o'zida bir necha bo'lim bilan mashg'ulot olib borardi.



Rus maktablarida o'qiydigan qozoq bolalarining ko'pchiligi internatlarda yashar, xuddi shu internatlarda rus bolalari ham yashardilar; bunday internatlarda rus tili yanada tezroq va puxtaroq o'rganib olinardi.

Toshkentdagi gimnaziya, dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalari rus tili bilan ko'proq shug'ullanishi uchun lotin tilini o'rganishdan ozod qilindilar.

O'zbek tilini mukammal bilgan, sakkiz yil davomida rafiqasi bilan Nanay qishlog'ida yashab, o'zbek xalqi ruhiyatini puxta o'rgangan, ruslashtirish siyosatining «madaniy» uslubi tarafdorlaridan bo'lgan sobiq zobit, Turkiston maorifi rahbarlaridan biri V. N. Nalivkin (1857-1918) maslakdoshlari o'rtasida shunday g'oyani ilgari surgan: "O'lkada rus ta'sirini mustahkamlash uchun ikki tomonlama ish olib borish kerak. Aholining ikki asosiy guruhi o'zaro bir-biriga yaqinlashsin. Rus tilini mahalliy aholi o'rtasida keng tarqatish bilan birga ruslar, ayniqsa, xizmatdagi amaldorlarga mahalliy og'zaki nutqni o'rgatish kerak". Turkistonda qariyb qirq yil xizmat qilib, kichik zobitlikdan general-leytenant unvoniga, shahar hokimi yordamchisi, eski shahar polismeystri lavozimidan viloyat harbiy gubernatoriga qadar mansab pillapoyalari-dan ko'tarilgan N. S. Likoshin ana shu g'oyaga amal qilgan amaldorlardan biri edi. U uch yil ichida o'zbekchani o'rganib, shu tilda yozadigan, ruschadan-o'zbekchaga, o'zbekchadan-ruschaga bema'lol va erkin tarjima qiladigan darajaga erishadi. N. S. Likoshin ruslashtirish siyosatining nozik uslubini yoqlab, Turkistonda xizmat qiluvchi har bir rus mansabdori mahalliy tilni bilishi shart deb hisobladi. Likoshin mahalliy aholidan ariza-shikoyatlarni tekshirish vositachilar orqali emas, balki pristavlar tomonidan bevo-



sita o'tkazilishi lozimligini uqtirgan. Bu esa pristavlardan mahalliy tilni bilishni talab qilardi. Likoshin rus zobitlarini o'zbek tilinigina emas, o'zbek yozuvini ham o'rganishga chaqirgan. Mahalliy ma'muriyat vakillari, aholining nufuzli qatlami, ulamo va ziyolilarni bilish, nazorat qilish, xalq kayfiyatidan vaqtida xabardor bo'lib turish uchun eng yaxshi vosita ekanligini ta'kidlagan.

Toshkentning eski shaharida uzoq yillar davomida politsiya boshlig'i lavozimida ishlagan N. S. Likoshinning o'zbek bolalarining bilimga chanqoqligi va tabiiy qobiliyatlariga baho bergani diqqatga sazovordir. «Men, - deb yozgan edi N. S. Likoshin, - eski maktabni bitirib, to'g'ri shahar bilim yurtiga kelgan bolalarni ko'rganman. Ruslar orasida yurgan bu bolalar tezda o'z tengdoshlari bilan chiqishib, ruscha biyron gaplashadigan bo'lib ketishdi. Buning asosiy sababi, mahalliy bolalarning rus bolalari bilan birga bo'lishidadir. O'yinlarda bolalik mashg'ulotlarida og'zaki nutq tez rivojlanadi».

Oliy lavozimdagi mustamlaka ma'murlari ruslashtirish siyosatida Turkiston yoshlariga e'tiborni kuchaytirgani bejiz emas, albatta. Ular mahalliy aholini idora qilish kelajagini yoshlar orasidan tarbiyalanadigan sodiq qullarda ko'rdi va shu maqsadga ta'lim ishlarini qaratdi.

### **Tayanch iboralar:**

*Gubernator, hukmdor, rus maktabi, chorizm, gimnaziya, semnariya, internat.*

### **Nazorat savollari:**

- 1. Turkiston general-gubernatorining maktab ochishdan maqsadi nima edi?*
- 2. Hukmdor kim?*
- 3. Rus maktabining mazmuni qanday?*
- 4. Chorizmning maktab sohasidagi siyosati qanaqa?*
- 5. Gimnaziyaning ta'lim mazmuni qanaqa?*
- 6. Semnariyaning ta'lim mazmuni-chi?*

## XVI BOB

### TURKISTONDA RUS-TUZEM MAKTABLARI

#### *1. Diniy majburiy ta'lim.*

80-yillarning boshlarigacha chorizmning Turkistonda maktab sohasida tutgan siyosatining asosiy tamoyili: mahalliy aholi bolalarini hozirgi zamon bilimiga faqat umumiy rus maktablari-dagina o'rgatish edi. Turkistonning Rossiyaga qo'shilgandan buyon o'tgan yigirma yil ichida, undagi rus maktablarida mahalliy aholining bolalari juda kam edi. Musulmon ruhoniylarining ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan, ayniqsa, o'troq aholi rus maktablaridan yotsirardi.

Markaziy Osiyo xonliklarida boshlang'ich diniy ta'limning majburiyligi sababli o'g'il bolalar uchun shaharlarda va qishloq joylarida ko'p maktablar ochilgan edi. Akademik Qori Niyoziy-ning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, 1899-yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona hududlarining o'zidagina 4632 ta maktab bo'lgan. Ammo bu raqamlar Markaziy Osiyoda ma'orif qandaydir yutuqlarga erishganligini bildirmaydi. Statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, o'sha 1899-yilda Turkiston-ning hamma maktablarida 44773 nafar o'quvchi bo'lgan, ya'ni, o'rta hisob bilan bir maktabda o'qigan bolalar soni o'ntaga ham yetmaydi.

Markaziy Osiyo chor Samoderjaviyasining mustamlakasiga aylangandan keyin, podshoh hukumatining o'lka ma'muriyati o'z mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish maqsadida tub yerli aholidan ma'lum miqdorda vositachi-amaldorlar tayyorlash tashvishiga tushib, bir nechta rus-tuzem maktabini ochdi, bu maktablarga rus amaldor va ofitserlarning bolalari bilan bir qatorda mahalliy millatlardan bo'lgan badavlat kishilarning bolalari qabul qilinadi. O'z-o'zidan ravshanki, podshoh hukumatining bunday maktablarni ochishi Turkiston o'lkasida xalq maorifini rivojlantirish haqida g'amxo'rliqi bo'lmay, bu bir qancha vositachilar tayyorlash yo'lidagi bir tadbiri edi, xolos.

1881-yildan 1914-yilgacha hozirgi O'zbekiston hududida bor-yo'g'i 160 ta rus-tuzem maktabi (135 ta boshlang'ich maktab, 13 ta yuqori boshlang'ich va 12 ta o'rta maktab) ishlab turgan,

ular da 18 ming bola o'qigan, shundan qariyb 5000 tasi mahalliy millatlarning bolalari bo'lganligi yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

Rus-tuzem maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan g'oya asos qilib olingan edi. Turkiston ma'murlari bu fikrning qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar va buning ustiga musulmon ruhoniylari orasida ruslar bilan hamkorlik qilish tarafdorlari ham chiqa boshlagan edi.



1884-yilning dekabrda Toshkentda, "Eski" shahar bilan "Yangi" shahar chegarasida sinab ko'rish uchun rus-tuzem maktabi ochilgan edi. O'n yildan keyin Toshkentda bunday maktablardan yana to'rtta ochildi; bu tipdagi maktablar Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysining hamma shaharlarida, shuningdek, katta qishloqlarda ham ochildi.

Rus-tuzem maktablarining o'quvchilari, odatda, ikki soat "rus sinfida" o'qishar (bunda rus tili va ruscha savod o'rgatilar, rus tilida arifmetika va tabiat hamda tarixdan dastlabki ma'lumotlar o'rgatildi) va ikki soat "tuzem (mahalliy) sinf"da o'qir edilar: "Tuzem sinfida" o'qituvchi o'quvchilarga musulmon dinini - shariatni hamda qur'onni o'qish uchun zarur bo'lgan arab yozuvini o'rgatishi kerak edi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va metodikasi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilardi (bu maktablarda ba'zan rus bolalari ham uchrab qolar edi).

Dastlabki o'n yil davomida rus-tuzem maktablariga aholining ko'pgina qismi ishonchsizlik bilan qarardi va ba'zi joylarda bunday maktablarga bolalarni to'plash ishi juda ko'p qiyinchiliklar bilan o'tar edi. O'qituvchilar bunday tipdagi maktablarda ishlash uchun yetarli tajribaga ega emas edilar. Yaxshi darsliklar ham yo'q edi. Rus tiliga o'rgatishda tarjima qilish metodi qo'llanilar, og'zaki nutq mashqlari kam o'tkazilardi.

O'sha 1884-yili, ya'ni, sinash uchun rus-tuzem maktablari ochilgan vaqtda, Turkiston o'qituvchilar seminariyasining rus qismida tarbiyalanuvchilar uchun o'zbek tili kiritildi. O'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V. P. Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. Nalivkin seminariyada 1890-yilgacha dars berdi. Bu davrda u rus-tuzem maktablarida o'qituvchi bo'lajak o'quvchilarga faqat o'zbek tilini o'rgatibgina qolmasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga havasni ham tarbiyalagandi. Seminariyada o'qib, rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishni sevib qolgan anchagina o'qituvchilar yetishib chiqdi. Nalivkinning ba'zi shogirdlari yirik olimlar bo'lib yetishdilar (masalan, Samarqandda Ulug'bek observatoriyasining yodgorliklarini topgan arxeolog V. V. Vatkin shular jumlasidan-dir).

Rus sinflari bilan bog'liq bo'lganligi uchun mahalliy sinflarda ham o'quv yili hamma o'quvchilar uchun bir vaqtda boshlanadigan va bir vaqtda tamom bo'ladigan bo'ldi. Bu esa sinfdars tizimining tug'ila boshlashi edi (eski maktablarda esa bir xonani o'zida bolalarning har qaysisi har turli kitoblar, ya'ni, biri qur'on, biri haftiyak va biri yana boshqa bir kitobni o'qirdi). Astasekin mahalliy sinflarning eng yaxshi o'qituvchilari rus sinflaridan yana boshqa ko'pgina yangiliklarni ham qabul qilib olib boshladilar.

80-yillarning boshlarida rus-tuzem maktablari ochilmasdan ilgari, ba'zi rus boshlang'ich maktablari huzurida katta yoshdagi mahalliy aholi uchun rus tilini bepul o'rgatish kurslari tashkil

etilgandi. Bu masalada 1880-yili Avliyoota (hozirgi Jambul)dagi boshlang'ich rus maktabi tashabbus ko'rsatdi, Keyinchalik, rus tili kurslari Farg'ona vodiysi shaharlaridagi rus bilim yurtlari huzurida ham ochilgan edi. Bunday kurslar 1884-85 o'quv yilida butun Turkistondagi rus-tuzem maktablari qoshida ochildi. Bularga, asosan, o'spirinlar qatnar, ammo kursda o'quvchilar o'rtasida katta yoshdagi kishilar, ko'pincha, mayda savdogarlar va hunarmandlar ham bor edi.

O'zbek va tojik xalqlarining shoirlari va ma'rifatparvarlari (qo'qonlik Furqat, buxorolik Ahmad Donish, xo'jandlik Asiriy va boshqalar) rus tilini o'rganishga va rus xalqi madaniyati bilan tanishishga da'vat qilar edilar.

## ***2. Chorizmning ta'lim sohasidagi siyosati.***

Farg'ona harbiy-gubernatori general-leytenant Korolkov 1898-yilda imperatorga yo'llagan hisobotida podshoh ma'muriyatining o'lkani ruslashtirish bobidagi dasturini bayon etib, "tuzemeslarning" o'z bolalarini ixtiyoriy ravishda rus-tuzem maktablariga berishga erishish muhimligiga e'tiborni qaratgan. Buning uchun u mahalliy ma'muriyat amaldorlariga yaqin besh yil ichida ish yuritishni rus tiliga ko'chirishni lozimligini uqtiradi. Korolkov bu tadbir "tuzemeslarni" mansabga qiziqib, farzandlarini rus-tuzem maktablariga berish istagini uyg'otadi, deb hisoblagan. Podshoh generallari: "Rus-tuzem maktablari va shahar bilim yurtlarini muvaffaqiyatli tugallagan tub yerli aholining bolalariga jiddiy imtiyozlar berilsin" , - degan fikrni ilgari surdilar. Rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan va xalq ko'zini ochib, g'aflat uyqusidan uyg'otadigan ziyolilar kerak emas edi. Mustamlaka ma'muriyati Turkiston ziyolilari katta mansabga erishsa, o'z xalqi uchun xizmat qilishlari va mustamlaka tartibiga qarshi chiqishlari mumkinligidan xavfsirashgan. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mustamlaka ma'muriyati o'lka aholisi rus tilini tabiiy ravishda va ixtiyoriy tarzda o'rganadi deyish xom xayoldir, buning uchun ham zo'rlik, ham ustomonlik darkor, degan xulosaga keldi.

General Korolkovning imperatorga taqdim etgan yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini va bolalarni ruscha hayot tarziga o'rgatish alohida o'rin

egallagani bejiz emas. "Turkiston o'lkasida tarixan oliy missiya o'tkazishga chaqirilgan rus halqining shifokor ayollari", uning fikricha, o'zbek xotin-qizlarining "erksiz, ziyosiz va huquqsiz turmush tarziga o'zga tushunchalar olib kiradi va boshqa intilishlar uyg'otadi". "Turkiston xotin-qizlari, - deb davom etadi general, - nasroniy ayol bilan bir joyda yashashi, u bilan doimiy va yaqin aloqasi unda o'z hayot tarzini rus ayollariniki kabi yaxshilash fikrini asta-sekin uyg'otadi, nasroniy tasavvurlarni sindirib boradi va bu xol uninig farzand-larini tarbiyalash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday ayolning o'g'il-qizlari musulmon bo'lmaganlarga murosa-siz va dushman bo'lmaydi". Shunday ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun Korolkov o'lkada xotin-qizlar ambulatoriyalarini ko'paytirishni taklif qiladi. Bunga yana qo'shimcha tarzda u Rossiyadagi ayollar monastrlarini Turkiston ayollariga "provoslav rus qarashlarini singdirish uchun" xizmatga jalb etish zaruriyatini ham alohida ta'kidlab o'tadi.

"Rus kishisining fikri" deb nomlangan sarlavha ostida 1899-yilda Toshkentda nashr etilgan kitobda noma'lum muallif xuddi shunga hamohang fikr bildirgan. "O'lkani ruslashtirish, - deb yozgan edi u, - qonunan asoslangan qatag'on dahshati ostida aholini tutib turishga qodir kuchlarni ko'paytirish yo'li bilangina amalga oshiriladi, degan gap emas. Tarixning o'zi rus kishisining mustamlakachilik bobida zo'r salohiyatini ko'rsatgan. Ana shu layoqatni to'la namoyon qilib, tinch yo'l bilan mehnatkash dehqonlar va yarim jangovor kazak kuchlarining o'zaro hamkorlikda ish ko'rishini hamda rus elementini asta-sekin ko'paytirish orqali Turkiston o'lkasini ruslashtirishga zamin hozirlanadi".

Shunday fikrlarni hisobga olgan holda general-gubernator S.M.Duxovskiy, general Korolkov ishlab chiqqan dasturni to'ldirgan holda, imperiya hukumati harbiy vaziriga 1898-yil 6-sentabrda yuborgan axborotida rus hukumatining Turkiston o'lkasida amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. Xalqning ma'naviy-ruhiy holatiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi barcha musulmon muassasalari, ayniqsa, madrasa ishlariga faol darajada aralashish.

2. Barcha mahalliy musulmonlarni birlashtirishga qodir organ sifatida musulmon diniy boshqaruvi idorasiga yo'l qo'ymaslik.

3. Barcha yerli maktablarni ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazish va barcha mahalliy musulmon o'quv yurtlari va diniy muassasalarni to'la ro'yxatdan o'tkazish.

4. Turkistondagi barcha musulmonlarga yahudiylarga nisbatan o'rnatilganiga o'xshash munosabatlarni joriy qilish; shuning uchun barcha yerli musulmon maktablariga 1893-yil 1-mart qonunini qo'llash; shu qonunga ko'ra musulmon maktablari o'qituvchilari har yili alohida guvohnomalar olishlari va ular uchun haq to'lashlari lozim.

5. Siyosiy jihatdan zararli deb topilgan mahalliy musulmon muassasalarini yopish huquqini general-gubernatorga berish, oila va nikoh ishlarini hal qilish huquqini rus ma'muriyatiga qaytarib berish.

General-gubernator bu takliflarning umumiy asosini belgilab, "Nodon va ehtirosli osiyoliklar uchun islom hamon kuchli ta'sir qilishini" uqtirib, bu ta'sir hali uzoq davom etishini ta'kidlab o'tadi.

#### **Tayanch iboralar:**

*Rus-tuzem, samoderjaviya, vositachi, rus sinfi, tuzem sinfi, semnariya.*

#### **Nazoart savollari:**

1. *Rus-tuzem maktablarining ta'lim mazmunini gapirib bering.*

2. *Samoderjaviyani maorif sohasidagi asl siyosatining maqsadi nima?*

3. *Vositachi qanday shaxs?*

4. *Rus sinfida nimalar o'qitiladi?*

5. *Tuzem sinfida-chi?*

6. *Semnariya qanday o'quv dargohi?*

## TURKISTONDA YANGI USUL MAKTABLARINING TARAQQIY ETISHI

### *1. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi.*

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining islohotchisi va "Tarjimon" jaridasi (1883 yildan Qrimda chiqqan) tashkilotchisi Ismoil Gaspiralinig nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketdi. U Bog'chasaroyda eski maktablarning murakkab o'qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib, unda o'zi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi o'tkir asarlari bilan Turkiston jadidlari yetakchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Tavallo (To'lagan Xo'jamyorov), Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalarning dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkazgan. Yangi usul maktablarining vujudga kelishida turtki, ya'ni, namuna bo'lgan.

Munavvar qori so'nggi 3 asr davomida vujudga kelgan rus istibdodi tufayli yanada chuqurlashgan madaniyat tanazzuli hosilasi bo'lmish milliy jaholat va g'aflatni yo'qotish uchun birinchi navbatda maorifni qayta tashkil etishga kirishdi. Munavvar qori Abdurashidxonov 1901-1904-yillarda qrimlik do'sti yordamida Toshkentda o'z hovlisida "Usuli savtiya" maktabini ochdi. Bunday maktablar tarmog'ini keng quloqch yoydirishda qaldirg'och bo'lgan uning "Namuna" maktabi katta shuhrat qozondi, mustamlaka ma'muriyati ham undan tashvishga tushdi. Chunki yangi usul maktablari ruslashtirish siyosatini tomiriga bolta urar edi. Imperiya Ichki Ishlar vazirligining 31-dekabrda Toshkentdagi maxfiy senzori M.P.Ostroumovga yuborgan ko'rsatmasidan ana shunday tahlika seziladi. Ichki Ishlar vazirligi politsiya departamenti Turkiston o'lkasida mahalliy xalqlar o'rtasida yangi usuldagi maktablar ochish harakati boshlanib, matbuotda bu haqda turli maqolalar e'lon qilinayotgani, shu jihatdan Turkiston bo'yicha maqola yozish, maktab ochish ishida qatnashayotgan barcha shaxslar haqida mukammal material to'plab, shaxsan Ichki Ishlar



vaziriga ma'lum qilish uchun zudlik bilan politsiya departamentiga yuborish vazifasi Ostroumov zimmasiga yuklatilganligini ma'lum qilgani bejiz emas edi.

## **2. Yangi usul maktablariga qarshi kurash.**

Reaksiya yillarida chorizmning Turkistondagi maktab to'g'risidagi tutgan siyosatida ruslashtirish kuchaya boshladi. Chor hukumati rus va rus-tuzem maktablarining tarmoqlarini kengaytirib, 1908-yildan boshlab yangi usul maktablariga qarshi kurasha boshlaydi.

Chorizm yarim asr davomida o'rta asr tipidagi musulmon maktablariga tegmagan edi, shuning uchun yangi usuldagi maktablarning hammasini to'g'ridan-to'g'ri hech bir so'zsiz yopib qo'yish to'g'ri kelmasdi. 1911-yili Turkistonda tatarlar o'qituvchilik qilgan ellikka yaqin yangi usul maktablari yopildi, chunki biron-bir mahalliy aholining bolalarini rus bo'lmagan va shu mahalliy aholining o'ziga mansub bo'lmagan o'qituvchining o'qitishi ta'qiqlangan alohida qonun chiqarilgan edi. Buning ustiga bu vaqtga kelib maktablarda yangi usul bilan o'qitadigan o'nlab o'zbek o'qituvchilari yetishib chiqqan edi. Yangi usul maktablarida o'qitadigan o'zbek o'qituvchilarining soni o'sib bormoqda edi. Musulmon ruhoniylari va eski maktab domlari dastlabki yangi usul maktablariga ular paydo bo'lishi bilanoq, qattiq qarshi chiqdilar. Ammo chorizm umrining keyingi o'n yilida eski usul maktablarining ko'pgina domlari yangi usul maktablaridan va rus-tuzem maktablarining mahalliy sinflaridan orqada qolib ketmaslik hamda o'quvchilardan mahrum bo'lmaslik maqsadida ba'zi bir islohotlar o'tkazdilar. Eski maktabda keng tarqalgan yangilik - tovush usuli yordami bilan savodga o'rgatish edi.

1917-yilga kelib, Turkistonda salgina yangilik kiritilgan bunday eski tipdagi maktablardan tashqari yuzga yaqin yangi usuldagi maktablar (ko'proq o'zbek maktablari) ochildi. Bu maktablarda tovush usuli yordami bilan savodga o'rgatibgina qolmasdan, balki sinf-dars tizimida ham olib borilar edi. Bu maktablarda o'quvchilar partalarda o'tirib o'qiydigan bo'ldilar, ularda o'qitiladigan fanlar qatoriga arifmetika hamda tarix va tabiiyot elementlari kiritildi.

Yangi usul maktablarining tarmog'i barqaror emas edi, ularning ko'plari faqat bir yil va hatto undan ham kam vaqt yashardi. Yangi usulda o'qitadigan ba'zi o'qituvchilar chor hukumatining ta'qibi tufayli o'z yashash joylarini bir necha marta o'zgartirishga majbur bo'lardilar.

Yangi usuldagi maktablarning hammasida ham o'quv kursi bir xilda emas edi. Ba'zi maktablarda diniy fanlar ko'proq o'qitilsa, boshqa maktablarda umumiy ta'lim fanlari ko'proq o'qitilardi.

### ***3. Rushdiya va ibtidoiya maktablari.***

Yangi usul maktablarining tarafdorlarini "jadid" (ya'ni, yangilik tarafdorlari) degan laqab bilan atar edilar. Jadidlarning bir qismi panturkizm mafkurasi ta'siri ostida edi; ilmga xilof bo'lgan bu irqiy nazariya, asosan, 1908-yilda burjua revolyutsiyasi bo'lib o'tgan Turkiya tomonidan tashviqot qilinar edi; panturkist-jadidlar 1917-yildan boshlab proletar davlatining dushmanlari lageriga o'tib oldilar.

Yangi usulchilar orasida 1905-yildan keyin rus ishchilar harakatining ilg'or ideyalari ta'sir ko'rsatgan kishilar ham bor edi. Ana shunday ideyalar ta'sirida bo'lgan Hamza Hakimzoda (1889-1929) Qo'qonda kambag'allarning bolalari ham kirib o'qiy oladigan yangi usul maktablarini ochish uchun juda ko'p kuch sarfladi.

Yangi usul maktablarining eng barqarorlari asta-sekin 6 yillik bo'la boshladi; 6 yil o'qitiladigan bunday maktablardan Toshkentda, Qo'qonda, Samarqandda, shuningdek, To'qmoqda bittadan bor edi. Qolgan yangi usul maktablarida (bu maktablar ibtidoiya deb atalardi) ko'p deganda to'rt yil o'qitilardi.

Toshkent va Qo'qonda qiz bolalar uchun yangi usuldagi maktablar ham ochilgan edi.

Yangi usuldagi maktablar o'z o'rnida o'zbek tilida umumiy ta'limni tarqatishga ham yordam berdilar.

Yangi usuldagi o'zbek maktablarida dars beriladigan tillarda bir xillik yo'q edi; darslarning bir qismi tatar tilida edi; 1905-1917-yillarda o'zbek tilida bosiladigan gazetalarda, shubhasiz, to'g'ri adabiy nutq namunalarini topish juda qiyin edi, chunki nashriyot va mualliflar turli-tuman ta'sirga berilgan edilar; o'qi-

tuvchilar o'zbek tilining turli shevalarida gapirardilar; ularning ba'zilari tatar tilida so'zlashardilar.

Yangi usuldagi maktablarda o'quvchilar o'qitilayotgan tilni tushunardilar, biroq ular adabiy nutqning yagona normasiga o'rgatilmagan edi.

O'z bolalarini yangi usuldagi maktabga o'qishga bergan otalar, shu maktablarda rus tilining ham o'qitilishidan manfaatdor edilar. Rus tili eng barqaror maktablarda to'rtinchi o'quv yilidan boshlanardi.

Kattalar uchun rus tili kursi, birinchi marta 80-yillarning boshlarida ochilgan bo'lib, keyinchalik, ko'pgina shaharlarga tarqalgandi. Bunday kurslar, ayniqsa, Toshkentda keng tarqalgan edi. Toshkentda 1909-1911-yillarda bunday kurslarda har yili 150 ga yaqin kishi o'qir edi. Toshkentda ochilgan rus tili kursida o'quvchilar uchun ozroq o'qish haqi ham belgilangandi. Kurslarda o'quvchilarning ko'pchiligi faqat ruscha og'zaki nutqni egallashni istardi, lekin ba'zilar ikki yillab o'qir, ruscha savodga ega bo'lar, arifmetikani ham o'rganardilar. 1915-1916-o'quv yillarida rus tili kurslari dastlabki o'quvchilarning xohishlariga ko'ra, Toshkentdagi ikkita va Qo'qonda bitta madrasa qoshida ochilgan edi.

Turkistondagi rus-tuzem maktablari va yangi usuldagi maktablardagi kichik maktab yoshidagi o'zbek bolalaridan atigi 4 foizigina o'qir, ammo shunda ham mehnatkash kambag'allarning bolalari juda kam edi. Bu maktablarni bitirib chiqqanlar, odatda, savdo bilan shug'ullanar yoki korxonalar va idoralarda mayda xizmatchi bo'lib ishlardilar.

Rus-tuzem maktablarining va Yangi usuldagi maktablarning yordamida eng oddiy umumiy ma'lumot tayyorligiga ega bo'lgan o'zbek yoshlari Oktabr to'ntarishidan keyingina milliy kadrlar, asosan, o'qituvchilar tayyorlaydigan dastlabki o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Rus-tuzem maktablari va yangi usuldagi maktablar dastlabki bolsheviklar maktablari uchun baza xizmatini o'tadi. Masalan, Toshkentdagi 6 yillik rus-tuzem maktabidan Navoiy nomidagi II bosqich birinchi o'zbek maktabi o'sib chiqdi. Yana shunday maktablar ba'zasida Narimonov nomidagi Toshkent shahar pedagogika texnikumi tashkil etilib, ko'plab o'qituvchi kadrlar tayyorlandi.

Oktabr to'ntarishidan ilgari Turkistonda bir necha uncha katta bo'lmagan professional texnika o'quv yurtlari, masalan, Toshkentda hunar maktabi, Hidrotexnika maktabi, Temir yo'l texnika maktabi, Samarqandda bog'dorchilik maktabi bor edi. Bu o'quv yurtlarida mahalliy aholi bolalari kamdan-kam uchrardi. Oktabr to'ntarishidan keyin bu o'quv yurtlari o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari uchun eshigini keng ochgan texnikumlar va boshqa professional-texnika ta'limi muassasalarini taraqqiy ettirish uchun birinchi asosiy baza bo'lib qoldilar.

Shuni aytish kerakki, Turkiston o'lkasida yashagan tub yerli xalqlar kabi o'zbek xalqi ham, haddan tashqari og'ir sharoitlarga qaramasdan, o'z bolalarining tarbiyasi borasida ajoyib an'analarni vujudga keltirgan. Bolalar go'daklik chog'laridan boshlab mehnatga hurmat ruhida tarbiyalangan, kuchlari yetgan mehnatda qatnashishga jalb etilgan, ularda kattalarga, ota-onalarga, ayniqsa, keksalarga hurmat hissini, faqat yaqin kishishlarga emas, balki muayyan vaziyat sababli yordamga muhtoj bo'lib qolgan hamma odamlarga ko'mak berish hissi sabot bilan oshira borilgan, xalqning o'ziga xos bo'lgan an'anaviy odamgarchilik kabi xislatlari juda aniq va puxta tarkib toptirilgan, halol turmush kechirishga o'rgatilgan.

### **Tayanch iboralar:**

*Senzor, usuli savtiya, rus-tuzem, rushdiya, ibtidoiya.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Senzorning vazifasi nimadan iborat?*
2. *Usuli savtiya qanaqa maktab?*
3. *Rushdiya maktablarini ta'lim tizimi qanaqa?*
4. *Ibtidoiya maktablari-chi?*
5. *Nimaga rus-tuzem maktablari ikki xil?*

## XVIII BOB

### JADID MAKTABLARIDA TA'LIM

#### *1. Xonlik va amirlikda yangi ta'lim.*

Turkistondagi jadidchilik harakati, asosan, imperializm va uning mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan edi.

Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirni ham o'z g'oya va maslaklariga tortishga harakat qildilar. Buxoro jadidlari 1900-yil boshida amirdan yangi usuldagi maktablar ochishga ruhsat oldilar. Ammo bunday yangi usul maktablarining ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi. Shu bois Rossiyaning amirga bo'lgan tahdidi ortib ketdi va amir jadidlarga tazyiq o'tkazishga majbur bo'ldi. Butun O'rta Osiyo bo'ylab ochilgan yangi usul maktablariga qarshi Rossiya mustamlakachilari o't ochdilar, bu maktablarni "Islomga qarshi", "g'ayridin maktablari" degan tashviqot yurgizdilar. Josuslik idoralarini ishga soldilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, bu borada ko'plab qurbonlar berildi. Rus ma'murlari bu paytga kelib islom diniga qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Hatto 1903-yili podshoh Turkiston aholisi uchun haj qilishni ham maxsus farmon bilan ma'n etdi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg'otdi.

Istambulda tashkil topgan "jamiyati hayriya", "nashriyot" shirkatlari kabi ijtimoiy tashkilotlar Buxoro va Xivada ham maydonga keldi. Bu jamiyatlar bilan uzviy holda kamol topgan jadidchilik harakati o'sib, 1908-yildagi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan "Yosh turklar" harakatiga muqobil holda Xivada "Yosh xivaliklar", Buxoroda "Yosh buxoroliklar" jamiyatlarini yuzaga keltirdi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldilar. Jadidchilik harakatining bunday siyosiy tashkilotlari, qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida kuchli, nufuzli tashkilotlarga aylandi.

#### *2. Turkistonda jadid maktablari.*

Taraqqiyparvar o'zbek xalq ziyolilari keng xalq ommasini savodli qilishga, ularni jaholat uyqusidan uyg'otishga intilib,

maktablar ochdilar. Birinchi bo'lib 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qo'qonda Salohiddin domla tomonidan, o'sha yili To'qmoqda, 1899-yili eski Toshkentda Man-non qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid mak-tablari ochildi. 1900-yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903-yili M. Behbudiy o'z mablag'i hi-sobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Xoji Muin va Abdul Qo-dir Shakuriylar bu maktabda saboq berganlar. 1908-yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qa-bul qilinishiga erishdi. 1911-yili jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta bun-day maktablarda 1740 ta bola o'qigan. 1917-yil boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5000 dan ziyod o'quvchi bo'lgan.

Jadidlarning maktablari istiqloqlar yetishtiruvchi maskan ekanligini rus ma'muriyati yaxshi angladi. Xususan, mustamlaka ma'muriyati bu harakatga qarshi kuchli raqobatchilik usulini ishga solib rus-tuzem maktablari faoliyatini kuchaytirishga qaror qildi. Bu qaltis vazifaga ishonchli odam topishni o'lka maorifi rahbarlaridan biri S. M. Grameniskiyga topshirdi. 1-rus-tuzem makta-bi o'zbekcha sinflar muallimi, shu maktabni bitirgan, Shayxon-tohur dahasining Baland masjid mahallasida istiqomat qiluvchi Said-rasul Saidazizovni rus amaldorlariga maqbul shaxs deb topdilar. Taniqli rus olimlari V. V. Bartold va Samoylovichlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, ruschani yaxshi tushunib, diplomatik qobiliyati kuchli bo'lgan Saidrasul domla Toshkentning yetuk ziyolilaridan biri edi. Uning uyiga ruslardan tashqari, chet-ellik sharqshunoslar ham kelib-ketib turgani hamda uning bilimi va zakovatiga tan berganlari mustamlakachi amaldorlarga ma'lum edi. Saidrasul domla rus-tuzem maktablari uchun tayyorlagan darslikda ko'pgina rus mualliflari asarlaridan tarjimalar kiritgani general-gubernator-ga ma'qul bo'ldi va kitob nashrga tavsiya qilindi. Yangi usul mak-tablaridan namuna olgan tarzda qiroat usuli qo'llanilgan "Ustodi avval" darsligi shu tariqa 1902-yilda dunyo yuzini ko'rди va keyin bir necha bor qayta nashr etildi. Saidrasul Saidazizov taniqli

jurnalist, shoir ham edi. Akademik Bartold uni Turkiston o'lkasidagi "o'quv-tarbiya ishlariga isloh kirita olgan ilg'or ziyoli" deb atagan. U Rossiyaga sayohat qilib, "Turkiston viloyati" gazetasida "Mahalliy olimning 1910-yilda Moskva va Peterburgga qilgan ma'rifiy safari" sarlavhasi ostida turkum maqolalarni e'lon qilgan.

Mustamlaka ma'muriyati rus tilini o'rganishni targ'ib qilsa ham ana shu tilni yaxshi o'zlashtirgan va ruslar bilan yaqin aloqada bo'lgan mahalliy millat vakillariga shubha hamda hadik bilan qaragan. Shunday odamlardan biri o'zbek ziyolilari o'rtasida boobro` va e'tiborli, sobiq Kitob begi Jo'rabek qalandar qori o'g'li edi. 1886-yilgacha ruslar bilan jang qilgan, xiyonat tufayli asir olingandan so'ng esa rus armiyasiga xizmatga o'tishga majbur bo'lgan Jo'rabekka 1901-yili general-mayor unvoni berilgan. Millat fojiasining guvohi, mustamlaka istibdodining barcha qabohatlarini qariyb 30 yil general-gubernator mahkamasidagi tarjimonlik davrida ko'rgan-bilgan Jo'rabek iste'foga chiqqandan keyin mavjud tuzum muxoliflari rahnamalaridan biriga aylangan. 1902-yili akademik V. V. Bartold uning uyida bo'lganda iste'fodagi rus armiyasi generali Jo'rabek taniqli olimga o'zining Sharq qo'lyozmalari majmuini ko'rsatib, uni lol qoldirgan edi.

O'zbek jadidlari Turkiston xalq maorifiga jiddiy e'tibor berganlar. Bu sohada taniqli mudarris va ma'rifatparvar Munavvar qorining xizmati kattadir. Munavvar qori 1909-yildagi maslakdosh do'stlari Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida "Jamiyati hayriya"ni tashkil qildi. Munavvar qori va safdoshlari jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilar, o'quvchilarga yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullanadi. Munavvar qori guruhiga mansub keksa san'atkor Abdurahmon Akbarov o'z xotirasida shunday voqeani eslaydi: "Guruhdagi jadidlarning bosh rahbari bo'lgan Munavvar qori bir kuni to'daning majlisiga kelib: "Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o'qitish kerak", deb uzoq nutq so'zladi. Shundan keyin to'daning rahbarlaridan 7-8

kishi Orifxo'jaboyning yangi shahardagi hovlisida shu haqida birinchi marta majlis o'tkazdilar. Oradan chamasi 15 kunlar keyin Kattaxo'ja Xo'jayevning uyida ikkinchi marotaba katta yig'in bo'ldi. Bu majlisda Toshkentning eng mashhur boyonlari yig'ildilar. Buni tashkil qilishda ko'proq tashabbus ko'rsatgan Munavvar qori edi.

Turkiyaga borib ta'lim olgan yoshlardan biri, keyinchalik mashhur shoir, adib va olim Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat edi. Turkiyadagi turk yoshlarining "Turk o'chog'i", "Ijtihod va taraqqiy" tashkilotlari va boshqa siyosiy harakatlarning istiqlol xususidagi maqsad va maslagi ingliz va rus mustamlakachilari zanjirini uzib, butun musulmon mamlakatlariga tarqalgan edi. Ana shu tashkilotlar ta'sirida Buxoroda "Tarbiyayi atfol", (Bolalar tarbiyasi), Toshkentda "Turon" jamiyatlari vujudga kelgan edi.

O'zbek ma'rifatparvarlari qudratli guruhining faoliyati haqida rus maxfiy politsiyasi katta ma'iumot to'plagandi. U Turkistonda panturkizmni avj olishini istamas edi.

### **Tayanch iboralar:**

*Jadid, istiqlol. "Ustodi avval", panturkizm, tovush usuli.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Jadid maktablarining ta'lim mazmuni qanaqa?*
2. *Jadidlar istiqlol g'oyasining sababi nima edi?*
3. *"Ustodi avval"da qanday qiroat usuli bor?*
4. *Panturkizmning maqsadi nima?*
5. *Tovush usuli qanaqa bo'ladi?*



## XIX BOB


### TURKISTONDA XALQ MAORIFI YANGI TIZIMINING TASHKIL ETILISHI (1917-1924-yillar)

#### *1. Milliy pedagog kadrlar muammosi.*

1914-1918-yillardagi birinchi jahon urushidan ancha ilgari Rossiyada 2,5 milliondan ortiq gadoy va boqimsiz bolalar bo'lgan. Birinchi jahon urushi yillarida intervensiya va grajdanlar urushi yillarida bolalar o'rtasida boshpanasizlik yanada kuchayib ketdi. Bolsheviklar hukumati oldida bolalar boqimsizligiga qarshi kurashish vazifasi keskin bo'lib turgan edi. Yuz minglab bolalarni jismoniy halokatdan va ma'naviy buzilishdan qutqarish kerak edi. Buning uchun bolalar uylari tashkil etildi. 1921-yilning boshida-yoq respublikada 5000 bolalar uylari bo'lib, ularda 260 ming boqimsiz bolalar tayyorlandi. Keyingi yili bolalar uylarining soni 7815 taga, ularda tarbiyalanuvchilar soni esa 415 mingga yetdi.

Grajdanlar urushi yillarida O'zbekiston hududida boqimsiz bolalar soni ancha ko'paydi: Volga bo'yi, Qozog'iston va boshqa hududlardagi ocharchilik tu-fayli u yerlardan Turkistonga keluvchilarning ko'payishi munosa-bati bilan yetimlar soni yana ham ortdi. O'zbekiston territoriyasi-da bolalar uyi birinchi marta 1918-1919-yillarda ochildi; 1922-yil oxirida 88 ta bolalar uyi bo'lib, ularda 6000 dan ko'proq bola tarbiyalandi.

O'zbekistonga ocharchilik tufayli kelgan boqimsiz bolalarni mehribonlik uylariga joylashtirish.



1918-yildan boshlab rus bo'lmagan xalqlar yashaydigan joylarda maktablar va o'qartuv muassasalari tuzila boshladi.

Milliy pedagog kadrlar tayyorlash, milliy darsliklar nashr qilish, o'z yozuvi bo'lmagan xalqlar uchun esa, ularning tillarida alifbe tuzish yuzasidan katta ishlar boshlanib ketdi. O'zbekiston territoriyasida pedagog kadrlar masalasi juda qiyin ahvolda edi. Faqat 704 nafar o'qituvchi va bittagina pedagogika o'quv yurti - Toshkent shahrida o'qituvchilar seminariyasi bor edi.

Talab qilingan juda ko'p o'qituvchi kadrlarni tayyorlash uchun dastlab Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda qisqa muddatli kurslar ochildi. 1920-21-yillarda esa yuqori tipdagi o'quv yurtlari: O'zbek erlar dorulmuallimi, o'zbek xotin-qizlari va boshqa mahalliy millatlar uchun dorulmuallimlar ochildi. 1920-yilda Toshkentda K. A. Temiryazov nomida Oliy pedagogika o'quv yurti, Xalq Maorifi instituti ochildi (1920-yilda Toshkentda ochilgan O'rta Osiyo Davlat Universitetiga qo'shildi). Shunday qilib, 1918-1921-yillarda O'zbekiston territoriyasida pedagogika o'quv yurtlari tarmog'i yangidan yaratildi.

Turkiston hukumatining 1918-yil 14-iyul qaroridayoq: "Hamma darajadagi maktablar va idoralar maktablari endilikda o'qishni xohlovchilarning hammasi uchun ochilgan", - deb ta'kidlanadi. Rus bo'lmagan xalqlar uchun o'rta umumiy ma'lumot maktablarining ochilishi bolsheviklar hokimiyatining juda katta yutug'i bo'ldi. Turkistonda (O'zbekiston bu respublikaning bir qismi edi) maktab va o'quvchilar soni misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Chor hukumati davrida Turkistonda har yili uchtagina maktab yangidan ochilar va ularga 346 o'quvchi tortilar edi. 1917-1924-yillar davomida har yili 129 ta maktab yangidan ochilib, ularga 10700 dan ziyod o'quvchi jalb qilindi.

O'zbekiston territoriyasida umumiy ta'lim maktablarining soni 1914-1915-o'quv yilida 160 ta bo'lsa, 1924-yilda 907 taga yetdi, ya'ni, 5,7 marta ko'paydi, ularda o'quvchilar soni ham shu tariqa o'sdi, 17 299 dan 75 543 gacha yetdi yoki 4,4 marta ko'paydi. O'sha vaqtlarda o'rta maktablar ham 2 marta, o'quvchilar soni 2,5 marta ko'paydi.

## 2. Birinchi o'quv dasturlari.

Xalq maorifi komissarligi 1920-yilda maktablarning o'quv dasturlarini e'lon qildi. Keyinchalik, bu o'quv dasturlari mukammallashtirildi. Biroq maktablar uchun tuzilgan ana shu eng birinchi o'quv dasturlari chor hukumati va kapitalistik mamlakatlar o'quv dasturlaridan farq qiluvchi harakterli belgilari bor edi: 1) gumanitar, fizika-matematika va biologiya fanlari kiritilib, o'quv fanlarining xilma-xil bo'lishi; 2) til va adabiyot - 38 soat, matematika - 36 soat, ya'ni, eng ko'p o'quv soatlari berilishi; 3) tabiyot, fizika va ximiyaga ko'p soat berilishi (hammasi 48 soat); jismoniy tarbiya - 16 va san'atga 21 soat ajratildi.

Bolsheviklar hukumati katta qiyinchiliklarga qaramasdan, maktab ishini tashkil qilishga qaratilgan, xalq ommasi tomonidan har taraflama qo'llab-quvvatlagan tadbirlarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi. Mahalliy ziyolilarning eng yaxshi namoyandalari - yozuvchilar, pedagog-ma'rifatparvarlar - Hamza Hakimzoda, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, T. N. Qori Niyoziy va boshqalar xalq maorifi ishiga g'ayrat bilan qo'shildilar. Turkistonda mahalliy millatlardan yangi o'qituvchi kadrlar tayyorlash borasida juda katta ish olib borildi. Bu zaruriyat yana shu bilan taqozo qilingan ediki, eski maktab domla va mudarrislarining o'zlari hatto umumiy ta'lim beruvchi fanlarning asoslarini ham bilmas edilar. Ularning mafkurasi esa tamomila din bilan, feodal-monarxiya tizimiga ko'r-ko'rona itoat qilish ruhi bilan sug'orilgan edi. Yangi usul maktablarining o'qituvchilari esa burjua millatchiligi mafkurasidagi kishilar edi. Eski o'qituvchilardan ham yangi o'qituvchilardan ham hukumat maktabida foydalanish imkoniyati mutlaqo yo'q edi.

O'sha yillarda milliy pedagog tayyorlash formalari va metodlari juda xilma-xil edi. Respublikada pedagogika kurslari, bilim yurtlari va boshqa o'quv yurtlarining keng tarmog'i rivojlantirildi, mahalliy millatlar, yoshlarning ilg'or qismi shu sohaga jalb qilindi.

Quyidagi raqamlar o'sha yillardagi o'qituvchi kadrlar tayyorlash sur'atlaridan dalolat beradi. 1920-yilning sentabrigacha qisqa

muddatli pedagogik kurslarda, asosan, mahalliy millatlardan 1140 o'qituvchi tayyorlandi, 1522 kishi qaytadan o'qitildi. Bundan tashqari Turkistonda shu vaqtda yettita maorif instituti ochilgan bo'lib, ularda 1145 kishi o'qib turardi.

Qisqa muddatli kurslarda, yetuk pedagog kadrlar tayyorlash muammolarini hal qilib bo'lmasdi. Lekin shunga qaramay, bu kurslar mahalliy millatlardan yangi kayfiyatdagi yosh kadrlarni yetishtirishga ma'lum darajada hissa qo'shdi.

Turkiston respublikasi hukumat muassasalarining mehnat maktablarini rivojlantirish va mustahkamlash sohasidagi katta tashkilotchilik ishlari ko'p o'tmay sezilarli natijalar berdi. 1921-22-o'quv yiliga kelib o'lkada 2403 maktab va boshqa bolalar muassasalari mavjud bo'lib, ularda, asosan, mahalliy millatlardan bo'lgan 170105 bola o'qir va tarbiyalanar edi, bu esa Turkiston respublikasidagi hamma bolalarning 25% ini tashkil qilardi.

Shuningdek, o'rta maktablarda o'quvchilar soni tez sur'atlar bilan osha bordi. Masalan: agar 1910-yilda Turkistondagi o'rta maktablarda mahalliy aholining 96 ta bolasi (boy oilalarning bolalari) o'qigan bo'lsa, 1920-21-o'quv yilida yuqori tipdagi maktablarda tub yerlik millatlar o'quvchilarining soni unga nisbatan 10 barobardan ko'proq oshib, 994 kishiga yetdi.

Maktablarda ta'lim mazmunini o'zgartirishda va tarbiyaviy ishni yo'lga qo'yishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Ayni paytda diniy ruhga yil sayin barham berilib, eski maktabdan qolgan o'qitishdagi konservatizm, soxalistika va formalizm, ta'lim-tarbiya ishlaridagi quruqdan-quruq yodlatish, bolalarni qo'rqitish kabi pedagogikaga zid usullar tobora yo'q qilina borildi.

Yangi maktablarda dars ta'limning asosiy shakli bo'lib qoldi. Darsni o'tkazishga oid talablar oshirildi. Ko'p maktablarda o'quv ishlarining turli-tuman metodlari qo'llanila boshladi, o'quvchilarning bilim egallashga nisbatan aktivligi va qiziqishi oshdi, shuningdek, yalpisiga va guruhli ish shakllari vujudga kela boshladi.

O'sha vaqtlardagi o'qituvchilarning esdaliklaridan yangi maktablarning qanchalik muvaffaqiyat bilan rivojlangani va ular

qanday qilib shahar va qishloqlarning madaniy markazlariga aylana boshlaganligi ravshan ko'rinib turibdi. Maktablarda kunduzi bolalar, kechqurunlari esa katta yoshdagi kishilar o'qitilgan. Shu bilan birga aholi orasida jaholatga, diniy xurofotlar va bid'atlarga qarshi qaratilgan katta siyosiy-ommaviy va oqartuv ishlari olib borilgan.

**Tayanch iboralar:**

*Bolalar uyi, milliy pedagog, seminariya, dorulmuallim umumiy ta'lim maktabi, o'quv dasturi.*

**Nazorat savollari:**

1. *Bolalar uyi qanday maskan?*
2. *Milliy pedagog kim?*
3. *Seminariyada qanaqa ta'lim mazmuni bor?*
4. *Dorulmuallimda-chi?*
5. *O'quv dasturi nima?*

## XX BOB

### O'ZBEKISTONDA XALQ MAORIFINING RIVOJLANISHI (1924-1930 yillar)

#### *1. To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar.*

O'zbekistonda mehnat maktabi dastlabki vujudga kelish va rivojlanish yillarida maktab ta'limi mazmuni, asosan, o'lkashunoslik xususiyatiga ega edi. Chunki o'sha vaqtda davlat majburiy ta'lim dasturlari hali yo'q edi. O'zbekiston hukumati 1930-yil 15-sentabrda "Respublika bolalar va o'smirlar umumiy majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. Qarorda bunday deyiladi:

1. 1930-31-o'quv yilidan boshlab 8 yoshdagi bolalar uchun, shahar va ishchi posyolkalarida esa 8-9 va 10 yoshdagi bolalar uchun umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilinsin.

2. 1929-30-o'quv yilida birinchi bosqich maktablarida o'qigan va keyingi yillarda ularga yangidan kirgan maktab yoshidagi (8-10 yoshdagi) bolalarning maktabda o'qishni oxirigacha (beshinchi gruppani bitirgunicha) majburiy davomati belgilansin.

3. 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan savodsiz o'smirlar uchun maxsus bir yillik, 2-3 yillik o'smirlar maktablarida majburiy ta'lim belgilab qo'yilsin.

Qarorda rahbariyat zimmasiga o'quvchilarga yordam ko'rsatish uchun byudjetdan maxsus fondlar ajratish, mayda millat bolalari uchun o'quvchilarni ona tilida o'qitiladigan maxsus guruhlari va maktablar yaratish, qishloq rahbariyati qoshida umumiy boshlang'ich ta'limga yordam qo'mitalari tashkil qilish vazifalari yuklandi.

Keng mehnatkashlar ommasi tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan mazkur tadbirlar respublikada maktab ishini yanada rivojlantira borish yo'lini ma'lum darajada belgilab berdi.

Respublika hukumati huzurida umumiy boshlang'ich ta'lim komiteti tuzildi; bu komitet shu qarorni amalga oshirish yuzasidan nazorat ishlarini olib bordi.

O'zbekiston hukumati 1931-yil 1-dekabrda "O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi to'g'risida" qabul qilgan qarorida xalq maorifi xodimlariga ta'lim tizimini tartibga solish, boshlang'ich maktab bilan o'rta maktab o'rtasida ko'rina boshlagan tafovutni tugatish taklif etildi. Qarorda jumladan, bunday deb ko'rsatilgan:

"1) 8 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni maktabga jalb qilish uchun majburiy 4 yillik ta'lim kursi bo'lgan birinchi bosqich boshlang'ich maktab rivojlantirilsin.

2) 4 yillik mehnat boshlang'ich maktabi majburiy yetti yillik mehnat maktabi ta'limiga o'tish tadbiri bo'lmog'i kerak".

Bu qaror chiqarishning sababi shuki, qishloq boshlang'ich maktablarida bolalarni o'qitish ko'pincha ikki-uch yil bilan cheklanib qolardi, bu esa bolalarni yetti yillik maktablarda o'qishni davom ettirish imkoniyatidan mahrum qilardi. Qat'iy to'rt yillik ta'limga o'tish boshlang'ich maktab ishida ana shu jiddiy yetishmovchilikni bartaraf qildi va yetti yillik ta'limni kengroq rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratdi.

To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar soni O'zbekistonda 1924-yildagi 40 tadan 1928-29-o'quv yilida 119 taga yetdi, ya'ni, uch marotaba ko'paydi, ularda o'qiyotganlar soni esa 18,9 mingdan 44,2 mingga yetdi, ya'ni, 2,3 marotaba ko'paydi.

Milliy rayonlarda yuqori tip maktablarining o'sishi mahalliy millat yoshlaridan intelligent kadrlar tayyorlash (o'qituvchilar, vrachlar, san'at kishilari, muhandislar va shu kabilar)dek jiddiy masalani hal etishga kirishish uchun imkon berdi. Tasvir qilina-yotgan davrda O'zbekistonning madaniy hayotida muhim bir hodisa ro'y berdi, bu hodisa respublikaning madaniy yuksalishida zo'r ahamiyatga ega bo'ldi: 1928-yil O'zbekiston hukumati qaroriga muvofiq "vaqf maktablari" deb atalgan qisman isloh qilingan musulmon maktablari tamoman tugatildi. Ular, asosan, respublikaning g'arbiy qismidagi sobiq Buxoro va Xiva xonligi terri-toriyalarida edi. Ana shu yildan boshlab O'zbekistonning hamma maktablari, haqiqiy davlat maktablari bo'lib qoldi.

Shu davrda respublikaning shaharlarida va ilg'or rayonlarida o'g'il va qiz bolalar ayrim-ayrim o'qiydigan maktablar bilan bir

qatorida o'g'il va qiz bolalar birga o'qiydigan maktablar ham ochila boshladi. 1926-27-o'quv yilida Farg'ona vodiysida 56 ta o'zbek maktabida o'g'il va qiz bolalar birga o'qidi. Bu maktablarda 5000 o'quvchidan 1438 tasi qizlar edi. Bu hol o'zbek xotin-qizlarining ozodlikka chiqishi yo'lida g'oyat katta qadam bo'ldi. 1929-yildan boshlab g'oyat qiyin arab alifbosiga asoslangan hamda eskirib qolgan o'zbek alifbosi o'rniga lotin grafikasi asosida ishlagan yangi o'zbek alifbosi joriy qilina boshladi.

Pedagogika ta'limi yanada o'sdi: 1924 yili O'zbekistonda O'rta Osiyo Davlat Universitetidan boshqa 7 ta dorulmuallimin va oltita pedagogika bilim yurti bo'lib, ularda 1775 o'quvchi o'qirdi, keyinchalik, pedagogika bilim yurtlariga texnikum deb nom berildi. 1928-29-yilda oltita pedagogika texnikumi ochildi. 1927-yilning yanvar oyida Samarqand shahrida Oliy pedagogika intituti ochildi. 1933-yili shu institut ba'zasida Samarqandda O'zbekiston Davlat Universiteti tashkil etildi. Shunday qilib, O'zbekistonda 1928-yilda 19 ta pedagogika texnikumi, bitta oliy pedagogika o'quv yurti bor edi.

## **2. SB va CHSB maktablari tarixi.**

Savodsizlik O'zbekistonda zo'r g'ayrat bilan tugatildi. 1929-1930-o'quv yilida 10446 ta savodsizlikni bitirish va chalasavodlikni bitirish maktablari ochildi. Ularda 359900 kishi o'qidi. Bir yildan keyin bu maktablarning soni 13533 taga, ularda o'qiyotganlar soni esa 590252 kishiga yetdi.

Lotin harflari asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosini qo'llash joriy qilinishi bilan savod o'rgatish metodlari ancha osonlashdi. 1932-yilda lotin harflari asosidagi yozuv bo'yicha O'zbekistonda savodlilar 52%, 1939-yilda esa 67,8 % bo'lib qoldi. Holbuki, 1925 yilda arab yozuvi asosidagi alifbe bo'yicha respublikada savodlilar faqat 7 % gina edi.

Xalq orasidagi bilimga intilishning o'sishiga javoban 1927-yildan boshlab savodsizlikni bitirish bilan bir qatorida chala savodlilarni ommaviy o'qitish ishlari kuchaytirildiki, bu savodsizlik qaytalanishining oldini olishga yordam berdi.



Savodsizlik va chalasavodlikni bitirish uchun tadbirlar bilan bir qatorda O'zbekiston hukumati majburiy boshlang'ich ta'limni kiritishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Chunki O'zbekistonga maorif ishlari uchun ajratilgan mablag' yana ham ko'proq edi. Masalan: 1924-25-o'quv yilida xalq maorifi ehtiyojlari uchun 8,9 million so'm, 1926-27-o'quv yilida 15,7 million so'm, 1928-29-o'quv yilida esa 28,5 million so'm, ya'ni, 1924 yilga nisbatan 3,2 marta ko'proq sarflandi. Bu respublikada maktablar tarmoqlarining tez sur'at bilan o'sishiga imkon berdi.

### **Tayanch iboralar:**

*To'liqsiz o'rta, o'rta maktab, majburiy boshlang'ich ta'lim, savodsizlikni bitirish, chala savodlikni bitirish.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Qanaqa maktablar to'liqsiz o'rta maktablar deyiladi?*
2. *Qanaqasi o'rta maktab?*
3. *Majburiy ta'lim deganda nimani tushunasiz?*
4. *Savodsizlikni sharhlang.*
5. *Nega chala savod deymiz?*

## XXI BOB

### O'ZBEKISTONDA UMUMIY MAJBURIY TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH UCHUN KURASH (1931-1941-yillar)

#### *1. O'quv rejalari, dasturlari va darsliklari.*

Biz ko'rib chiqayotgan davrda maktablar avvalgi yillardan farq qilib, majburiy davlat ta'lim dasturi asosida ishladilar.

Dastur mualliflari o'rganilishi lozim bo'lgan barcha materiallar hajmini ayrim o'quv fanlari bo'yicha qo'yishdan bosh tortdilar. O'rganish uchun belgilangan barcha bilim hajmi tabiat, mehnat va kishilik jamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarning birlashgan kompleksi tarzida taqdim etildi. Shuning uchun ham GUS (Davlat Ilmiy Soveti)ning dasturi asosida "kompleks dastur" deb yuritdilar.

Birinchi bosqich maktab o'quv materiallari 3 ta vertikal kolonka bo'yicha joylashtirilar edi: "tabiat", "mehnat" va "jamiyat". U konsentrik doiraga o'xshab sekin-asta kengaya bordi. Masalan, birinchi sinfda bolalarning oiladagi va maktabdagi hayoti masalalari o'rganiladi, ikkinchi sinfda - qishloq, so'ngra rayon, guberniya, respublika (va hokazo) hayoti masalalari o'rganiladi.

Ikkinchi bosqich maktablar (V-IX sinflar) uchun ham kompleks dasturlar o'sha uchta guruh bo'yicha tuzilardi. Lekin ular-dagi materiallarning mazmuni ancha keng yoritilgan edi.

Jumladan, birinchi guruh sarlavhasi ostida quyidagilar aytilgandi. 1) "Tabiat, uning boyligi va kuchi bu kuch va boylıklarning odam tomonidan foydalanishi"; 2) "Kishilarning mehnat faoliyati"; 3) "Ijtimoiy hayot".

Birinchi guruhda fizika, ximiya, biologiyadan bir-biri bilan logik jihatdan bog'lanmagan ma'lumotlar, yerning tuzilishi to'g'risida - moddiy madaniyat tarixidan, koinot to'g'risida ba'zi bir ma'lumotlar joylashtirilgan edi.

Ikkinchi guruhga ishlab chiqarishning turli sohalaridan texnika, ishlab chiqarishni uyushtirish, mehnat tarixidan ma'lumotlar kiritilgandi.

Uchinchi guruhda jamiyatni o'rganish harakteridagi materiallar va tarixdan ba'zi bir ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, til, adabiyot, matematika ham kompleks mavzu tevaragida va unga bog'liq holda o'rganilishi kerak edi.

## **2. Dalton - plan metodi.**

Biroq shu yillarda o'qituv metodlarida ko'pgina qo'pol xatolar va yangiliklar ham bo'ldi. Amerika qo'shma Shtatlarida burjuaziyaning tarbiya maqsadlarini amalga oshirish uchun o'rnatilgan "Dalton-plan" deb atalgan metod tashviqot qilindi va ba'zi bir maktablarda qo'llanila boshladi.

Dalton laboratoriya plani bo'yicha o'rganishi lozim bo'lgan barcha dastur materiallari qismlarga-topshiriqlarga taqsimlanar edi. O'qituvchi har bir qism bo'yicha qisqacha yozma topshiriq tuzardi, bu topshiriqda o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar ifodalanar va o'quvchilar topshiriqqa qo'yilgan savollarga javob topa olishlari uchun manbalar ko'rsatilardi. O'quvchilar yozma topshiriqlarga amal qilib, yakka yoki 3-5 kishidan iborat brigada bilan mustaqil ravishda ishlar edilar, so'ngra topshiriqning bajari-lishi haqida o'qituvchiga qisqacha hisob berar edilar.

Maktablarda "Dalton-plan" laboratoriya ishining qo'llanilishi sinf-dars tizimini buzilishiga, darsning yo'q bo'lishiga olib keldi. Sinf-dagi ishlar yoki alohida ishlar, brigada bilan chalkashtirildi. Bu keng xalq ommasini bilimga bo'lgan intilishini tugata boshlar-di. Bu soxta metod "maktab", "ta'lim", "tarbiya" degan tushun-chalarni ilmiy faraz sifatida tushunmay, shu davr hukumatining yoshlarning, mehnatkashlarning aql-zakovatini ko'rsatmaslikni, ularning yana soxalistika botqog'iga botishini nazarda tutgan metod edi. Hukumat bunday metodning mazmunini ochib tashlab, uni maktab amaliyotidan chiqarib tashladi.

## **3. Xalq maorifi tizimida pedalogiya huzuqliklariga qarshi kurash.**

Biz o'rganayotgan davrda maktablarda o'quv-tarbiya ishlari-ning yaxshilashga pedaloglar to'sqinlik qilgan edilar. Ular bola-larni o'rganish, maktabga qabul qilish masalasini hal etishni o'zlariga monopoliya qilib olishga uringan edilar.

Hukumatning 1932-yil 25-avgustdagi maxsus qarorida o'qi-tuvchilar o'quv-tarbiya jarayonida har bir o'quvchini diqqat bilan o'rganishlari kerak, deb berilgan ko'rsatmalariga qaramasdan, pedaloglar o'qituvchilarni bu ishlardan chetlatdilar. Bolalarning aqliy taraqqiyotini tekshirishda sun'iy soxta fan yo'llari bilan

ma'nosiz va zararli anketalar, "testlar" va shu kabilarni qo'llay boshlagan edilar.

Pedagogika institutlarida pedalogiya alohida fan sifatida o'rganilardi. Bir qator institutlarda mutaxassis-pedaloglar tayyorlaydigan pedalogiya fakultetlari ham bor edi. Pedaloglar o'qituvchilarning ishlariga aralashdilar, ularning obro'sini tushirdilar, bolalarni har tomonlama o'rganishlariga va, umuman, ularning faoliyatiga halaqit berdilar, bolalarni o'rganish va aqliy o'sish, iste'dod darajasini aniqlashda katta huquqqa ega ekanliklarini da'vo qildilar. Pedaloglar o'qituvchidan ajralgan hol-da ish olib bordilar... Ular fanga xilof eksperimentlarni qo'lladilar. Shu bilan birga pedaloglar qo'llab kelgan tekshirish usullarining buzuvchiligi oqibatida normal bolalarni "qoloq", "kamchilikka ega", "tarbiyasi qiyin" bolalar kategoriyasiga kiritar hamda ularni shunday bolalar tarbiyalanadigan maxsus va yordamchi maktablarga yuborib, ularning o'z kuch va qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotar edilar.

Hukumatning 1936-yil 4-iyuldagi "Xalq maorifi tizimida Pedalogiya buzuvchiliklari to'g'risida" deb chiqargan qarorida pedalogiyaning zararli faoliyatini fosh etdi va ular soxta fan, noilmiy fikrlarga asoslanadilar, deb ko'rsatdi. Bularga hammadan burun pedalogiyaning bosh "qonuni" - bolalar taqdirining biologik va sotsial faktorlar bilan nasl va qandaydir o'zgarimas muhit ta'siri bilan fantastik shartlash qonuni kirdi. Mana bu o'ta ketgan antiilmiy, reaksiyon "qonun"ga suyangan pedaloglar tarbiyaning inson rivojlanishidagi g'oyat katta ahamiyatini pasaytirib yubordilar.

Hukumat bu qarorida pedalogiya buzuvchiliklarini tugatib: "pedagogika va pedagoglarning huquqlari tiklansin va shu maqsad-da bolalar to'g'risidagi haqiqiy ilmiy fan bo'lgan pedagogikaning ravnaqi uchun sharoit tug'dirilsin", - deb talab etdi.

#### ***4. Rus alifbosiga o'tish.***

Umumiy boshlang'ich majburiy ta'limni joriy qilishda milliy o'lkalarda, jumladan, O'zbekistonda ham anchagina qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keldi. Chunki, shu davrda O'zbekiston xalqlari o'rtasida savodsizlik foizi, chorizmning asrlar bo'yi olib

borgan reaksiyon siyosati oqibatida juda yuqori edi. Milliy intelligensiya kadrlari yo'q darajada edi. Hukumatning Sharq xalqlarini ma'rifatli qilishdagi, ayniqsa, maktablarga qizlarni tortishdagi tadbirlariga mullalar, din peshvolari zimdan qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Ona tilida ta'lim berish uchun ona tilida darsliklar yaratish kerak edi.

Bir qator rus bo'lmagan xalqlarning maktablari uchun lotin grafikasini krill grafikasi bilan almashtirishilishi yoki lotin alifbesi o'rniga endi rus alifbesini joriy etilishi katta voqea bo'lishi bilan yana bir marotaba savodli xalq savodsiz bo'lib qoldi.

O'zbekistonda lotin harflari asosidagi alifbedan rus grafikasi asosida ishlangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish 1940-yilda amalga oshirildi.

O'zbekiston maktablarida 1938-yilning 1-sentabridan boshlab, rus tili majburiy o'qitish rejasiga kiritilgan edi. Rus tili ikkinchi sinflarning ikkinchi yarim yilligidan shunday hisobda o'qitila boshladiki, o'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatganlarida rus tilining og'zaki va yozma nutqini to'la ravishda bilib olishlari nazarda tutilgandi.

### **Tayanch iboralar:**

*O'quv reja, dastur, darslik, "Dalton-plan" metodi, pedagogiya, rus grafikasi.*

### **Nazoart savollari:**

1. *O'quv rejasi nima?*
2. *O'quv dasturida nimalar bayon qilinadi?*
3. *Darslikda nima yoritiladi?*
4. *"Dalton-plan" metodini sharhlang.*
5. *Rus grafikasiga nima uchun o'tildi?*

## XXII BOB

### 1941 – 1958 YILLARDA XALQ MAORIFI

#### *1. Urush yillarida xalq maorifi.*

Urush yillarida respublikaning butun xalq xo'jaligi harbiy izga solindi va dushman ustidan g'alaba qozonishga bo'ysundirildi. Rossiya Yevropa qismining g'arbiy hududlarida, Ukraina va Belorussiyada dushmanga qarshi muddatli janglar olib borilayotgan bir paytda mamlakatning shu qismlaridan juda ko'p bolalar O'zbekistonga ko'chirib kelingan edi. Ularning ko'plari otalaridan ajragandilar. O'zbek xalqi bu bolalarni mehribonlik bilan o'z quchog'iga oldi va g'amho'rlik qildi.

1942-yilning oxiriga kelib, O'zbekistonda evakuatsiya qilingan 716 ming katta yoshlilar va bolalar joylashgan edi. O'tonasiz qolgan bolalarning ko'pchiligi to'g'risida g'amxo'rlik qilindi, bolalar uylari keng tarmog'i vujudga keltirildi. 1943-yilda O'zbekistonda 154 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda tarbiyalanuvchilar kontingenti 21784 kishidan iborat edi.

1945-yilda bolalar uylari soni 242 taga yetdi, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni esa 31500 kishini tashkil etdi.

Ayni zamonda maktablar ichida qiyinchiliklar juda ko'p edi. 1941-1942-yillarda urushdan oldin qurilgan 360 shahar maktab binosi, respublikaga ko'chirilib keltirilgan harbiy korxonalar, gospital uchun ishchilar yotoqxonolari va urush bilan bog'liq bo'lgan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirildi. Shu munosabat bilan ko'pgina shahar maktablari ishni uch smenada tashkil qilishga majbur bo'ldilar.

Urushning og'ir sharoitlari respublikada maktablar va o'quvchilar sonining kamayib borishiga sabab bo'ldi. Urush yillarida O'zbekiston maktablari 4797 tadan 4470 taga qisqardi, o'quvchilar kontingenti esa, 1 223 369 kishidan 895 975 tagacha, ya'ni, 327 393 kishi kamaydi. Urush davrining o'sha sharoitlarida mavjud maktablar tarmog'iga ba'zi o'zgarishlar kiritildi: yetti yillik va o'rta maktablarning soni kichkina maktablar sonining birmuncha qisqarishi hisobiga oshdi. Shu munosabat bilan yetti yillik mak-

tablar tarmog'i 1940-1941-o'quv yilidagi mavjud bo'lgan 490 tadan 852 taga yetdi.

Urush yillari umumiy ta'lim maktablarining IV, VII va X sinflarini bitirib chiqqan o'quvchilar haqidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, urushning oxiriga kelib boshlang'ich, yetti yillik va o'rta maktablarni bitirib chiquvchi o'quvchilar soni umumiy kamayish tendensiyasini ko'rsatsa, qishloq maktablarida esa bitirib chiquvchi o'quvchilar soni yanada ko'proq kamaya borganligi kuzatiladi. Urushning oxirgi yilida qishloq maktablarining VII sinflarini bitirib chiquvchilar soni ikki baravardan ko'proq, X sinfni bitirib chiquvchilar esa taxminan ikki baravar kamaygan edi.

Urush yillarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash eng dolzarb muammo edi. 1940-1941-o'quv yilida maktablarda ularning umumiy soni 36 267 kishidan 1942-1943-o'quv yilida 30 616 kishigacha, ya'ni 5651 kishi kamaydi.

Frontga ketgan o'qituvchilarni o'rnini to'ldirish uchun, asosan, o'zbek xotin-qizlaridan maktablar uchun o'qituvchilar va bolalar uylari uchun tarbiyachilar tayyorlash maqsadida qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Shu bilan birga oliy va pedagogika o'quv yurtlarida pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berildi. 1944-yilda Urgench va Nukus shaharlarida ikkita yangi pedagogika instituti, Marg'ilon va Namangan shaharlarida ikkita o'qituvchilar instituti, shuningdek, beshta pedagogika bilim yurti tashkil etildi.

Respublika Universitetlari, pedagogika va o'qituvchilar institutlarida talabalar soni 1944-yilda 6193 kishiga, pedagogika bilim yurtlarida o'quvchilar soni 4779 kishiga yetdi.

Respublika pedagogika o'quv yurtlarida yosh mutaxassislar tayyorlash soxasida to'xtovsiz davom etayotgan ish va mamlakatning vaqtincha bosib olingan hududlaridan ko'chirib kelingan o'qituvchilardan foydalanish, maktablarni malakali o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashga imkon berdi. Endi 1944-yilda respublika maktablaridagi o'quvchilar soni 1940-yildagi darajasiga nisbatan 2198 kishiga ortdi va u 38112 kishini tashkil qildi. Oliy

ma'lumotli va to'liqsiz oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni esa 1940-1941-o'quv yilidagi 8795 kishidan 1944-1945-o'quv yilida 10147 kishigacha ko'paydi.

Bundan tashqari, respublikada sirtidan o'qish tizimi va qisqa muddatli kurslarda o'qituvchilar tayyorlash borasida katta ishlar olib borildi. 1944-yilda turli kurslarda 5 000 dan ziyod o'qituvchilar o'qir edilar. Oliy o'quv yurtlari va pedagogika bilim yurtlaridagi sirtqi ta'limga 15 000 kishi jalb qilingandi. "Biz urush bilan qanchalik band bo'lishimizga qaramasdan, - deb yozilgan edi gazetalardan birida, - bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolaverdi. Biz barcha bolalarni o'qitmog'imiz, urush davrining murakkabligiga qaramasdan yaxshi o'qitishimiz kerak."

O'rta maktabning qariyb hamma o'quv fanlaridan rus grafikasi asosida darsliklar nashr etildi. Rus tilida va o'zbek boshlang'ich sinflari uchun, o'zbek tilida rus maktablarining IV-V sinflari uchun yangi dasrliklar yaratildi va chop etildi.

## ***2. O'quvchilarning safarbarlikdagi ishtiroki.***

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda paxta dalalarida, ipak qurti boqishda, qishloq xo'jalik zararkunandalari va begona o'tlarga qarshi kurashda dehqonlarga katta yordam ko'rsatdilar, sanoat korxonalarida ishladilar, temir-tersak yig'dilar, tank va samolyotlar qurilishiga mablag', frontdagi jangchilarga sovg'alar to'plashda qatnashdilar, boquvchilari frontga ketgan oilalarga otaliq qildilar.

Shu fakt ham diqqatga sazovordir: O'zbekiston o'quvchilari 1942-yilning iyunida Volgograd bolalari uchun 30 vagon oziq-ovqat, ust-bosh va oyoq kiyimlar yubordilar. 1943-yilda esa ular Sankt-Peterburg bolalariga 20 vagon oziq-ovqat va kiyim bosh yubordilar.

1941-yilning yozida shahar va qishloq maktablarining o'quvchilari, yuqorida qo'rsatib o'tilganidek, qishloq xo'jalik ishlarida juda aktiv qatnasha boshladilar. Mana shunday faktlar ularning mehnatda ko'rsatgan g'oyat katta tashabbuskorligidan dalolat ber-



di: o'quvchilar 1942-yilning o'zida 15 milliondan ko'proq mehnat kuni ishlab, mehnatga qodir 54 ming kolxozchi o'rmini bosdilar.

1944-yilda O'zbekiston dalalarida 325 125 o'quvchi ishladi, ularning ishlagan mehnat kunlari 20 million 793 mingga yetdi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, o'qishning past darajada tashkil etilishidan 1941-1942-o'quv yilida bir sinfda ikki yil qolgan o'quvchilar 7,3%ni, 1944-1945-o'quv yilida 14,4%ni tashkil etgan, ya'ni ikki barobar ko'paygan.

### **Tayanch iboralar:**

*Evakuatsiya qilingan, bolalar uylari, kontengent, darsdan tashqari, mehnat kuni.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Evakuatsiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Bolalar uylarida kimlar yashaydi?*
3. *Kontengent nima?*
4. *O'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda nima bilan shug'ullandilar?*
5. *Mehnat kuni nima?*

## XXIII BOB

### 1959-1969 YILLARDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING RIVOJLANISHI


#### 1. O'zbekistonda xalq maorifi taraqqiyoti.

O'zbekistonda xalq maorifining taraqqiyoti va maktablar qurilishi xo'jalik va madaniyat qurilishi bilan mahkam bog'liq holda amalga oshirila boshladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, urush davrida maktablar tarmog'i qisqardi va o'quvchilar soni ancha kamayib ketdi. Ko'pgina bolalar turli sinflarni tashlab ketdilar. O'sha yillarda yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablarni o'z vaqtida ta'mirlanmaganligi tufayli ko'p maktab binolari o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilmagan, gigiyena talablariga muvofiq kelmasdi.

Bundan tashqari, maktablarga yangi o'quv jixozlari oz berildi, urushdan ilgariji jihozlarning aksari yaroqsiz bo'lib qolgan edi. Buning ustiga o'quvchilarning bir qismi, ayniqsa, urush yillarida qisqa muddatli turli kurslarda bilim olib, uzoq qishloqlarda ishlaganlari o'zlarining umumiy ma'lumot darajasi va metodik tayyorgarligi jihatdan urushdan keyingi davrda maktab oldiga qo'yilgan vazifalarga munosib bo'lmay qoldi.

#### 1958-59 o'quv yilida maktabni tashlab ketgan o'quvchilar soni (sinflar bo'yicha)



Yuqorida qayd etilgan jiddiy qiyinchiliklar natijasida o'quvchilarning o'zlashtirishi keskin suratda, pasaydi. Bir sinfda ikki yil qolgan o'quvchilar soni esa tobora ko'paya bordi: 1945-46-o'quv yilida respublika maktablarida bir sinfda ikki yil qolgan 209,9 ming o'quvchi bor edi (1940-41-o'quv yilidagiga nisbat 2 marta ko'proq). 1946-47-o'quv yilida 270,9 ming, 1947-48-o'quv yilida esa bu son bir oz kamayib, 204,4 mingga tushdi.

Shuningdek, urushning og'ir oqibatlarini yaqqol ko'rsatadigan yana bir misol shuki, respublika umumiy ta'lim maktablari tarmog'i va ulardagi o'quvchilar soni urushdan keyingi yillar davomida (1945-46-o'quv yilidan 1950-51-yiligacha) 1940-41-o'quv yili darajasidan pastroq edi, shu bilan birga juda sekin suratlar bilan rivojlandi. Faqat 1949-50-o'quv yilida maktablar umumiy tarmog'ining rivojlanish darajasi urushdan ilgarigi 1940-41-o'quv yilida erishilgan darajaga yetdi.

1950-51-yildan e'tiboran boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar soni urushdan ilgarigi yillardagiga qaraganda kamayib qolgan edi, chunki urush yillarida tug'ilish ozaygandi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda o'quvchilarning maktabni tashlab ketishi, garchi bir muncha kamaygan bo'lsa ham, har holda davom etaverdi: 1945-46-o'quv yilida 72,4 ming o'quvchi (8,1%), 1946-47-o'quv yilida 82,1 ming (8,2%), 1947-48-o'quv yilida 81,1 ming (7,7%) o'quvchi maktabni tashlab ketdi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda yetti yillik umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishdagi eng katta kamchilik o'quvchilarni maktabni tashlab ketib qolishlari edi.

Xalq maorifi organlarining o'quvchilar sonini saqlab qolish va maktabni tashlab ketishni kamaytirish borasida katta ishlar olib borganiga qaramay, baribir, ayniqca, V-X sinflar bo'yicha maktabni tashlab ketuvchilar hamon ko'p edi. Masalan: 1958-59 o'quv yilida I-IV sinflar bo'yicha 757038 o'quvchidan 19217 tasi, V-VII sinflar bo'yicha 349236 o'quvchidan 17900 tasi (5,1%), VIII-X sinf bo'yicha 197245 o'quvchidan 21453 tasi (10,9%) maktabni tashlab ketgan edi.

O'quvchilar maktabni tashlab ketishlarining asosiy sabablaridan biri bir sinfda ikki yil qolishi edi. Bir oz o'tgach o'quv-tarbiya ishlarining yaxshiroq yo'lga qo'yilishi tufayli maktablarda o'zlashtira olmaydigan va bir sinfda ikki yil qolgan o'quvchilar soni tobora kamaya bordi. Agar 1952-53 o'quv yilida 161,6 ming o'quvchi (13,3%) ikkinchi yilga qolgan bo'lsa, 1958-59 o'quv yilida bir sinfda ikki yil qolgan o'quvchilar soni kamayib, 112,2 mingni (8,5%) tashkil etdi.

O'tmishning boy-feodal sarqitlaridan qutilmagan aholi ba'zi qismining turli bahonalar bilan bolalarini maktabga yubormasligi xalaqit berardi.

O'zbekistonda garchi 1949-yildan yetti yillik umumiy majburiy ta'lim joriy qilingan bo'lishiga qaramay, bir necha yil davomida qonuniy tartibda rasmiylashtirilmagan edi. Bu umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishni jiddiy qiyinlashtirdi.

## ***2. Urushdan keyingi yillarda kechki ta'limning rivojlanishi.***

O'zbekiston hukumatining 1950-yil 22-avgust qarori eng muhim qarorlardan biri edi. Kechki ta'limga shu yilda, ya'ni, 1950-1951-o'quv yilida kamida 15500 ishchi-yoshlarni va ishchi ayollarni, ishchi-yoshlar maktablariga ham kamida 41 ming yosh kolxozchi va kolxozchi ayollar, urushdan keyingi yillarda yoshi o'tib qolgan, ishlovchi yoshlar ta'limini tashkil etish kun tartibidagi muammo bo'lib turardi. Shu jihatdan xotin-qizlarni qishloq yoshlari maktablariga jalb qilish nazarda tutilgan edi.

Boshlang'ich va yetti yillik ma'lumotga ega bo'lmagan 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yosh kolxozchilarni 1950-yil birinchi oktabrgacha hisobga olib chiqildi va shu asosida kechki maktablar tashkil etildi. Shu bilan birga kechki qishloq yoshlari maktablarining ishi qattiq nazorat ostiga olindi.

Ish boshlangan 1946-47-o'quv yilida Respublikada 64 ta maktab mavjud bo'lib, ularda 8155 kishi o'qigan bo'lsa, 1958-59-o'quv yiliga kelib 164 maktabdagi o'quvchilar soni 28492 kishiga yetdi.

Shahar va qishloq kechki maktablarining VII-X sinflarini bitiruvchilari soni yil sayin osha bordi. Agar 1945-1946-o'quv yilida ishchi-yoshlar maktablarining VII sinflarini 430 kishi, X sinflarini esa 258 kishi tamomlagan bo'lsa, 1958-1959-o'quv yilida 2564 kishi VII sinflarni, 612 kishi esa X sinflarni bitirib chiqdi. Shuni aytib o'tish o'rinliki, 1945-yildan 1954-yilgacha qishloq maktablarining X sinflarini bitiruvchilar hali juda oz sonni tashkil etardi, ularning soni 1954-55-o'quv yilidan boshlab muntazam oshib borgan edi: 1954-55-o'quv yilida maktabni 968 kishi bitirib chiqdi. 1958-59-o'quv yilida esa ularning soni 2754 taga yetdi.

1954-1959-yillar ichida kechki ishchi-yoshlar va qishloq yoshlari maktablarining VII sinflarini 40398 kishi, X sinflarini esa 44966 kishi tamomladi.

Keyingi yillarda shahar va qishloq kechki maktablarining ishi davom etdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakli, 1956 yilda o'zbek tili orfografiyasi qoidalarining unifikatsiya qilinishi o'quvchilarning savodlilikini oshirish uchun kurashda jiddiy ahamiyat kasb etdi.

O'zbek maktablarida kutubxonalar ishini tubdan yaxshilinishi 1960-70-yillarda kechki ta'limning rivoj topishi bilan maktablarda savodxonlikni oshishiga olib keldi.

### **Tayanch iboralar:**

*Kechki maktab, qishloq kechki maktabi, yetti yillik ma'lumot, to'liqsiz ma'lumot, o'quv jihozlari.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Kechki-yoshlar maktabining maqsadlari nima?*
2. *Kechki qishloq maktabining maqsadlari nima?*
3. *Yetti yillik majburiy ta'limni sharhlang?*
4. *To'liqsiz ma'lumot nimani anglatadi?*
5. *O'quv jihozlari ta'lim vositasi bo'ladimi?*

## XXIV BOB

### O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMI MAZMUNINING UMUMIY XUSUSIYATLARI (1970-1991-yillar)

1970-o'quv yilidan boshlab, uzoq yillar foydalanib kelingan o'quv reja va dasturlarga zamon talablari hisobga olingan holda ba'zi yangiliklar kiritila boshladi. Ana shulardan biri rus grafikasi-dagi jimjimador Pudovkin V. S. koligrafiyasidan, yangi osonroq rus yozuvidagi koligrafiyaga o'tildi. Dasrlik va o'quv qo'llanmalarni yangi dastur asosida yozish boshlandi.

O'quv rejasida o'quvchilarni ortiqcha ish bilan band qilib qo'yishni yo'qotish maqsadida, o'rta umumiy ta'lim maktabining o'quv rejasida I-IV sinf o'quchilari haftalik o'quv yuklamasi 24 soat, V-X sinflarda esa 30 o'quv soati qilib belgilandi.

O'zbekiston maktab ta'limi mazmunining umumiy xususiyatlaridan biri ko'p millatliligidadir. O'qituvchi va ota-onalarinng istagiga muvofiq respublika umum ta'lim maktablarida o'qish o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman va qirg'iz tillarida olib borilardi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, rus, qozoq, tojik, turkman va qirg'iz tillarida o'qitiladigan mingdan ortiq maktablar tegishli respublikalarda tuzilgan o'quv rejasi va dasturlaridan foydalandilar.

Respublikamiz territoriyasida ikki va undan ko'proq tillarda o'qitiladigan mingga yaqin maktabning borligi singari faktlar mazkur maktablarda o'quv jarayonini tashkil qilishning murakkabligidan dalolat beradi. Bu maktablarda 770 mingdan ortiq o'quvchi bilim oladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda turli millat vakillai (koreyslar, greklar, tatarlar va boshqalar) yashaydilar, ular o'zbek, rus va boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda ta'lim oladilar, shu bilan birga o'z ona tillarini o'rganadilar.

O'quvchilarning ayni bir vaqtda bir nechta tilni o'rganishlari, tabiiyki, o'quv rejasi tuzilishini murakkablashtiradi, haftalik soatlar sonini ko'paytiradi. O'zbekiston maktablarida ikki tilni emas, balki uch tilni – ona tili, rus tili va chet tilini o'rganish buning asosiy sababidir.

O'zbekiston maktablari uchun yangi o'quv rejasida to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish, IV sinfdan boshlab sistemali fanlar o'qitishni joriy qilish nazarda tutilgan. O'rta maktab o'quv rejasidagi shu muhim o'zgarish, dastavval, boshlang'ich ta'lim rolini o'zgarishi bilan bog'langandi. Shu yillarning yana bir o'ziga xos bo'lgan xususiyati sakkiz yillik majburiy ta'limga o'tib bo'lib, majburiy o'rta umumiy ta'limga o'tish jadal sur'atlar bilan amalga oshirishga kirishildi. Respublika o'quvchilarining 85 foizdan ko'prog'i sakkiz yillik maktabni tugallab, qariyb 81 foizi o'rta maktabda o'qishni davom ettirdi. Bundan tashqari, o'quvchilarning ko'pgina qismi sakkizinchi sinfni tamomlagandan keyin o'rta maxsus o'quv yurtlariga, o'rta hunar texnika bilim yurtlari va kechki maktablarga kirdi.

O'rta maktabning hamma sinflarida o'quv mashg'ulotlari ilgorigidek 1-sentabrdan boshlandi va I-IV sinflarda 31-mayda, V-VII sinflarda 19-iyunda, VIII-X sinflarda 25-iyunda tugaydigan bo'ldi. Kuzgi kanikul 5 noyabrdan 9 noyabrgacha, qishki kanikul 30 dekabrdan 10 yanvargacha, bahorgi kanikul 24 martdan 31 martgacha qilib belgilangan edi.

Maktab pedagoglar kengashining qaroriga muvofiq, barcha o'quv guruhlarining o'quvchilari yozgi kanukul davrida (iyul-avgust) 7 kun davomida maxsus grafik bo'yicha maktab o'quv tajriba uchastkasida ishlashlari shart qilib belgilangan.

O'quv yili I-IV sinflarda, umuman, 35 hafta, V-VII sinflarda 38 hafta, VIII-X sinflarda 39 hafta davom etadi. Shu jumladan VIII sinflarda bitiruv imthonlariga tayyorlanish va imtihon berish uchun 4 hafta vaqt belgilanadi. Shunday qilib, VIII sinflarda haqiqiy o'quv haftalarining soni 37 haftani, IX-X sinflarda 35 haftani tashkil etdi. Tasdiqlangan yangi rejada IX-X sinflar o'quvchilarining haftalik o'quv yuklamasi 32 soatga yetkazilgan, bu esa maktab ustavida ham qayd qilingan. Yuklamaning bunday ko'paytirilishi milliy maktablar o'quvchilari bilan qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishga sabab bo'ldi va fakultativ mashg'ulotlar uchun ko'zda tutilgan soatlar sonini kamaytirilishiga olib keldi.

Issiq iqlim sharoitida bolalarni o'quv mashg'ulotlari bilan bunday ortiqcha band qilish ularni charchatib qo'yadi va bilimlarni o'zlashtirishlariga, shubhasis, ta'sir etadi.

O'quvchilar fan asoslari bo'yicha nazariy bilimlarning muayyan yig'indisini o'zlashtirish bilan bir qatorda, qo'l mehnati darslarida (I-III sinflarda), maktab o'quv ustaxonalarida, o'quv tajriba yer uchastkasida (IV-VIII sinflarda), fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda (IX-X sinflarda), qishloq joylarida paxta dalalarida ijtimoiy-foydali mehnatga kuch yetganicha qatnashish yo'li bilan mehnat malakalarini hosil qildilar.

Boshlang'ich sinf, shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarining ona-tili, adabiyot, matematika, geografiya, ximiya, biologiya, tarix va jamiyatshunoslik bo'yicha bilimlari tobora kengayib, chuqurlasha bordi. Yangi dasrliklar va o'quv qo'llanmalari asosida o'qitish shunga imkon berdi.

O'quv jarayoni yangi tashkil etilganda yangi dasturlar bo'yicha olib boradigan ishlar o'quvchilarning umumiy aqliy va jismoniy o'sishlariga samarali ta'sir ko'rsatdi, ularning bilim darajasi va sifatini oshirishga imkoniyat tug'dirdi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni ruhiy-pedagogik o'rganish natijasi quyidagilarni aniqlagan edi.

1. 1-sinfdan boshlab o'quvchilar kuzatishga taalluqli topshiriqlarni katta qiziqish bilan bajaradilar, ular faktlarni qidirib topishga harakat qiladilar, keyingi kuzatishdan shu faktlarni aniqlashga intiladilar, ularning bilinar-bilinmas, oddiy bog'lanishlarni farqlay olishlari ma'lum bo'ldi. Bu yoshdagi o'quvchilarni fahm-farosatga, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga doir topshiriqlar ham qiziqtiradi.

2. Ta'limning yangi mazmuni va metodlari o'quvchilar tafakkuri va nutqining o'sishini ancha tezlashtirdi.

3. Kichik yoshli o'quvchilar hamma narsani juda tez bilishga qiziqdilar. Ular o'zlariga tanish bo'lmagan narsalar yoki ularning tasvirlari ko'rsatiladigan va ularni aniqlash topshiriladigan mashg'ulotlarni sabrsizlik bilan kutadilar. Bolalar yangi narsalar bilan qiziqib, tanishadilar va narsalarga nisbatan o'zlarining munosabatlarini bildiradilar.



4. O'quv faoliyatiga qiziqish rejali ravishda osha bordi. Bunda bolalar shu faoliyatni fikr yuritishga, tashabbus va mustaqillik ko'rsatishga undaydigan turlarini afzal ko'rishdi, she'r va qoidalarni yodlab olish ularga yoqib tushdi.

5. Bu yoshdagi o'quvchilarda o'quv faoliyatini faollashtirishga ega motivlarning ko'payishi bilan bog'liq faoliyat turlari paydo bo'ldi. Masalan, 1-sinfda ota-onani, o'qituvchini xafa qilmaslik istagi ustun kelgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi sinflarda unga endi boshqa motivlar: sinfga (maktabga) putur yetkazmaslik istagi, o'rtoqlar oldida or-nomus, yangi narsalarni bilib olishga intilish, o'qishga qiziqish va shu kabilar shakllanar edi.

Bu davrdagi o'quvchilar ancha mustaqil, tobora sabotli, g'ayratli va bir-birlariga do'st bo'lar edilar.

Ta'limning yangi mazmunga o'tishi g'oyat katta tayyorgarlikni talab etardi. Ammo tayyorgarlik sust holda boshlangan bu ish tez vaqtda boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

### **Tayanch iboralar:**

*Ta'lim mazmuni, umumiy xususiyat, yangi yozuv, o'quv rejasi, o'quv dasturi, o'quv yili tuzilishi.*

### **Nazorat savollari:**

1. *Ta'lim mazmuni nimalarni o'zida aks ettirdi?*
2. *O'zbek maktabining qanaqa xususiyatlari bor edi?*
3. *Yangi yozuvga o'tishdan maqsad nima edi?*
4. *O'quv rejasi to'g'rimidi?*
5. *Dasturlari-chi?*
6. *O'quv yilining tuzilishi-chi?*

### O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMI ISTIQLOL YILLARIDA (1991-2006 yillar)

#### *1. Xalq ta'limi tizimining yangilanishi.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hozir biz qiyin va mas'uliyatli davrni o'z boshimizdan kechirmoqdamiz. Bu ham eng avvalo, xalqimiz ongida va fikrlashda juda katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liqdir. Davr taqozosi bilan maorif sohasida ham katta o'zgarishlar, ya'ni ta'lim-tarbiya ishini qayta qurish, ularning yangi va shakl uslublarini qidirib topish, amalda tadbiiq etish, maktab hayotiga insonparvarlik tushunchasini, xalq pedagogikasi an'alarini, hamkorlik pedagogikasi g'oyalarini to'la olib kirish, o'qituvchi shaxsini hurmat qilish, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabatni qaror toptirish va shu asosda maktabda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash shu kunining dolzarb muammosidir.

Mana shu maqsadda 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Ana shu qonun qabul qilingan sessiyada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'lim islohotlari haqida o'z fikrlarini bildirdi:

«Kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Mana shuning uchun ham biz bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz».

1996-1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Shu davr mobaynida 300 ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi, 800 ga yaqin o'qituvchi chet ellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida chet mamlakatlarga borib qaytdi. O'rta maxsus ta'lim sohasida joylarda biznes maktabi, kichik va o'rta maktab uchun kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, yangi mutaxassisliklarning (fermer, soliq, bojxona xodimi ...) kiritilishi e'tiborga loyiqdir.

Oliy maktab sohasida test usulining joriy etilishi, viloyat markazlarida pedagogika institutlarining universitetlarga aylantirilishi va joylardagi o'quv yurtlariga yuqori ta'sis nizom berilishi, ta'sis etilgan milliy tashkilot va xalqaro jamoalar hisobidan chet ellarga tajriba almashish va talabalarni o'qishga yuborishni yo'lga qo'yilishi, chet el mutaxassislarining jalb qilinishi ham shular jumlasidandir. Endi bevosita «Ta'lim to'g'risidagi qonun»imizga keladigan bo'lsak, bu qonun 5 ta bo'lim, 3 ta moddadan iboratdir. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning maqsadi:

Fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgandir.

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu qonun hujjatlari ta'lim to'g'risidagi qonun, kadarlar tayyorlash milliy dasturi, nizomlar, qonun osti aktlari, qo'llanmalar va xalqaro shartnoma qoidalaridir.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari ham qonunda belgilangan bo'lib, ta'lim - O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor deb e'lon qilindi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishining: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriy-ligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlash-tirish.

Fuqarolarga jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar haqida ham aytib o'tilgan. Ya'ni:

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda ta'lim standartlariga ham o'zgartirishlar kiritilgan.

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari:

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

## **2. Maktabgacha ta'lim.**

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti, yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida

va, mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

### **3. Umumiy o'rta ta'lim.**

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang'ich ta'lim (I-IV-sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (I-IX-sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi, bilimlarning zarur xajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

### **4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.**

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litsey - o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashgan va kasbga yo'naltilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, ko'nikma va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan 3 yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

### **5. Oliy ta'lim.**

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassis tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat - oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

### ***6. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.***

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot muassasalarida olinishi mumkin.

### **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi va buning tartibi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### ***7. Maktabdan tashqari ta'lim.***

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish ularning bo'sh vaqti va dam olishni tashkil etish uchun davlat organlari jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar-madaniy, estetik, ilmiy-texnikaviy sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Bu bolalar ijodiyoti, saroylari, uylari, klublari, markazlari, sport maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar shaklida tuzilishi mumkin.

### **8. Oiladagi ta'lim.**

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

### **9. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar.**

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Oilada yoki mustaqil ta'lim olganlar tegishli ravishda ekstern tartibida imtihon topshirgan shaxslarga ham beriladi.

### **10. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish.**

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonadan joy bilan ta'minlanadi.

### **11. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.**

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Yetim bolalarni va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish.

Bunday bolalarni o'qitish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni bu ta'lim muassasalariga yuborish ota-onalar, qonuniy vakilliklarning roziligi bilan psixologik tibbiy komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.



Alohida sharoitlarda tarbiyalanishni va o'qishga muhtoj bolalar va o'smirlar uchun ularning bilim olish, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi. Ozodlikdan maxrum qilingan shaxslarga ham ta'lim olish uchun sharoitlar yaratiladi (24-modda).

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:**

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqarish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini pedagog ilmiy kadrlarni akkreditatsiyadan va attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi xujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektoratlarini tayinlash.

### **Mahalliy davlat hokmiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari**

#### **27-modda:**

- o'z hududlarida ta'lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, tugatadilar, ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
- o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;
- ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar.

### **29-modda:**

Ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzgan taqdirda akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini to'xtatib qo'yishga haqli.

### **30-modda:**

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini ximoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi va ta'lim olishlari uchun javobgardirlar.

### **31-modda:**

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

### **32-modda:**

Ta'limni rivojlantirish fondlari yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

*Qonun, milliy dastur, g'oya, milliy g'oya, milliy mafkura, ong, fikr, aql, qalb, ruh, ma'rifat, maktab ta'limi, tarbiyasi, ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, boshlang'ich, to'liqsiz o'rta ma'lumot. Bilim olishda tenglik, diniy tashkilotlardan ajratilganligi, o'z ona tilida o'qish, hunar kolleji, akademik lisey, o'qituvchi huquqi.*

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1. Barkamol avlod deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Xalq ta'limi tizimi nimani anglatadi?*
- 3. Xalq ta'limi to'g'risidagi qonun-chi?*
- 4. Milliy dastur nima?*
- 5. Ta'lim-tarbiya uzluksizligi deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Ma'lumot turlarini sharhlang?*
- 7. Nega maktablar diniy tashkilotdan ajratilgan?*
- 8. Hunar kollejini sharhlang?*
- 9. Akademik litseyni sharhlang?*
- 10. O'quv-tarbiya muassasalarini nima uchun uzluksizligi birligi ta'minlangan?*

# FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

## I. Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura. 1-jild. T., "O'zbekiston". 1996 yil.
2. Karimov I.A. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". 2-jild, T., "O'zbekiston". 1996 yil.
3. Karimov I.A. " Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". 3-jild, T., "O'zbekiston". 1996 yil.
4. Karimov I.A. "Bunyodkorlik yo'lidan ". 4-jild. T., "O'zbekiston". 1996 yil.
5. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi". 5-jild. T., "O'zbekiston". 1997 yil.
6. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., "Sharq". 1998 yil.
7. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin". "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari. T., "O'zbekiston". 1998 yil.
8. Zunnunov A. va boshq. Pedagogika tarixi. T. "Sharq". 2000 yil.
9. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T., "Sharq". 1999 yil.
10. Abdulla Avloniy. "O'son millat". T., "Sharq". 1999 yil.
11. Abdullayev Ortiqboy. "Turkistonning qora kunlari". "Sharq yulduzi". 1992 yil, 12-son.
12. Azizxo'jayev A. "Davlatchilik va ma'naviyat". T., "Sharq". 1992 yil.
13. Alimova D., Rashidova D., "Maxmudxoja Bexbudiy i yego istoricheskiye vozzreniya". T., "Ma'naviyat". 1998 yil.
14. Ahmad Zakiy Validiy. "Xudoyorxonning so'nggi kunlari". O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma, № 15743.
15. Ahmad Zakiy Validiy. "Bugungi turk eli". Istanbul, 1981 yil. 2-nashr.
16. Ahmad Zakiy Validiy. "Xotiralar". "Sharq yulduzi". 1993 yil, 4-5, 6-7, 8-9-sonlar.
17. Bakirov F. "Chor Turkistonida sud, shariat va odat". T., 1967 yil.
18. Bartold V. "Istoriya kulturnoy jizni Turkestana". T., 1913 yil.
19. Vamberi Xarman. "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi". T., 1990 yil.
20. Gulamov X.G. "Iz istorii diplomaticheskix otnosheniy Rossii S Buxarskim Xanstvam XVIII". v.T., "Fan", 1992 yil.

21. Duxovskiy S.M. "Vsepoddanneyshiy doklad Turkestanского general-gubernatora generala ot infanterii Duxovskogo". Islam v Turkestane. T., 1899 yil.
22. Ziyoyev H. "Istiqlol - ma'naviyat negizi". T., "Ma'naviyat". 1999 yil.
23. Ibrat. "Farg'ona tarixi", Meros. Toshkent, Kamalak, 1991 yil.
24. Qori Niyozov T.N. "O'zbekistonni madaniyati tarixidan ocherklar". Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti, 1959 yil.
25. Qosimov B. "Jadidchilik". "Yoshlik". 1990 yil, 7-son.
26. Qosimov B. "Ismoilbek Gaspirali". Toshkent, 1992 yil.
27. Kun A.L. "Musulmanskiye shkolo". "Turkestankiye vedemos-ti", 1876 g, № 37.
29. Mazjub Namangoniy. "Tazkirai Hazrati Mazjub Namangoniy". O'z.RFA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma, № 2662G'4.
30. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999 yil.
31. Muhammad Solih Toshkandiy. "Tarixi jadidai Toshkand". O'z.RFA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma, № 5732.
33. Ostroumov N.P. "K istorii narodnogo obrazovaniya v Turkes-tanskoy kraye. Konstantin Petrovich Fon Kaufman - ustroitel Turkes-tanskoy kraya". Lichno'e vospominaniya N.P. Ostroumova (1877-1881gg.). - T., 1899g.
34. Rasulov B.M. "Turkiston madrasalari". "Fan va turmush", 1996 yil, 2-son.
35. Saidqulov T. "Markaziy Osiyo xalqlari tarixining tarixshunos-ligidan lavhalar". T., "O'qituvchi", 1995 yil.
36. Turon tarixi. 1-3 sonlar. Majmua. Toshkent. 1992-1993-1994 yillar.
37. Xolboyev S. Munavvar qori. "Fan va turmush", 1990 yil 3-4 sonlar.
38. Xoroshxin A.P. "Turkiston o'lkasiga oid maqolalar to'plami". Sankt-Peterburg, 1876 yil. P.Ravshanov o'zbek tiliga o'g'irgan.
39. Shamsutdinov R. "Jadidchilik: haqiqat va uydirma". "Muloqot", 1991 yil, 11-12 sonlar.
40. Shamsutdinov R.T., Rasulov B.M. "Istiqlol uchun kurash fidoiylari". Andijon, "Meros". 1993 yil.
41. Shamsutdinov R.T., Rasulov B.M. "Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)". Andijon, "Meros". 1995 yil.

## **II. Dissertasiyalar**

42. Abduraimova N.A. "Kolonialnaya sistema vlasti v Turkestane (vtoraya polovina XIX - nachalo XX vv.)". Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni dok. ist. nauk. T., 1994g.

43. Ziyayeva D. H. "Turkistonda milliy-ozodlik harakati. XX asr tarixnavisligida (1916-yil qo'zg'oloni va 1918-1924-yillardagi istiqloqlilik harakatini o'rganish muammolari)". Doktor. diss. Toshkent. 1999 yil.

44. Sodiqov H. SH. "XX asr boshlarida chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va istiqloq uchun kurash". Dokt. diss. T., 1994 yil.

45. Rasulov B.M. "O'zbekistondagi musulmon maktab va madrasalari tarixidan (XIX asr oxiri va XX asrning 20-yillari). Tarix fanlari nomzodligi uchun yozilgan diss.. Andijon, 1996 yil.

## **III. Arxiv manbalari**

### **O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi**

46. 1-jamg'arma. Turkiston general-gubernatori mahkamasi.

47. 3-jamg'arma. Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi.

48. 19-jamg'arma. Farg'ona viloyat boshqarmasi.

49. 717-jamg'arma. General-gubernator kengashi.

50. 463-jamg'arma. Toshkent Eski shahar politsiya boshqarmasi.

51. 723-jamg'arma. Turkiston harbiy okrug sudi.

## **IV**

1. O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, X. Hamidovalar. O'zbek pedagogikasi tarixi. T. «O'qituvchi», 1997 yil.

2. J. Hasanboyev, O. Hasanboyeva. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. T. «O'qituvchi» 2002 yil.

3. A. Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. T. «O'qituvchi», 1997 yil.

4. K. Hojamov. «Pedagogika tarixi» T. «O'qituvchi», 2002 yil.

## MUNDARIJA

<i>Kirish</i> .....	3
<i>I bob. Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi</i> .....	5
1. Ta'lim tarixi kursining maqsadi va vazifalari .....	5
2. Ibtidoiy jamiyatni yemirilish davrida tarbiya va ta'lim .....	6
3. Markaziy Osiyo xalqlarida ibtidoiy jamoa davrining oxiridagi tarbiya va ta'lim .....	6
<i>II bob. Avesto davrida ta'lim</i> .....	8
1. Avestoda didaktik g'oyalarning ifoda etilishi .....	8
2. Avestodagi didaktik usullar .....	9
<i>III bob. Markaziy Osiyoda islom dini tarqalgandan keyin maktab va pedagogika</i> .....	12
1. Musulmon maktablarining paydo bo'lishi .....	12
2. Savod va hisoblar o'rgatadigan maktablar .....	13
<i>IV bob. Masjidlarda huzuridagi qadimiy ta'lim</i> .....	16
1. Qorixona maktablari .....	16
2. So'nggi feodalizm davridagi Markaziy Osiyoda madrasalar .....	17
3. Markaziy Osiyoda so'ngi feodalizm davrida ta'lim .....	18
<i>V bob. Markaziy Osiyoda dastlabki darsliklarning yaratilishi</i> .....	21
1. Ta'limda hunar va tabiat to'g'risidagi og'zaki darsliklar .....	21
2. Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiylar maktabi .....	22
<i>VI bob. O'yinnoma va Boburnomadagi ta'lim</i> .....	25
1. "O'yinnoma va Boburnoma" asarlaridagi didaktik qarashlar .....	25
2. Boburnoma asarida didaktik qarashlar .....	26
<i>VII bob. Qo'lyozma kitoblarda pedagogikaga doir asarlarning ta'limiy mazmuni</i> .....	29
1. Qobusnoma asari .....	29
2. Zarnudji kitobidagi didaktik qarashlar .....	29
3. "Chor kitob" va uning maqsadi .....	31
<i>VIII bob. Abu Ali Ibn Sinoning aqliy tarbiyaga oid qarashlari</i> .....	34
Abu Ali Ibn Sinoning ta'limiy qarashlari .....	34
Ibn Sino ta'limotida ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar .....	35
<i>IX bob. Yan Amos Komenskiyning ta'lim nazariyasi</i> .....	37
1. Komenskiyning pedagogik g'oyalari. "Buyuk didaktika" asari .....	37
2. "Buyuk didaktika"ning tarbiyaviy g'oyalari .....	38
<i>X bob. Maktab tizimi va o'qitishning mazmuni</i> .....	41
1. Bolaning yoshini davrlarga bo'lish .....	41
2. Buyuk didaktikada o'qitishi mazmuni .....	42
<i>XI bob. Yan Amos Komenskiyning didaktik qarashlari</i> .....	45
1. Didaktikaning oltin qoidasi .....	45
2. O'qitishda tizimlilik .....	46
<i>XII bob. Maktab ta'limini yo'lga qo'yish</i> .....	49
1. Sinf-dars tizimi .....	49

2. "buyuk didaktika" da maktab intizomi g'oyasi .....	49
3. Maktabni boshqarish nazariyasi .....	50
XIII bob. Iogann Genrix Pestalossining ta'lim nazariyasi .....	53
1. Aqliy tq'lim .....	53
2. Pestalossining elementar nazariyasi .....	54
XIII bob. Iogann Gerbartning ta'lim nazariyasi .....	56
1. Gerbart pedagogikasining asoslari.....	56
2. Ta'lim nazariyasi .....	57
3. Ta'limning bosqichlari nazariyasi .....	58
XV bob. Turkistonda dastlabki maktablar .....	60
1. Xonlik va amirlik davri ta'limi .....	60
2. Dastlabki rus maktablarida ta'lim mazmuni .....	61
XVI bob. Turkistonda rus-tuzem maktablari .....	65
1. Diniy majburiy ta'lim .....	65
2. Chorizmning ta'lim sohasidagi siyosati .....	68
XVII bob. Turkistonda yangi usul maktablarining taraqqiy etishi .....	71
1. Yangi usul maktablarini paydo bo'lishi .....	71
2. Yangi usul maktablariga qarshi kurash .....	72
3. Rushdiya va ibtidoiya maktablari .....	73
XVIII bob. Jadid maktablarida ta'lim .....	76
1. Xonlik va amirlikda yangi ta'lim .....	76
2. Turkistonda jadid maktablari .....	76
XIX bob. Turkistonda xalq maorifi yangi tizimini tashkil etilishi (1917-1924 yillar) .....	80
1. Milliy pedagog kadrlar muammosi .....	80
2. Birinchi o'quv dasturlari .....	82
XX bob. O'zbekistonda xalq maorifining rivojlanishi (1924-1930 yillar) .....	85
1. To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar .....	85
2. SB va CHSB maktablari tarixi .....	87
XXI bob. O'zbekistonda umumiy majburiy ta'limni amalga oshirish uchun kurash (1931-1941 yillar) .....	89
1. O'quv rejaları, dasturlari va darsliklari .....	89
2. Dalton - plan metodi .....	90
3. Xalq maorifi tizimida pedalogiya buzqliklariga qarshi kurash .....	90
4. Rus alifbosiga o'tish .....	91
XXII bob. 1941-1958 yillarda xalq maorifi .....	93
1. Urush yillarida xalq maorifi .....	93
2. O'quvchilarning safarbarlikdagi ishtiroki .....	95
XXIII bob. 1959-1969 yillarda umumta'lim maktablari rivojlanishi .....	97
1. O'zbekistonda xalq maorifi taraqqiyoti .....	97
2. Kechki ta'limning rivojlanishi .....	99
XXIV bob. O'zbekistonda maktab ta'limi mazmunining umumiy xususiyatlari (1970-1991 yillar) .....	101
XXV bob. O'zbekistonda xalq ta'limi istiqloq yillarida (1991-2006 yillar) .....	105



1. Xalq ta'limi tizimining yangilanishi .....	105
2. Maktabgacha ta'lim .....	108
3. Umumiy o'rta ta'lim .....	109
4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi .....	109
5. Oliy ta'lim .....	109
6. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim .....	110
7. Maktabdan tashqari ta'lim .....	110
8. Oiladagi ta'lim .....	111
9. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar .....	111
10. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish .....	111
11. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish .....	111
Mahalliy davlat hokmiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari .....	112
Foydalanilgan manba va adabiyotlar .....	115

O`quv-uslubiy nashr

Ma`suda Abdullayeva

O`g`iloy Asqarova

Bahodir Madaminov

Muqimjon Hayitboyev

## TA'LIM TARIXI

*O`quv qo`llanma*

Muharrir: Ibrohim Mahkamov

Tex. muharrir: Dilmurod Umarov

Musahhih: Nuriddin Muhammad

2013 yilning 5 fevralida terishga berildi. 2013 yilning 10 fevralida bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 7,5 bosma taboq. Oq qo`g`ozga ofset usulida chop etildi. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«Muharrir» nashriyoti

Litsenziya: AI №230, 2012-yil 16 noyabrda berilgan.

“Muharrir” nashriyoti matbaa bo`limida chop etildi.

100060, Toshkent shahri, Elbek ko`chasi, 8-uy.

ISBN 978-9943-25-186-1



9 789943 251861